“BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI”

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami

I-qism











O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-yil 25-may

I bo‘lim

SAMARQAND-2026

UO‘K: 332.1:502.131.1(06)
KBK: 65.04+20.18
A 80
Artikov, Z.S.
“Barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami (I-II qism) [Matn] / Z.S. Artikov ; muharrir O.M. Pardayev va boshq.- Toshkent: TURON NASHR (Mirzo Abdullo nur savdo), 2026.-406 b.

TO‘PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHI:
Z.S.Artikov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor.

NASHR UCHUN MAS’ULLAR:
O.M.Pardayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
G.M.Shadiyeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
T.S.Sharipov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.A.Sultonov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;
R.J.Qurbonova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Abdullayeva – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
D.S.Musinov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
B.O.Do‘stmatov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Sattarova – dotsent v.b;
Z.K.Raximov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
M.E.Erdonov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

SAHIFALOVCHILAR:
M.E.Erdonov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi PhD, dotsent v.b.
S.B.Iskandarov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
Sh.N.Mirzayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
A.I.Asrorov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
V.A.Fozilov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
Sh.SH.Mirzaxadjayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirishga doir nazariy-metodologik yondashuvlar, iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta’minlash jarayonida yashil texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq muammo va yechimlar, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, kam uglerodli rivojlanish tamoyillarini qo‘llash masalalari yoritilgan. Unda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini jadallashtirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, innovatsion va investitsion mexanizmlarni takomillashtirish, davlat va hududiy rivojlanish strategiyalarida yashil transformatsiya ustuvorliklarini belgilash bo‘yicha nazariy qarashlar hamda amaliy tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Ushbu to‘plamda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrlar va iqtidorli talabalarning xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalariga bag‘ishlangan maqola va tezislari o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar, magistrlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, davlat idoralari xizmatchilari va shu soha mutaxassislari o‘z faoliyatlarida foydalanishi mumkin.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktлar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

В материалах научно-практической конференции освещены теоретико-методологические подходы к формированию современных механизмов устойчивого развития и зелёной трансформации, проблемы и пути их решения, связанные с внедрением зелёных технологий в процессе обеспечения экологической устойчивости отраслей экономики, а также вопросы рационального использования ресурсов, повышения энергоэффективности и применения принципов низкоуглеродного развития в социально-экономическом развитии регионов. В них также нашли отражение теоретические взгляды и практические рекомендации по ускорению процессов перехода к зелёной экономике, обеспечению экологической безопасности, совершенствованию инновационных и инвестиционных механизмов, а также определению приоритетов зелёной трансформации в государственных и региональных стратегиях развития.

В сборнике собраны статьи и тезисы профессоров, преподавателей, докторантов, независимых исследователей, магистров и талантливых студентов о современных технологиях реализации структурных изменений в сфере услуг.

Материалы сборника могут использовать бакалавры, магистры, докторанты, независимые исследователи, сотрудники государственных органов и специалисты данной области, обучающиеся в области экономики.

Тезисы редактируются авторами. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

The materials of the scientific-practical conference highlight theoretical and methodological approaches to the formation of modern mechanisms for sustainable development and green transformation, as well as problems and solutions related to the introduction of green technologies in ensuring the ecological sustainability of economic sectors. They also address issues of rational resource use, improving energy efficiency, and applying low-carbon development principles in the socio-economic development of regions. The materials further present theoretical views and practical recommendations on accelerating the transition to a green economy, ensuring environmental security, improving innovation and investment mechanisms, and defining green transformation priorities within national and regional development strategies.

This collection contains articles and theses by professors, doctoral students, independent researchers, masters and talented students on modern technologies for implementing structural changes in the services sector.

The materials in the collection can be used by bachelors, masters, doctoral students, independent researchers, government officials and specialists in this field studying in the field of economics.

Abstracts are edited by the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented therein. Some of their views may not reflect those of the organizational group.

UO‘K: 332.1:502.131.1(06)
KBK: 65.04+20.18

ISBN 978-9910-5219-5-9

© Artikov, Z.S., 2026-y.
© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026-y.
© “TURON NASHR” nashriyoti, 2026-y.

I SHO‘BA. BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL TRANSFORMATSIYANING NAZARIY, AMALIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI.

Rais: Shodiyeva Gulnora Mardiyevna – SamISI professori, i.f.d
Kotib: Musinov Dilshod Sultanovich – SamISI PhD., dosent

YASHIL IQTISODIYOT NAZARIYASI VA GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI

Shadieva Gulnora Mardievna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, i. f. d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning shakllanish tarixi, nazariy asoslari va asosiy tushunchalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida yashil iqtisodiyotning asosiy elementlari, xarakteristikalari va tarmoq tuzilmasi aniqlandi. Maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi muammolar va xavflar ko‘rib chiqildi, shuningdek, global ahamiyatga ega bo‘lgan zamonaviy tendentsiyalar baholandi. Tadqiqot qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va tarixiy tahlil metodlari asosida amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalari, past uglerodli iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, ekologik tarmoqlar.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida insoniyat murakkab ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan to‘qnash kelmoqda. Atmosfera ifloslanishi, global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning tugab borishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi hamda energiya inqirozi kabi tahdidlar barqaror rivojlanishga erishishda jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Shu o‘rinda, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi yangi model sifatida dolzarblik kasb etmoqda. So‘nggi yillarda Parij iqlim kelishuvi (2015), BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), Yevropa Ittifoqining “Yashil kelishuv” dasturi hamda Osiyo mamlakatlarida olib borilayotgan yashil transformatsiya siyosati global miqyosda yangi iqtisodiy paradigma — “past uglerodli iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini jadallashtirdi. Bu jarayon iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olib, xalqaro hamkorlik va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, yashil iqtisodiyot nazariyasining dolzarbligi bir nechta omillar bilan belgilanadi. Avvalo, ekologik muammolarning kuchayishi va resurslarning cheklanganligi insoniyatni yangi iqtisodiy model qidirishga majbur qilmoqda. Ikkinchidan, neft, gaz va ko‘mirga asoslangan an’anaviy model o‘rniga qayta tiklanadigan energiya manbalarining keng joriy etilishi global iqtisodiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Uchinchidan, xalqaro kelishuvlar — jumladan Parij kelishuvi, Kyoto protokoli va boshqa

tashabbuslar yashil iqtisodiyotning huquqiy asosini shakllantirib, davlatlarni ekologik majburiyatlarni bajarishga undamoqda. To‘rtinchidan, yashil texnologiyalar iqtisodiy jihatdan yangi imkoniyatlar yaratib, innovatsiyalar, yangi ish o‘rinlari hamda eksport salohiyatini oshirmoqda. Nihoyat, ijtimoiy omillar ham muhim bo‘lib, aholi orasida ekologik ong ortib bormoqda va bu iste’molchilarning ekologik toza mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabida o‘z aksini topmoqda. “Yashil iqtisodiyot” atamasi ilk bor 1989-yilda D. Pirrs va R. Klyuz tomonidan ishlatilgan. Keyinchalik, 1992-yilda Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan “Yer sammiti”dan so‘ng, bu tushuncha barqaror rivojlanish nazariyasi bilan uzviy bog‘landi. 2008 yilda BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni global inqirozdan chiqishning alternativ modeli sifatida targ‘ib qila boshladi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi nazariy jihatdan ekologik iqtisodiyot, barqaror rivojlanish nazariyasi va atrof-muhit iqtisodiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqur tahlil qilish zarurati oqibatida shakllandi. An’anaviy iqtisodiy model ishlab chiqarishning doimiy o‘sishini asosiy maqsad qilib qo‘yar ekan, yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash va ijtimoiy adolatni iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida ko‘radi.Mazkur konsepsiya shakllanishida bir necha ilmiy maktablarning yondashuvlari muhim o‘rin tutadi. Jumladan, ekologik iqtisodiyot maktabi vakillari (X. Daly, R. Costanza va boshqalar) iqtisodiy tizimni tabiiy ekotizimning bir qismi sifatida talqin qilib, barqaror rivojlanishni ekologik chegaralar bilan cheklash zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, yashil iqtisodiyot faqat ishlab chiqarishni emas, balki iste’mol jarayonlarini ham ekologik standartlarga moslashtirishi lozim. Shuningdek, BMT tomonidan 1987-yilda e’lon qilingan mashhur Brundtland hisobotida ifodalangan barqaror rivojlanish nazariyasi yashil iqtisodiyotning nazariy poydevorini mustahkamladi. Hisobotda barqaror rivojlanish “kelajak avlodlarning manfaatlarini xavf ostiga qo‘ymasdan, hozirgi ehtiyojlarni qondirish” sifatida ta’riflanib, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarning muvozanatini ta’minlash zarurligi alohida ta’kidlandi. Atrof-muhit iqtisodiyoti yo‘nalishi esa iqtisodiy faoliyatning ekologik oqibatlarini moliyaviy jihatdan baholashga e’tibor qaratadi. Bu yondashuvda “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyili, ekologik soliqlar tizimi va turli ekologik kompensatsion mexanizmlar ishlab chiqilib, korxonalarni atrof-muhit oldida mas’uliyatli bo‘lishga undaydi.Yashil iqtisodiyot rivojlanishida innovatsion va texnologik yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiyotni yangi avlod texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi: raqamli iqtisodiyot, energiya samaradorligi texnologiyalari, qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash hamda “aqlli shaharlar” konsepsiyasi yashil iqtisodiyotning amaliy ifodasidir. Ushbu yondashuv tarafdorlari yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydilar. Nazariy asoslarning umumiy xususiyatlari shundan iboratki, iqtisodiy o‘sish tabiatning cheklangan resurslari va ekotizim imkoniyatlari doirasida amalga oshishi kerak.

Yashil iqtisodiyot integratsiyalashgan yondashuvga asoslanib, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarni birlashtiradi. Uning shakllanishida davlat siyosati, ekologik standartlar va mustahkam huquqiy baza muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, bozor mexanizmlari — masalan, karbon kvotalari, ekologik soliqlar yoki yashil obligatsiyalar — ushbu jarayonni rag‘batlantirishning asosiy vositalari hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi faqat nazariy asoslar bilangina emas, balki amaliy jihatlari bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning markazida ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi bir qator asosiy elementlar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro uyg‘unlikda iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqadi. Bular jumlasiga qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligi, ekologik transport tizimlari, barqaror qishloq xo‘jaligi, chiqindilarni qayta ishlash, yashil moliya va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimlari kiradi. Yashil iqtisodiyotning eng muhim elementlaridan biri energiya samaradorligini oshirishdir. An’anaviy energiya manbalaridan foydalanishda katta miqdorda isrof kuzatilsa, zamonaviy texnologiyalar bu jarayonni tejamkor qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, quyosh, shamol, biomassa va geotermal energiya kabi qayta tiklanadigan manbalarni keng qo‘llash resurslar tanqisligini yumshatib, mamlakatlar energiya mustaqilligini ta’minlaydi. Shahar infratuzilmasida ekologik transport tizimlarini rivojlantirish ham yashil iqtisodiyotning ajralmas qismidir. Elektromobillarni ommalashtirish, jamoat transportidan foydalanishni kengaytirish va vodorod texnologiyalarini tatbiq etish orqali transportdan chiqayotgan karbon izini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu nafaqat havoning ifloslanishini pasaytiradi, balki aholining sog‘lig‘ini saqlashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yashil iqtisodiyotning yana bir muhim tarkibiy qismi barqaror qishloq xo‘jaligidir. Agroekologik yondashuvlar, suv tejovchi texnologiyalar va organik dehqonchilik usullarini joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini oshiradi va aholining barqaror ta’minotini kafolatlaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni qayta ishlash tizimlari esa iqtisodiyotda “yopiq sikl” tamoyilini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon resurslardan qayta foydalanish imkoniyatini kengaytiradi hamda chiqindilarni minimallashtirish orqali ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.Shu bilan bir qatorda, so‘nggi yillarda yashil moliya tizimi ham tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. “Yashil obligatsiyalar”, ekologik investitsiya fondlari va barqaror moliya mexanizmlarining shakllanishi ekologik yo‘nalishga ega loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsiyalarni jadallashtirishga imkon bermoqda.Mazkur elementlarning barchasi ma’lum tarmoqlar orqali ifodalanadi. Yashil iqtisodiyot tarmoqlari jumlasiga quyidagilar kiradi: energetika (quyosh, shamol, biomassa va geotermal energiya), sanoat (energiya tejamkor texnologiyalar va chiqindisiz ishlab chiqarish), transport (elektromobillar, jamoat transporti va vodorod texnologiyalari), qishloq xo‘jaligi (organik dehqonchilik, agroklasterlar va suv tejovchi texnologiyalar), xizmat ko‘rsatish sohasi (ekoturizm, ekologik marketing

va “yashil shaharlar” konsepsiyasi), shuningdek moliyaviy sektor (yashil obligatsiyalar va ekologik investitsiya fondlari). Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi bir tomondan ekologik barqarorlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi.Global tendensiyalarga asoslanib, yashil iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari ulushi quyidagicha taqsimlanadi: energetika – 30%, sanoat – 20%, transport – 15%, qishloq xo‘jaligi – 15%, xizmat ko‘rsatish – 10% va moliyaviy sektor – 10%. Ushbu nisbatlar turli mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini umumiy tarzda ifodalab, kelajakda qaysi yo‘nalishlar ustuvor bo‘lishini ko‘rsatadi.Shunday qilib, yashil iqtisodiyotning asosiy elementlari va tarmoqlari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ularning kompleks rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy elementlariga energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik transport, barqaror qishloq xo‘jaligi, chiqindilarni qayta ishlash, yashil moliya va ekologik texnologiyalar kiradi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy elementlari

Jadval 1.1.

Tarmoq	**Mazmuni**	**Natija**
Energetika	Quyosh, shamol, biomassa, geotermal energiya	Past uglerodli iqtisodiyot
Sanoat	Energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish	Resurslardan oqilona foydalanish
Transport	Elektromobillar, jamoat transporti, vodorod texnologiyalari	Karbon izining kamayishi
Qishloq xo‘jaligi	Organik dehqonchilik, suv tejovchi texnologiyalar	Oziq-ovqat xavfsizligi
Moliyaviy sektor	Yashil obligatsiyalar, ekologik fondlar	Yangi ish o‘rinlari, investitsiya
Xizmat sohasi	Ekoturizm, “yashil shaharlar”	Barqaror xizmat rivoji

Jadvalda yashil iqtisodiyotning asosiy elementlari tarmoqlar kesimida ifodalangan bo‘lib, ular mazmuni va kutilayotgan natijalari bilan birga ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tuzilma iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni uyg‘unlashtirgan holda, yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi kompleks xarakterini yoritib beradi. Birinchi ustunda keltirilgan tarmoqlar – energetika, sanoat, transport,

qishloq xo‘jaligi, moliyaviy sektor va xizmat sohasi – yashil iqtisodiyotning poydevorini tashkil etuvchi sohalar sifatida qaraladi. Ikkinchi ustun ularning mazmunini ko‘rsatib, har bir tarmoqda qaysi yo‘nalishlar ustuvorligini ochib beradi.

Masalan, energetikada quyosh, shamol, biomassa va geotermal energiya manbalaridan foydalanish, transportda elektromobillar va vodorod texnologiyalari, moliya sektorida esa yashil obligatsiyalar va ekologik fondlarning rivojlanishi. Uchinchi ustunda esa ushbu jarayonlardan kutiladigan natijalar aks ettirilgan: past uglerodli iqtisodiyot, resurslardan oqilona foydalanish, karbon izining kamayishi, oziq-ovqat xavfsizligi, yangi ish o‘rinlari va xizmat sektorining barqaror rivojlanishi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yashil iqtisodiyot elementlari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan tizimni hosil qiladi.

Masalan, energetika va transport tarmoqlarida qayta tiklanadigan manbalar hamda ekologik texnologiyalarni joriy etish karbon emissiyasini kamaytirsa, sanoatda energiya samaradorligini oshirish resurslardan oqilona foydalanishga olib keladi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida organik dehqonchilik va suvni tejovchi texnologiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi. Moliyaviy sektor esa ushbu jarayonni moliyalashtirish orqali yangi ish o‘rinlari va investitsion imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Xizmat ko‘rsatish sohasida esa ekoturizm va “yashil shaharlar” konsepsiyasi ekologik ongni kuchaytirib, iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. Demak, jadvalda keltirilgan elementlar va natijalar o‘zaro uyg‘unlashib, yashil iqtisodiyotning kompleks rivojlanish modeli sifatida shakllanmoqda. Ushbu tizim asosida iqtisodiyot nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki innovatsion o‘sishni, ijtimoiy barqarorlikni va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ham ta’minlaydi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda asosiy to‘siqlar — moliyalashtirishdagi cheklovlar, texnologik tafovutlar, institutsional bo‘shliqlar va ijtimoiy muammolardir. Shu bilan birga, greenwashing xavfi ham mavjud bo‘lib, u kompaniyalarning ekologik yondashuvni noto‘g‘ri talqin qilishidan kelib chiqadi. Yevropa Ittifoqi 2019 yilda qabul qilgan European Green Deal orqali 2050 yilgacha karbon neytrallikka erishishni maqsad qilgan. AQSh Inflation Reduction Act (2022) orqali yashil investitsiyalarga milliardlab dollar ajratmoqda. Xitoy esa quyosh va shamol energetikasida dunyoda yetakchilik qilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston, xalqaro hamkorlikda yirik quyosh elektr stansiyalarini barpo etmoqda.Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, yashil iqtisodiyot global barqaror rivojlanishning ajralmas yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Bu jarayon nafaqat ekologik muammolarning yechimini ta’minlaydi, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi. O‘zbekiston uchun esa mazkur konsepsiyani amalga oshirishda ekologik qonunchilikni takomillashtirish, yashil moliya mexanizmlarini kengaytirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda aholining ekologik ongini oshirish muhim vazifalar sifatida

belgilanishi lozim. Shunday qilib, yashil iqtisodiyotning kompleks rivojlanishi mamlakatning kelajakdagi raqobatbardoshligini ta’minlab, uni jahon iqtisodiy tizimida mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Asian Development Bank (ADB). (2023). Central Asia’s renewable energy outlook. Manila: ADB.
2. Costanza, R. (1997). Frontiers in ecological economics. Cheltenham: Edward Elgar.
3. Daly, H. E. (1996). Beyond growth: The economics of sustainable development. Boston: Beacon Press.
4. European Commission. (2019). The European Green Deal. Brussels: EC.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2020). Green growth indicators. Paris: OECD.

BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDAGI NAZARIY ASOSLARI

Artikov Zokir Sayfiddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD, prof.
zokirartikov86@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5333-4376
+99897 918 70 74

Annotatsiya. Mazkur tezisda barqaror rivojlanish konsepsiyasining nazariy asoslari, uning zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Barqaror rivojlanishni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlari hamda ularni amaliyotga joriy etish istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik muvozanat, innovatsiya, iqtisodiy o‘sish, resurslardan samarali foydalanish.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы концепции устойчивого развития, её роль и значение в современной экономике. Анализируется взаимосвязь между экономическим ростом, экологическим равновесием и социальной стабильностью. Также рассматриваются современные механизмы обеспечения устойчивого развития и перспективы их внедрения.

Ключевые слова: устойчивое развитие, зелёная экономика, экологическое равновесие, инновации, экономический рост, эффективное использование ресурсов.

Annotation: This thesis examines the theoretical foundations of the sustainable development concept and its importance in the modern economy. The relationship between economic growth, environmental balance, and social welfare is analyzed. Modern mechanisms for ensuring sustainable development and prospects for their implementation are also discussed.

Keywords: sustainable development, green economy, environmental balance, innovation, economic growth, efficient use of resources.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda ekologik muammolar va ijtimoiy tengsizlik masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli jahonda “barqaror rivojlanish” konsepsiyasi iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Mazkur konsepsiya inson ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlod manfaatlarini ham himoya qilishni nazarda tutadi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi ilk bor 1987-yilda BMTning Brundtland komissiyasi hisobotida keng yoritilgan bo‘lib, unda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatning uyg‘unligi asosiy mezon sifatida belgilangan. Hozirgi davrda yashil iqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar va energiya samaradorligini oshirish barqaror rivojlanishning muhim omillariga aylanmoqda.

Asosiy qism. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi uchta asosiy yo‘nalishga tayangan holda rivojlanadi:

1. **Iqtisodiy barqarorlik** – iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlash va resurslardan samarali foydalanish;
2. **Ijtimoiy barqarorlik** – aholi turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni kamaytirish;
3. **Ekologik barqarorlik** – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni asrash.

Quyidagi jadvalda barqaror rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlari keltirilgan.

1-jadval

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari[1]

№	Yo‘nalish	Mazmuni	Asosiy maqsadi
1	Iqtisodiy barqarorlik	Resurslardan samarali foydalanish	Barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish
2	Ijtimoiy barqarorlik	Aholi farovonligini oshirish	Ijtimoiy tenglikni ta’minlash
3	Ekologik barqarorlik	Tabiiy resurslarni muhofaza qilish	Ekologik xavfsizlikni ta’minlash

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Ushbu yo‘nalishlardan birining sust rivojlanishi umumiy taraqqiyot samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.



1-rasm: Barqaror rivojlanishning o‘zaro bog‘liq komponentlari

Rasmda barqaror rivojlanishning uch asosiy komponenti – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq holda tasvirlangan. Mazkur komponentlarning muvozanatda rivojlanishi davlat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi. Hozirgi davrda ko‘plab davlatlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini iqtisodiy siyosatga joriy etmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik muammolarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ham resurs tejamkorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishning yangi bosqichini shakllantirmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiya iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga ekologik

[1] Muallif ishlanmasi

muvozanat va ijtimoiy adolatni saqlashga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. yashil iqtisodiyot tamoyillarini barcha tarmoqlarga keng joriy etish;
2. qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish;
3. ekologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash;
4. resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish;
5. aholining ekologik madaniyatini oshirish;
6. ta’lim tizimida barqaror rivojlanish bo‘yicha bilimlarni keng targ‘ib qilish.

Natijada iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy farovonlik va ekologik xavfsizlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlash imkoniyati ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сонли “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. https://lex.uz

2. Давлат статистика қўмитаси: “Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳаси ва савдо кўрсаткичлари” — расмий статистик маълумотлар. https://stat.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ma’lumotlari (2024). Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi. https://chamber.uz.

CHAKANA SAVDO XIZMATLARI BOZORINI ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Р.Ж.Курбанова
«Реал иқтисодиёт» кафедраси доценти, PhD
МИ-124 гуруҳ магистранти
А.Кубаев

Аннотация:Мазкур тадқиқотда Ўзбекистонда чакана савдо хизматлари бозорини инновацион ривожлантиришнинг назарий ва амалий жиҳатлари таҳлил қилинган. Хусусан, чакана савдо соҳасида инновацион ёндашувларни жорий этиш орқали хизматлар сифати ва самарадорлигини ошириш, аҳоли эҳтиёжларини тўлиқ қондириш ҳамда рақобатбардошликни таъминлаш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар:чакана савдо, инновацион ривожланиш, савдо хизматлари, рақобатбардошлик, инновацион салоҳият, рақамли технологиялар, ахборот-коммуникация технологиялари, иқтисодий самарадорлик, савдо корхоналари, хизматлар бозори.

Аннотация:В данном исследовании проанализированы теоретические и практические аспекты инновационного развития рынка услуг розничной торговли в Узбекистане. В частности, освещены вопросы повышения качества и эффективности услуг, полного удовлетворения потребностей населения и обеспечения конкурентоспособности за счёт внедрения инновационных подходов в сфере розничной торговли.

Ключевые слова:розничная торговля, инновационное развитие, торговые услуги, конкурентоспособность, инновационный потенциал, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, экономическая эффективность, торговые предприятия, рынок услуг.

Abstract: This study analyzes the theoretical and practical aspects of innovative development of the retail services market in Uzbekistan. In particular, it highlights the issues of improving the quality and efficiency of services, fully satisfying consumer needs, and ensuring competitiveness through the introduction of innovative approaches in the retail sector.

Keywords:retail trade, innovative development, trade services, competitiveness, innovative potential, digital technologies, information and communication technologies, economic efficiency, trade enterprises, services market.

Чакана савдони инновацион ривожлантиришга қаратилган аниқ чора-тадбирлар товарлар мавжудлиги ва улар сифатини ошириш, шунингдек, барқарор иқтисодий ўсиш суръатлари билан бир қаторда инсон капитали ривожини таъминлашни назарда тутади. Бу эса ижтимоий-иқтисодий муаммоларни барқарор ҳал этишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, савдо соҳасини инновацион ривожлантиришнинг илмий асосланган устувор йўналишларини белгилаш, энг аввало, чакана савдо хизматларини такомиллаштириш билан боғлиқ бўлиб, мазкур хизматлар ўз функционал вазифасига кўра аҳоли эҳтиёжларини бевосита қондиришга хизмат қилади.

Чакана савдо хизматлари бозори аҳолига турли хил савдо хизматларини кўрсатиш орқали жамият эҳтиёжларини таъминлайди ва унинг инновацион ривожланиши аҳолига хизмат кўрсатиш сифати ҳамда даражасига бевосита таъсир кўрсатади. Шу боис, Ўзбекистонда чакана савдо хизматлари бозорини янада ривожлантириш, аввало, ушбу соҳада фаолият юритаётган хўжалик субъектлари — чакана савдо корхоналарининг инновацион фаоллигини ошириш билан чамбарчас боғлиқдир. Бозор муносабатлари чуқурлашаётган ва рақобат кучайиб бораётган шароитда чакана савдо корхоналари олдида турган асосий вазифалардан бири инновацион ривожланиш йўлига ўтиш ҳисобланади.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, иқтисодий тизимнинг барча даражаларида — корхона, тармоқ, ҳудуд ва мамлакат миқёсида — инновацион ривожланиш кўп жиҳатдан мавжуд инновацион салоҳият

даражасига боғлиқ бўлади. Чакана савдо корхоналарининг юқори инновацион салоҳияти эса соҳанинг барқарор ва рақобатбардош ривожланишини таъминлайди.

Ҳозирги шароитда чакана савдо хизматлари соҳасида инновацияларни жорий этишнинг асосий мақсади савдо хизматлари сифати ва самарадорлигини ошириш, товарларни сотиш ва тақсимлаш жараёнларини замонавий талаблар асосида ташкил этишдан иборат. Бу борада савдо бинолари, чакана савдо майдонлари ва ускуналаридан самарали фойдаланиш, ахборот-коммуникация технологиялари ва рақамли дастурий маҳсулотларни кенг жорий этиш муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, меҳнат унумдорлигини ошириш, харажатларни қисқартириш ҳамда чакана савдо корхоналари фаолияти самарадорлигини юксалтириш учун зарур ташкилий-иқтисодий шарт-шароитларни яратиш долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Чакана савдонинг асосий функциялар 1-чизмада кўрсатилган.

1-жадвал



Савдо, ишлаб чиқариш ва истеъмол соҳалари билан ўзаро алоқада бўлиб, ўзи банктранспорт, божхона суғуртаси, коммунал хизматлар ва бошқа хизматларнинг истеъмолчиси ҳисобланади. Бозор муносабатлари ривожланиб бориши билан чакана сотувчилар таклиф етилаётган хизматларни илмий таснифлашлари зарур. Иқтисодий адабиётларни ўрганиш шуни кўрсатдики, чакана савдода хизматларни таснифлаш муаммосини ҳал қилишда ҳали ҳам умумий фикр мавжуд эмас.

Чакана савдо хизматларининг таснифи жуда хилма-хил бўлиб, хизматларнинг жойи, вақти ва нархини ҳисобга олиш, режалаштириш, бошқариш, аниқлаш учун уларни илмий асосланган таснифлаш талаб етилади

Биз томондан чакана савдо хизматларининг таснифини ишлаб чиқдик. Шу билан бирга, чакана савдо хизматларини ҳам учта жиҳатларини кўриб чиқиш мумкин:

1.Харидорга товарларни сотиб олиш пайтида тўғридан-тўғри таклиф қилинадиган истеъмолчига хизматлар;

2. Ишлаб чиқариш корхоналарига, улгуржи савдо корхоналарига, воситачилик тарқатиш идораларига, бошқа товарларни етказиб берувчиларга хизматлар;

3. Ҳудуднинг ривожланишига ҳисса қўшадиган хизматлар.

SANOAT KLASTERLARINI JAHON XO'JALIGIDA TUTGAN O'RNI

S.B.Boboqulov SamISI, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD
tel: +998941891989, e-poch:
sanjar.bobokulov02@gmail.com,
ORCID 0000-0002-1882-1507

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda sanoat klasterlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rni, ularning iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va zamonaviy global iqtisodiyotdagi transformatsion roli yoritilgan. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) ma’lumotlariga ko‘ra, 40 ta yirik sanoat klasteri 877 million tonna karbonat angidrid gazini qisqartirish potensialiga ega bo‘lib, 508 milliard dollar YaIM va 4,6 million ish o‘rnini ta’minlaydi. Maqolada sanoat klasterlarini rivojlantirishning muhim omillari va innovatsion ekotizim tahlil etiladi.

Kalit so’zlar: sanoat klasterlari, global qiymat zanjirlari, klaster nazariyasi, vodorod iqtisodiyoti, tizimli integratsiya, innovatsion ekotizim, “yashil” iqtisodiyot, sanoat siyosati, mintaqaviy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль промышленных кластеров в мировой экономике, их роль в стимулировании экономического роста, повышении конкурентоспособности и трансформации современной глобальной экономики. По данным Всемирного экономического форума

(ВЭФ), 40 крупных промышленных кластеров потенциально способны сократить выбросы углекислого газа на 877 миллионов тонн, обеспечить ВВП в размере 508 миллиардов долларов и создать 4,6 миллиона рабочих мест. В статье анализируются ключевые факторы развития промышленных кластеров и инновационной экосистемы.

Ключевые слова: промышленные кластеры, глобальные цепочки создания стоимости, теория кластеров, водородная экономика, системная интеграция, инновационная экосистема, зеленая экономика, промышленная политика, региональное развитие.

Abstract: This article examines the role of industrial clusters in the global economy, their role in stimulating economic growth, enhancing competitiveness, and transforming the modern global economy. According to the World Economic Forum (WEF), 40 large industrial clusters have the potential to reduce carbon emissions by 877 million tons, generate $508 billion in GDP, and create 4.6 million jobs. The article analyzes the key factors in the development of industrial clusters and the innovation ecosystem.

Keywords: industrial clusters, global value chains, cluster theory, hydrogen economy, system integration, innovation ecosystem, green economy, industrial policy, regional development.

Bugungi kunda klasterlashtirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Jahon Iqtisodiy Forumining hisobotiga ko‘ra, 20 ta mamlakatdagi 40 ta yirik sanoat klasteri 877 million tonna karbonat angidrid gazini qisqartirish, 508 milliard dollar YaIM va 4,6 million ish o‘rnini yaratish potensialiga ega . Bu raqamlar klasterlarning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy ahamiyatini ham ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda klasterlashtirish jarayoni jadallashdi. 2026-yil holatiga ko‘ra, mamlakatimizda 381 ta sanoat klasteri faoliyat yuritmoqda. Xususan, paxta-to‘qimachilik klasterlari orqali 2,5 million gektar maydonda paxta yetishtirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, elektrotexnika va mebelsozlik klasterlari ham iqtisodiyotda muhim o‘rin egallamoqda. Prezident Murojaatnomasida 2026-yilda kimyo sanoatida 4,5 milliard dollarlik, tog‘-kon metallurgiya, neft-gaz, avtomobilsozlik, to‘qimachilik va qurilish materiallari sohalarida esa har birida 3 milliard dollarlik yangi loyihalar boshlanishi belgilangan.

Sanoat klasterlari kontseptsiyasini ilmiy asoslagan Garvard universiteti professori Maykl Porterning ta’kidlashicha, mamlakatning raqobatbardoshligi alohida korxonalar emas, balki ularning klasterlar shaklidagi birlashmalari orqali belgilanadi. Porter klasterlarni “o‘zaro bog‘langan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar va ular bilan bog‘liq muassasalarning geografik jihatdan jamlangan shakli” deb ta’riflaydi.

Klasterlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- **Vertikal klasterlar** — ishlab chiqarish zanjirining turli bosqichlaridagi korxonalarni birlashtiradi (masalan, paxta yetishtiruvchilar, to‘qimachilik fabrikalari, tikuv korxonalari);

- **Gorizontal klasterlar** — bir sohada faoliyat yurituvchi, o‘xshash texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalarni birlashtiradi;
- **“Yashil” klasterlar** — ekologik toza texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan klasterlar.

Jahon Iqtisodiy Forumining “Transitioning Industrial Clusters” (TIC) tashabbusi doirasida 2025-yil yanvar holatiga ko‘ra, 16 mamlakatdagi 33 ta yirik sanoat klasteri birlashgan. Ushbu klasterlar quyidagi ko‘rsatkichlarga ega (1-jadval)[2]

1-jadval

Jahon Iqtisodiy Forumining “Transitioning Industrial Clusters” ko’rsatkichlari

Ko‘rsatkich	***Qiymati***
Potensial CO_2 qisqarishi	yiliga 832 million tonna
YaIMga qo‘shgan hissasi	492 milliard dollar
Qo‘llab-quvvatlayotgan ish o‘rinlari	4,3 million

Ushbu tashabbus 2021-yilda COP26 doirasida ishga tushirilgan bo‘lib, hozirda Avstraliya, Braziliya, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Shvetsiya, Tailand, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlardagi klasterlarni o‘z ichiga oladi. Yangi a’zolar qatorida Hindistonning Kerala Green Hydrogen Valley, Mumbay vodorod klasteri, Braziliyaning Açu portidagi past uglerodli klasteri va Buyuk Britaniyaning HyNet North West klasteri mavjud. Xususan, HyNet North West klasteri dunyoda birinchi bo‘lib aktivlarga asoslangan tartibga solinadigan uglerodni ushlab qolish va saqlash biznes-modelini joriy qilgan. Bu model sanoat korxonalariga uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha uzoq muddatli sarmoya kiritish imkonini beradi.

O‘zbekistonda sanoat klasterlari jadal rivojlanmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga mamlakatda **381 ta klaster** faoliyat yuritmoqda. Ushbu klasterlar tarkibida 392 ta korxona mavjud bo‘lib, ular iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab oladi.

O‘zbekiston sanoat korxonalari asosan quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritmoqda:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish — 12,1 mingta;
- kiyim ishlab chiqarish — 6,1 mingta;
- to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish — 3,7 mingta.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda respublikada **142 ta paxta-to‘qimachilik klasteri** mavjud bo‘lib, ular tomonidan 2023-yilda 1 million gektardan ortiq maydonda paxta yetishtirilib, har gektaridan o‘rtacha 35,5 sentner hosil olingan. Jami 3 million 800 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirilgan. O‘zbekiston klasterlarining xalqaro miqyosda tan olinayotgani alohida e’tiborga loyiq. Buxoro viloyatidagi “BCT Cluster

[2] https://www.weforum.org/press/2025/01/33-industrial-clusters-from-16-countries-commit-to-economic-growth-jobs-creation-and-emissions-cuts/

Agrokompleks” hamda Toshkent viloyatidagi “TST Agro Cluster” paxta-to‘qimachilik klasterlariga “Better Cotton Initiative” xalqaro tashkiloti tomonidan maxsus litsenziya berilgan. Bu klasterlar tomonidan yetishtirilgan paxta xomashyosi ekologik jihatdan toza ekanligi xalqaro darajada tan olinganini anglatadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat klasterlarining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni qisqartirish va resurslardan foydalanish darajasini aniqlik bilan baholash imkonini beradi. Jahon Iqtisodiy Forumining hisobotida ta’kidlanishicha, yetakchi sanoat klasterlari dekarbonizatsiyani “birgalikda erishiladigan maqsad” sifatida ko‘radi va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali nol chiqindi infratuzilmasini joriy etishni jadallashtirmoqda. Ma’lumotlar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish korxonalar va ekotizimlar uchun qarorlar qabul qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekistonda ham raqamlashtirish yo‘nalishida muhim qadamlar tashlanmoqda. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategik dasturi doirasida sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish yo‘lida ishlar olib borilmoqda . 2025-yil sentyabrda qabul qilingan Prezident qaroriga ko‘ra, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida 2026 yilga mo‘ljallangan asosiy maqsad — ishlab chiqarish hajmini 9 foizga oshirib, 146 trillion so‘mga yetkazish va eksportni 3,3 milliard dollarga oshirishdir[3].

Sanoat klasterlari jahon iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Maykl Porter tomonidan asos solingan klaster nazariyasi bugungi kunda amaliyotda o‘z isbotini topdi. Jahon Iqtisodiy Forumining “Transitioning Industrial Clusters” tashabbusi doirasidagi 33 ta yirik sanoat klasteri 492 milliard dollar YaIM va 4,3 million ish o‘rnini qo‘llab-quvvatlamoqda, yiliga 832 million tonna karbonat angidrid gazini qisqartirish potensialiga ega. O‘zbekistonda klasterlashtirish jarayoni ham jadal rivojlanmoqda. 2026-yil holatiga ko‘ra, mamlakatimizda 381 ta sanoat klasteri faoliyat yuritib, ular iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab oladi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari alohida o‘rin tutadi — 142 ta klaster tomonidan 1 million gektardan ortiq maydonda paxta yetishtirilmoqda. Buxoro va Toshkent viloyatlaridagi ikki klasterning “Better Cotton Initiative” xalqaro tashkiloti tomonidan litsenziyalanishi O‘zbekiston paxtasining jahon bozorida ekologik toza mahsulot sifatida tan olinishida muhim qadam bo‘ldi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Buyuk Britaniyaning HyNet North West, Hindistonning Mumbay yashil vodorod klasteri, Braziliyaning Açu porti klasteri kabi ilg‘or loyihalar sanoat klasterlarini rivojlantirishda integratsiya, raqamlashtirish va ekologik barqarorlikka alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt klasterlar samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Umuman olganda,

[3] https://lex.uz/uz/doc-passport/-7736682

klasterlashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvning eng samarali yo‘lidir. Bu yo‘lda raqamlashtirish, “yashil” texnologiyalar va xalqaro hamkorlikni uyg‘unlashtirgan holda olib boriladigan ishlar mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda iqtisodiy zonalar va klasterlar soni ma’lum qilindi — 2026-yil 18-fevral. — URL: https://kun.uz/news/2026/02/18/ozbekistonda-iqtisodiy-zonalar-va-klasterlar-soni-malum-qilindi
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda sanoat korxonalari asosan qaysi yo‘nalishda faoliyat yuritmoqda? — Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil 10-mart. — URL: https://www.sirstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17952-o-zbekistonda-sanoat-korxonalari-asosan-qaysi-yo-nalishda-faoliyat-yuritmoqda
3. Xalq so‘zi. Klasterlarga “Better Cotton” litsenziyasi berildi — 2026-yil 10-fevral. — URL: https://xs.uz/uz/post/klasterlarga-better-cotton-litsenziyasi-berildi
4. Xalq so‘zi. O‘zbekiston jahon to‘qimachilik bozorining markaziga aylanadi — 2026-yil 21-yanvar. — URL: https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-zhahon-toqimachilik-bozorining-markaziga-ajlanadi
5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. O‘zbekiston Better Cotton Initiative bilan hamkorlikda paxta yetishtiruvchilarning sertifikatlashtirish xarajatlarini qoplash tizimini joriy etadi — 2025-yil 20-noyabr. — URL: https://gov.uz/oz/investmiit/news/view/108354
6. World Economic Forum. Industrial Clusters Powering the Transition to a Net-Zero Future — 2026-yil 14-yanvar. — URL: https://www.weforum.org/impact/industrial-clusters-powering-the-transition-to-a-net-zero-future/
7. HyNet North West. HyNet North West Hydrogen Pipelin — 2026-yil. — URL: https://www.hynethydrogenpipeline.co.uk/

ЭВОЛЮЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ОСНОВ И АКТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ТИПОЛОГИЗАЦИИ ТУРИСТСКИХ КЛАСТЕРОВ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ

Саттарова З.И. *и.о. доцент кафедры «Реальная экономика» Самаркандского института Экономики и Сервиса*

Аннотоция: В статье рассматриваются современные подходы к концептуализации туристских кластеров как формы территориальной

организации туризма. Систематизированы ключевые теоретические модели, отражающие сущность и структуру данного явления в отечественной и зарубежной науке. Результаты исследования могут быть применены при разработке региональной кластерной политики.

Abstract: The article examines contemporary approaches to the conceptualization of tourist clusters as a form of territorial tourism organization. Key theoretical models reflecting the essence and structure of this phenomenon are systematized. The findings may be applied in regional cluster policy development.

Annotatsiya: Maqolada turistik klasterlarni turizm faoliyatini hududiy tashkil etish shakli sifatida kontseptualizatsiya qilishning zamonaviy yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Mahalliy va xorijiy fanda ushbu hodisaning mohiyati va tuzilmasini aks ettiruvchi asosiy nazariy modellar tizimlashtirilib tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy klaster siyosatini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Развитие теорий и концепций размещения предприятий на определенной территории стало предпосылкой формирования концепции кластера. Ее основоположник, М. Портер определял кластер как сконцентрированные по географическому признаку группы взаимосвязанных компаний, специализированных поставщиков, поставщиков услуг, фирм в соответствующих отраслях, а также связанных с их деятельностью организаций в определенных областях, конкурирующих, но вместе с тем и ведущих совместную работу . Уже в этой трактовке выделяются ключевые признаки кластера: географическая локализация, общность вида деятельности, рыночная ориентация. Тем самым, классическая трактовка кластера обусловливает его понимание как группы географически соседствующих взаимосвязанных компаний и связанных с ними организаций определённой сферы, характеризующихся общностью деятельности и взаимодополняющих друг друга .

Специфика кластеров, их роль в национальной и региональной экономиках стимулировали высокий научный интерес к изучению сущности и содержания кластеров как за рубежом, так Узбекистане. Проанализировав работы H. Schmitz, G. M. P. Swann, M. Prevezer, D. Stout, W. Elsner, M. Steiner, E.M. Bergman, E.J. Feser, систематизированы зарубежные подходы к определению специфики кластеров. Основываясь на данной систематизации, обобщим существенные признаки кластеров, на которые опираются современные экономисты:

−принадлежность к одному сектору (отрасли), функционирование в тесной близости друг к другу;

−расположение в одной географической области;

– группа связанных компаний, взаимодействующих институтов, объединенная общностями и взаимодополнениями;

– наличие как вертикальной, так и горизонтальной функциональной связи между компаниями;

– присутствие в кластере коммерческих предприятий и некоммерческих организаций, для которых членство в группе является важным элементом индивидуальной конкурентоспособности, а также общественных, частных и полуобщественных исследовательских институтов и институтов развития.

Таким образом, видим, что в экономической науке в целом достигнуто единое понимание сущности и специфики кластеров. Авторские подходы к определению кластера дифференцированы в зависимости от акцента того или иного признака этого феномена.

К типам кластеров относят дискретные, процессные, инновационные (творческие), транспортно-логистические и туристские кластеры, которые «формируются на базе туристических активов в регионе и состоят из предприятий различных секторов, связанных с обслуживанием туристов, например, туристских операторов, гостиниц, сектора общественного питания, производителей сувенирной продукции, транспортных предприятий и других» . Заметим, что только туристские и транспортно-логистические кластеры по своей сущности ограничены одной сферой деятельности. Другие могут складываться в различных отраслях и видах деятельности. Тем самым, научная проблематика формирования и развития туристского кластера обладает прикладным характером, накладывающим отпечаток специфики туристской деятельности на общую теорию экономических кластеров.

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalarida raqamli xizmatlar, ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalari o‘zaro bog‘liq ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi xizmatlar, hududiy infratuzilma, yashil iqtisodiyot va raqamli boshqaruvning birgalikda rivojlanishini nazarda tutadi [1]. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi esa davlat xizmatlari, biznes jarayonlari va aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishni tizimli vazifa sifatida belgilaydi [2]. Bunday sharoitda xizmatlar sohasining samaradorligi faqat daromad va bandlik bilan emas, resurs tejamkorligi hamda ekologik natijadorlik bilan o‘lchanishi zarur.

Nazariy-metodologik yondashuv

Barqaror rivojlanish nazariyasi xizmatlar sohasida uch yo‘nalishning uyg‘unligini talab qiladi. Birinchi yo‘nalish iqtisodiy barqarorlik bo‘lib, xizmat ko‘rsatuvchi subyektning daromad olish, investitsiya jalb qilish va bozor talabiga moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Ikkinchi yo‘nalish ijtimoiy barqarorlikdir; u xizmatdan foydalanish qulayligi, mehnat sharoiti, iste’molchi huquqlari, hududlararo tenglik va inklyuzivlik bilan bog‘liq. Uchinchi yo‘nalish ekologik barqarorlik bo‘lib, energiya iste’moli, chiqindi, transport harakati, suv sarfi va yashil infratuzilma bilan o‘lchanadi. Xizmatlar sohasi ushbu uchlikni kundalik iqtisodiy amaliyotga olib kiruvchi eng sezgir tarmoqlardan biridir.

Yashil transformatsiyaning xizmatlar sohasidagi nazariy mazmuni ishlab chiqarish korxonalaridagidan farq qiladi. Sanoatda ekologik samaradorlik ko‘pincha xomashyo va emissiya hajmi orqali baholanadi. Xizmatlarda esa ekologik ta’sir ko‘proq bilvosita shaklda namoyon bo‘ladi: mijozlarning harakatlanish masofasi, yetkazib berish yo‘nalishlari, ofis va savdo obyektlarida energiya sarfi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi, qog‘oz hujjatlar aylanmasi, binolarning ekspluatatsiya xarajatlari va maishiy chiqindilar tarkibi ana shunday ko‘rsatkichlar qatoriga kiradi. Metodologik muammo shundaki, bunday ta’sirni oddiy moliyaviy hisobotlardan bevosita ko‘rish qiyin.

Raqamli texnologiyalar ushbu muammoni yumshatadi. Elektron to‘lov, masofaviy xizmat, onlayn navbat, aqlli hisoblagich, geolokatsiyaga asoslangan logistika, mijozlar oqimini tahlil qilish va elektron hujjat aylanishi xizmat ko‘rsatish jarayonidagi resurs sarfini aniqroq kuzatish imkonini beradi. Bunday axborot boshqaruv qarorlarini dalillarga tayangan holda qabul qilishga xizmat

qiladi. Xizmat sifati va ekologik samaradorlik bir-biriga zid emas; raqamli tartibga solish xizmat vaqtini qisqartiradi, ortiqcha harakatni kamaytiradi, korxona xarajatlarini pasaytiradi va iste'molchining qoniqish darajasini oshiradi.

Amaliy muammolar va mexanizm

Xizmatlar sohasida yashil transformatsiyani amaliyotga joriy etishda bir nechta metodologik cheklovlar mavjud. Avvalo, kichik servis subyektlarida resurs sarfini alohida hisoblash tizimi yetarli emas. Ko‘plab korxonalar energiya va suv xarajatlarini umumiy kommunal to‘lov sifatida qabul qiladi, mahsulot yoki xizmat birligiga to‘g‘ri keladigan ekologik xarajatni hisoblamaydi. Ikkinchi cheklov ekologik ko‘rsatkichlarni xizmat sifati indikatorlari bilan bog‘lashdagi tajribaning kamligidir. Uchinchisi, mahalliy darajada raqamli ma'lumotlar bazalarining tarqoqligi sababli tarmoq va hudud kesimida taqqoslash murakkablashadi.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm mazmuni shu cheklovlarni kamaytirishga yo‘naltirilishi kerak. Uning tarkibiga normativ tartibga solish, raqamli monitoring, ekologik audit, moliyaviy rag‘bat, kadrlar tayyorlash, iste'molchi ishtiroki va hududiy boshqaruv kiradi. Normativ tartibga solish xizmat ko‘rsatuvchi subyektlardan resurs tejamkorligini bosqichma-bosqich talab qilishi, raqamli monitoring esa ushbu talabning ijrosini o‘lchab borishi lozim. Moliyaviy rag‘bat energiya tejamkor uskunalar, elektron xizmat platformalari va chiqindini saralash tizimlariga investitsiya kiritgan subyektlar uchun real iqtisodiy manfaat yaratadi.

Barqaror xizmat modeli uchun yagona indikatorlar majmuasi talab etiladi. Mazkur majmua iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan birga ekologik va raqamli ko‘rsatkichlarni ham qamrab olishi kerak. Masalan, xizmatlar hajmi, rentabellik va bandlik bilan bir qatorda bitta mijozga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi, elektron xizmatlar ulushi, qog‘ozsiz hujjatlar ulushi, chiqindini qayta ishlash darajasi, masofaviy xizmatlar orqali qisqartirilgan transport harakati kabi mezonlar kiritilishi mumkin. Ana shunda xizmatlar sohasi samaradorligi ko‘p o‘lchovli, boshqarishga yaroqli va hududiy siyosat uchun aniq ma'lumot beruvchi tizimga aylanadi.

1-jadval. Xizmatlar sohasida yashil transformatsiyani baholashning metodologik tarkibi

Baholash yo‘nalishi	Asosiy mazmuni	Kutiladigan boshqaruv natijasi
Iqtisodiy samaradorlik	xizmatlar hajmi, rentabellik, bandlik, investitsiya faolligi	korxona va hudud darajasida iqtisodiy barqarorlikni aniqlash
Ekologik samaradorlik	energiya, suv, chiqindi, transport harakati va qog‘oz sarfi	resurs tejamkor xizmat modelini shakllantirish

Raqamli boshqaruv	elektron to‘lov, masofaviy xizmat, raqamli monitoring, ochiq ma’lumot	qaror qabul qilishda tezkor va dalilli axborotdan foydalanish
Ijtimoiy natijadorlik	xizmat qulayligi, inklyuzivlik, iste’molchi qoniqishi, yashil ko‘nikmalar	aholining turmush sifati va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish

Jadvalda ko‘rsatilgan tarkib xizmatlar sohasidagi yashil transformatsiyani yagona ekologik tadbir sifatida emas, balki iqtisodiy, raqamli va ijtimoiy boshqaruv elementlari uyg‘unlashgan tizim sifatida baholashga imkon beradi. Tarmoq korxonasi uchun bunday yondashuv xarajatlarni aniqlash va resurslarni tejash vositasi bo‘lsa, hududiy boshqaruv uchun xizmatlar rivojlanishining sifat jihatini o‘lchash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tahlil xizmatlar sohasida barqaror rivojlanish va yashil transformatsiya alohida-alohida jarayon emasligini ko‘rsatadi. Raqamli iqtisodiyot ularni birlashtiruvchi infratuzilmaviy asos vazifasini bajaradi. Xizmat ko‘rsatish subyektlari resurs sarfini raqamli kuzatish, iste’molchi ehtiyojini aniq tahlil qilish, ekologik xarajatlarni iqtisodiy rejalashtirishga kiritish orqali raqobatbardoshligini oshiradi. Hududiy darajada esa yashil-raqamli xizmatlar modeli aholining yashash muhiti, tadbirkorlik qulayligi va ekologik xavfsizlikni bir vaqtda kuchaytiradi.

Amaliy taklif sifatida xizmatlar sohasi uchun yashil-raqamli samaradorlik indikatorlari tizimini ishlab chiqish, kichik biznes subyektlari uchun sodda ekologik audit shakllarini joriy etish, energiya tejamkor texnologiyalarga beriladigan imtiyozlarni elektron monitoring bilan bog‘lash, mahalliy xizmatlar statistikasida raqamli va ekologik ko‘rsatkichlarni alohida aks ettirish maqsadga muvofiq. Bunday mexanizm xizmatlar sohasining iqtisodiy o‘sishini ekologik mas’uliyat va ijtimoiy qulaylik bilan uyg‘unlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qarori. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son Qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga

o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son Qarori. Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik axborotlar va tahliliy ma’lumotlar. Toshkent, 2024–2025.
7. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J., Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2014.
8. Porter M., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Journal of Economic Perspectives, 1995.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРОЕКТОВ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ИННОВАЦИЙ

Толибова Тахмина Эркиновна
Зармед иниверситет преподователь кафедры Экономики и финанс
***Email**:taxminatolibova57@gmail.com*
+998906000043
Давлатова Мадинабону Пулат кизи
Зармед иниверситет преподователь кафедры Экономики и финанс

Аннотация. В современных условиях ускоряющихся климатических изменений и цифровой трансформации мировой экономики особую актуальность приобретает поиск эффективных механизмов финансирования проектов зеленой экономики. Для Республики Узбекистан данное направление имеет стратегическое значение, поскольку устойчивое развитие страны напрямую связано с модернизацией энергетической системы, снижением экологической нагрузки и привлечением долгосрочных инвестиций. В статье исследуются институциональные основы финансирования зеленой экономики в Узбекистане с учетом внедрения цифровых инноваций, ESG-подходов, fintech-технологий, blockchain-систем и искусственного интеллекта. Особое внимание уделено анализу существующих проблем национальной финансовой системы и перспективам формирования цифровой инфраструктуры устойчивого финансирования. На основе проведенного анализа разработаны практические рекомендации по совершенствованию механизмов финансирования экологических проектов и повышению инвестиционной привлекательности страны.

Ключевые слова: зеленая экономика, ESG, цифровые инновации, устойчивое финансирование, зеленые облигации, fintech, blockchain, инвестиции, Узбекистан.

Annotatsiya. Zamonaviy sharoitda iqlim o‘zgarishlarining jadallashuvi hamda jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi fonida yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini izlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi uchun ushbu yo‘nalish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning barqaror rivojlanishi energetika tizimini modernizatsiya qilish, ekologik yuklamani kamaytirish va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning institutsional asoslari raqamli innovatsiyalar, ESG-yondashuvlar, fintech-texnologiyalar, blockchain tizimlari hamda sun’iy intellektni joriy etish nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Shuningdek, milliy moliya tizimidagi mavjud muammolar va barqaror moliyalashtirishning raqamli infratuzilmasini shakllantirish istiqbollari tahlil qilingan. O‘tkazilgan tahlil asosida ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ESG, raqamli innovatsiyalar, barqaror moliyalashtirish, yashil obligatsiyalar, fintech, blockchain, investitsiyalar, O‘zbekiston.

Abstract. In the context of accelerating climate change and the digital transformation of the global economy, the search for effective financing mechanisms for green economy projects has become increasingly relevant. For the Republic of Uzbekistan, this area is of strategic importance, as the country’s sustainable development is directly linked to the modernization of the energy system, the reduction of environmental pressure, and the attraction of long-term investments. This article examines the institutional foundations of financing the green economy in Uzbekistan, taking into account the implementation of digital innovations, ESG approaches, fintech technologies, blockchain systems, and artificial intelligence. Particular attention is paid to the analysis of existing problems within the national financial system and the prospects for developing a digital infrastructure for sustainable finance. Based on the conducted analysis, practical recommendations have been developed to improve the financing mechanisms of environmental projects and enhance the country’s investment attractiveness.

Keywords: green economy, ESG, digital innovations, sustainable finance, green bonds, fintech, blockchain, investments, Uzbekistan.

Введение. В мировой экономике вопросы устойчивого развития постепенно переходят из категории экологических инициатив в число ключевых факторов долгосрочной экономической политики. Усиление климатических рисков, рост энергопотребления, ухудшение экологической ситуации и необходимость рационального использования

природных ресурсов требуют пересмотра традиционных моделей экономического роста. На этом фоне концепция зеленой экономики становится неотъемлемой частью современной системы глобального развития.

Для Узбекистана проблема экологической устойчивости имеет особое значение. На протяжении последних десятилетий страна сталкивается с серьезными вызовами, связанными с водным дефицитом, высокой энергоемкостью промышленности и последствиями экологических кризисов в регионе Приаралья. Одновременно с этим республика проводит масштабные реформы, направленные на модернизацию экономики и развитие цифровых технологий.

В последние годы в Узбекистане активно реализуются программы по строительству солнечных и ветровых электростанций, развитию энергоэффективных технологий и цифровизации финансового сектора. Однако дальнейшее развитие зеленой экономики невозможно без создания устойчивой системы финансирования экологических проектов.

Традиционные банковские механизмы финансирования зачастую оказываются недостаточно эффективными для реализации долгосрочных экологических инициатив. Причинами этого являются высокий уровень инвестиционных рисков, длительные сроки окупаемости и ограниченность внутренних финансовых ресурсов. В результате возрастает необходимость внедрения новых институциональных механизмов, основанных на цифровых инновациях и современных финансовых инструментах.

Особое значение приобретают ESG-подходы, которые становятся важным индикатором инвестиционной надежности компаний и проектов. Международные финансовые организации все чаще рассматривают соответствие ESG-стандартам как обязательное условие предоставления финансирования.

В условиях цифровой трансформации финансовой системы новые возможности создают fintech-технологии, blockchain-платформы и искусственный интеллект. Их использование позволяет существенно повысить прозрачность инвестиционных процессов, снизить транзакционные издержки и улучшить качество управления финансовыми потоками.

Научная новизна исследования состоит в комплексном анализе механизмов финансирования зеленой экономики Узбекистана с учетом влияния цифровых инноваций и институциональных факторов. В отличие от существующих исследований, в работе особое внимание уделяется взаимосвязи ESG-подходов, цифровых технологий и инвестиционной устойчивости экологических проектов.

Методологической основой исследования выступают современные методы институционального и экономического анализа. Для достижения поставленных целей использовались методы сравнительного анализа,

статистической обработки данных, экономико-математического моделирования и системного подхода.

В процессе исследования были изучены:

- государственные программы Узбекистана в сфере зеленой экономики;
- международный опыт устойчивого финансирования;
- динамика развития цифровых финансовых технологий;
- практика выпуска зеленых облигаций.

Современное состояние зеленого финансирования в Узбекистане

Проведенный анализ показывает, что в последние годы Узбекистан значительно активизировал деятельность в сфере устойчивого развития. Государством принимаются меры по расширению использования возобновляемых источников энергии, модернизации промышленности и внедрению энергоэффективных технологий.

Одним из ключевых направлений является развитие солнечной энергетики. В различных регионах страны реализуются крупные проекты с привлечением международных инвесторов. Вместе с тем сохраняется проблема ограниченности внутренних источников финансирования, что усиливает зависимость от внешнего капитала.

Существующая институциональная система финансирования зеленых проектов пока не обладает достаточной гибкостью и уровнем цифровизации. Многие механизмы государственной поддержки носят фрагментарный характер, а рынок устойчивых финансовых инструментов находится на начальном этапе формирования.

Роль зеленых облигаций в финансировании экологических проектов

Одним из наиболее перспективных инструментов устойчивого финансирования являются зеленые облигации. Их использование позволяет аккумулировать долгосрочный капитал для реализации инфраструктурных и энергетических проектов.

Для Узбекистана выпуск зеленых облигаций может стать эффективным механизмом:

- модернизации энергетической системы;
- финансирования водосберегающих технологий;
- развития экологического транспорта;
- строительства объектов возобновляемой энергетики.

Важным преимуществом зеленых облигаций является возможность привлечения международных институциональных инвесторов, ориентированных на устойчивое развитие.

Fintech-технологии и цифровые платформы

Развитие цифровой экономики создает новые возможности для модернизации финансовой системы Узбекистана. Fintech-технологии позволяют значительно упростить инвестиционные процессы и повысить прозрачность финансовых операций.

В настоящее время в стране активно развиваются:

- мобильные банковские сервисы;
- цифровые платежные системы;
- онлайн-платформы финансирования;
- электронные системы идентификации клиентов.

Использование цифровых платформ в системе зеленого финансирования позволяет сократить транзакционные издержки и повысить доступность инвестиций для малого бизнеса и стартапов.

Blockchain и искусственный интеллект

Особое значение для развития устойчивого финансирования имеют blockchain-технологии и искусственный интеллект.

Blockchain обеспечивает:

- прозрачность финансовых потоков;
- контроль целевого использования средств;
- снижение коррупционных рисков;
- автоматизацию контрактов.

Искусственный интеллект применяется для:

- анализа инвестиционных рисков;
- прогнозирования эффективности проектов;
- автоматизированного ESG-скоринга;
- обработки больших массивов данных.

Для Узбекистана внедрение данных технологий способно стать важным фактором повышения эффективности государственной инвестиционной политики.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что развитие системы зеленого финансирования в Узбекистане требует комплексного институционального подхода. Несмотря на наличие государственных программ устойчивого развития, национальная финансовая система пока недостаточно адаптирована к современным требованиям ESG и цифровой экономики.

Одной из ключевых проблем остается ограниченность внутреннего рынка капитала. Большинство крупных экологических проектов реализуется при участии международных финансовых организаций. Это повышает зависимость экономики от внешних источников финансирования.

Заключения

Переход Узбекистана к модели устойчивого развития невозможен без формирования эффективной системы финансирования проектов зеленой экономики. Проведенное исследование показывает, что ключевую роль в данном процессе играют цифровые инновации, ESG-подходы и современные финансовые инструменты.

Установлено, что развитие зеленых облигаций, fintech-технологий, blockchain-систем и искусственного интеллекта способствует повышению

прозрачности финансовой системы, снижению инвестиционных рисков и привлечению международного капитала.

Для обеспечения устойчивого развития Узбекистану необходимо:

- ускорить цифровую трансформацию финансового сектора;
- внедрить ESG-регулирование;
- развивать рынок устойчивых финансовых инструментов;
- стимулировать инновационные инвестиционные платформы;
- расширять международное сотрудничество в сфере зеленой экономики.

В долгосрочной перспективе совершенствование институциональных механизмов финансирования позволит повысить инвестиционную привлекательность страны, ускорить экологическую модернизацию экономики и обеспечить устойчивый экономический рост.

Список литературы (APA)

1. Asian Development Bank. (2023). Green Economy Transition in Uzbekistan.
2. Climate Bonds Initiative. (2024). Green Bond Market Summary Report.
3. OECD. (2023). Sustainable Finance and Green Investment Policies.
4. United Nations Development Programme. (2023). Financing Green Development in Central Asia.
5. World Bank. (2024). Digital Finance and Sustainable Development.
6. IMF. (2023). Climate Finance and Financial Stability.
7. Центральный банк Республики Узбекистан. (2024). Отчет о развитии финансового сектора.
8. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. (2024). Стратегия развития зеленой экономики.
9. UNEP Finance Initiative. (2023). ESG Integration and Sustainable Investment.
10. Freeman, R. E. (1984). Strategic Management: A Stakeholder Approach. Boston: Pitman.

HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK BARQARORLIK VA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI

Shermatov Axror Abdixakimovich
-Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Real iqtisodiyot kafedrasi assistenti
E-mail: axror_shermatov@mail.ru

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyot tamoyillarining hududiy rivojlanishga ta’siri, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan samarali

foydalanish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va hududlarning investitsion jozibadorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik barqarorlikni ta’minlash va yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish hududlarning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada hududiy rivojlanishni takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
KALIT SO‘ZLAR: ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, tabiiy resurslar, ekologik innovatsiyalar

ABSTRACT: This article scientifically analyzes the role of environmental sustainability and the green economy in the socio-economic development of regions. The study examines the impact of green economy principles on regional development, ensuring environmental safety, efficient use of natural resources, and the development of renewable energy sources. In addition, the economic efficiency of implementing green technologies and their influence on the investment attractiveness of regions were analyzed. The research findings indicate that ensuring environmental sustainability and widely implementing green economy principles are important factors for achieving stable economic growth in regions. The article also develops practical recommendations for improving regional development mechanisms.
KEYWORDS: environmental sustainability, green economy, regional development, sustainable development, green technologies, renewable energy, environmental safety, energy efficiency, natural resources, ecological innovations

АННОТАЦИЯ: В данной статье научно проанализирована роль экологической устойчивости и зелёной экономики в социально-экономическом развитии регионов. В ходе исследования рассмотрено влияние принципов зелёной экономики на региональное развитие, обеспечение экологической безопасности, эффективное использование природных ресурсов и развитие возобновляемых источников энергии. Кроме того, проанализированы экономическая эффективность внедрения зелёных технологий и их влияние на инвестиционную привлекательность регионов. Результаты исследования показали, что обеспечение экологической устойчивости и широкое внедрение принципов зелёной экономики являются важными факторами обеспечения стабильного экономического роста регионов. В статье также разработаны практические рекомендации по совершенствованию механизмов регионального развития.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: экологическая устойчивость, зелёная экономика, региональное развитие, устойчивое развитие, зелёные технологии, возобновляемая энергия, экологическая безопасность, энергоэффективность, природные ресурсы, экологические инновации

KIRISH

Hozirgi davrda hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasi dunyo mamlakatlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish va ekologik muammolarning kuchayishi hududlar rivojlanishida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi va resurslarning kamayib borishi iqtisodiy rivojlanishning ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashgan modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu sababli so‘nggi yillarda “yashil iqtisodiyot” va ekologik barqarorlik tamoyillari hududlarni rivojlantirish siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu model energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Natijada hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratiladi, investitsion jozibadorlik oshadi hamda iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati kengayadi. Shu jihatdan ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot hududlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham hududlarni kompleks rivojlantirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PF-436-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[8] Farmoni ushbu yo‘nalishdagi muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur farmonda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, hududlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va yashil investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, hududlarda ekologik muammolarni kamaytirish va “yashil” texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu sababli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotning hududlar rivojlanishiga ta’siri, ekologik barqarorlikni ta’minlashning iqtisodiy ahamiyati hamda ushbu yo‘nalishda mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning o‘rni masalalari bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar

[8] https://lex.uz/docs/6303230 sayti

tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Zamonaviy iqtisodiy qarashlarga ko‘ra, yashil iqtisodiyot modeli iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Shu sababli ekologik barqarorlikni ta’minlash masalasi hududlarni rivojlantirish strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Mazkur mavzu yuzasidan Joseph Stiglitz o‘z tadqiqotlarida iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, yashil iqtisodiyot modelining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini asoslab bergan. Nicholas Stern esa iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga salbiy ta’siri va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning iqtisodiy ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritgan. Uning tadqiqotlarida yashil investitsiyalar va ekologik innovatsiyalar barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida baholangan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.V. Vahobov hamda Sh.Sh. Shodmonov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy ahamiyati, hududlarda resurslardan samarali foydalanish va ekologik muammolarni kamaytirish masalalari tahlil qilingan. Ushbu ilmiy ishlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish va energiya samaradorligini oshirishning hududiy rivojlanishga ta’siri yoritib berilgan.

Bundan tashqari, United Nations hamda The World Bank tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning global rivojlanishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Mazkur hisobotlarda yashil iqtisodiyotga o‘tish yangi ish o‘rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb etish va hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar va nazariy qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning o‘rni tobora ortib bormoqda. Shu sababli ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning o‘rnini o‘rganish maqsadida statistik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, hududlarda energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik ko‘rsatkichlarga oid statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan bir qatorda ekologik muammolarni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli ko‘plab davlatlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududiy rivojlanish strategiyalariga joriy etish jarayonlari jadallashmoqda. Yashil iqtisodiyot modeli hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda aholining turmush sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Hududlarni rivojlantirish jarayonida ekologik barqarorlikni ta’minlash ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Ayniqsa, energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish ekologik muammolarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, yashil texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududlarda keng joriy etish investitsion jozibadorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Ekologik xavfsiz va zamonaviy infratuzilmaga ega hududlar investorlar uchun yanada qulay muhit yaratadi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport va “yashil” qurilish sohalariga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hududlarning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirmoqda. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratilishi va aholi bandligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, hududlarda ekologik muammolarni kamaytirish va tabiiy resurslarni asrash aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, suv tanqisligi va chiqindilar muammosi ayrim hududlarning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ekologik xavfsizlikni ta’minlash, yashil hududlarni kengaytirish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan hududlarda ham yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Bu esa hududiy iqtisodiy muvozanatni ta’minlash va aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yashil texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ekologik muammolarni kamaytirish hamda kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini yaratish mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini

oshirish va ekologik muammolarni kamaytirish hududlarni barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududlarda keng joriy etish nafaqat ekologik muammolarni kamaytirishga, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish yangi ish o‘rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb qilish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda ekologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va yashil texnologiyalarning sust joriy etilishi mavjud muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Shuningdek, ekologik innovatsiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, yashil hududlarni kengaytirish hamda ekologik transport infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta’lim va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish orqali ham ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin. Umuman olganda, ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududiy rivojlanish strategiyalariga keng joriy etish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda aholining turmush sifatini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PF-436-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
[3] Vahobov A.V. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
[4] Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
[5] Stiglitz J. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2018.
[6] Stern N. The Economics of Climate Change. – Cambridge University Press, 2017.

[7] United Nations. Sustainable Development Goals Report 2023. – New York, 2023.
[8] World Bank. Green Growth and Sustainable Development Report. – Washington DC, 2022.
[9] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy ma’lumotlari – stat.uz
[10] O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy sayti – eco.gov.uz

ЦЕНА И КОЛИЧЕСТВО РЫНОЧНОГО РАВНОВЕСИЯ ДЛЯ СЕТИ ИЛИ УСЛУГИ

Абдуллаева Зульфия Иззатовна
доц. кафедры «Реальная экономика»
Самаркандский институт экономики и сервиса
Тел.+998933516537
E-mail: abdullaevazulfiya70@gmail.com.
Адилжонова Мерьемхон Азизовна
Магистр группы МИ-225
Самаркандский институт экономики и сервиса
Телефон: +998972833202
E-mail: azizzade777@icloud.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности формирования цены и количества рыночного равновесия в сфере сетевых услуг и обслуживания. Исследуются основные экономические механизмы взаимодействия спроса и предложения, влияющие на установление равновесной цены на рынке услуг. Особое внимание уделяется факторам, влияющим на изменение спроса и предложения в современных условиях цифровизации экономики.
Ключевые слова: рыночное равновесие, цена, спрос, предложение, услуги, сеть, рынок, конкуренция, экономика.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarmoq xizmatlari va servis sohasida bozor muvozanati narxi hamda miqdorining shakllanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Xizmatlar bozorida muvozanat narxining shakllanishiga ta’sir etuvchi talab va taklif o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy mexanizmlar tadqiq etiladi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sharoitida talab va taklifning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarga alohida e’tibor qaratiladi.
Kalit so‘zlar: bozor muvozanati, narx, talab, taklif, xizmatlar bozori.

Abstract. This article examines the features of the formation of price and quantity of market equilibrium in the field of network services and maintenance. The main economic mechanisms of interaction between supply and demand influencing the establishment of equilibrium prices in the service market are

analyzed. Special attention is paid to the factors affecting changes in supply and demand in the modern conditions of economic digitalization.
Keywords: market equilibrium, price, demand, supply, services, competition.

Введение

В современных условиях рыночной экономики важное значение приобретает проблема формирования цены и количества рыночного равновесия. Особенно актуальным данный вопрос является для сферы услуг и сетевого бизнеса, где спрос и предложение постоянно изменяются под влиянием экономических, социальных и технологических факторов.

1. Теоретические основы рыночного равновесия. Рыночное равновесие является одной из ключевых категорий экономической теории. Оно формируется в результате взаимодействия спроса и предложения на рынке. Спрос отражает потребность потребителей в товарах или услугах, а предложение показывает готовность производителей предоставлять продукцию по определенной цене.

2. Факторы, влияющие на равновесную цену и количество. На формирование рыночного равновесия влияет множество факторов. Одним из основных факторов является уровень доходов населения. При увеличении доходов возрастает спрос на услуги, что способствует росту равновесной цены и объема услуг.

3. Практические аспекты рыночного равновесия в сфере услуг. На практике предприятия сферы услуг сталкиваются с различными проблемами формирования цены. Для обеспечения устойчивого рыночного равновесия предприятия должны проводить анализ рынка, изучать потребности клиентов и применять современные методы управления.

4. Пути совершенствования механизма рыночного равновесия. Для повышения эффективности функционирования рынка услуг необходимо совершенствовать систему ценообразования и управления спросом. Большое значение имеет внедрение цифровых технологий и автоматизация процессов обслуживания клиентов.

Заключение

Таким образом, рыночное равновесие является важным элементом эффективного функционирования экономики и сферы услуг. Формирование равновесной цены и количества зависит от взаимодействия спроса и предложения, а также от множества внутренних и внешних факторов.

Научно-теоретические и практические предложения и рекомендации:

– совершенствовать систему ценообразования в сфере услуг;

– развивать цифровые технологии и онлайн-сервисы;

– усиливать конкурентную среду на рынке услуг;

– повышать качество обслуживания потребителей;

– расширять маркетинговые исследования для изучения спроса населения.

Список использованной литературы

1. Mahmudov M.F. Industrial tashkilotlar. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2021. - 202 b.

2. Mahmudov M.F., Madraximova G.R. Ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2022. - 234 b.

3. Shadiyeva G. Industrial tashkilotlar. Darslik. SamISI, Samarqand: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2022. - 288 bet.

4. Шавқиев Э. Индустриал иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. Самарқанд: “STEP-SEL” МЧЖ. Нашриёти, 2024. - 450 бет.

II SHO‘BA. YASHIL TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA HAL ETILISHI LOZIM BO‘LGAN DOLZARB MASALALAR VA ULARNING YECHIMLARI

Rais: Sultonov Shodiyor Abduxalilovich – SamISI i.f.n., professor
Kotib: Sattarova Zuhra Ilhamovna – SamISI katta o‘qituvchisi

ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ТЕРРИТОРИЙ

Автор: Жунусбекова Назым Маратовна
Должность: Заместитель директора Института управления проектами им. Е.Туркебаева, ЕМБА, профессор кафедры Менеджмент и математическая экономика.
Ученая степень: к.х.н., ассоциированный профессор
Место работы, адрес: Институт управления проектами им. Е.Туркебаева, Satbayev University, ул. Сатпаева 22А, Алматы, Казахстан
Телефон: *+7(700)3983119*
E-mail: n.zhunusbekova@satbayev.university

Annotatsiya

Maqolada ekologik barqarorlikning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri zamonaviy ekologik muammolar sharoitida tahlil qilingan. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining mazmuni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi turmush sifatini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Hududlarni barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari hamda ekologik texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni alohida ta’kidlangan. Bizning oliy ta’lim muassasamiz misolida talabalar ekologik tafakkurini rivojlantirish, raqamli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash va ekologik mas’uliyatni oshirishga qaratilgan ilmiy hamda ta’limiy tashabbuslar yoritilgan. Maqolada Orolbo‘yi hududini tiklash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ekologik loyihalar ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:
ekologik barqarorlik, barqaror rivojlanish, “yashil iqtisodiyot”, hududiy iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik, ekologik ta’lim, innovatsiyalar, Orolbo‘yi.

Аннотация

В статье рассматривается влияние экологической устойчивости на социально-экономическое развитие территорий в условиях современных экологических вызовов. Раскрыта сущность концепции «зеленой

экономики», ее значение для рационального использования природных ресурсов, повышения качества жизни населения и обеспечения экологической безопасности регионов. Проанализированы основные направления устойчивого развития территорий, а также современные проблемы, связанные с загрязнением окружающей среды и недостаточным внедрением экологических технологий.

Особое внимание уделено роли высших учебных заведений в формировании экологической культуры молодежи и подготовке специалистов, ориентированных на принципы устойчивого развития. На примере деятельности Satbayev University показано значение образовательных и научных инициатив, направленных на развитие экологического мышления студентов, внедрение цифровых образовательных технологий и поддержку экологически ответственного подхода в системе образования. В статье также рассматриваются экологические проекты по спасению Приаралья как пример практической реализации принципов экологической устойчивости и международного сотрудничества.

Ключевые слова:

экологическая устойчивость, устойчивое развитие, «зеленая экономика», региональная экономика, экологическая безопасность, экологическое образование, инновации, Приаралье.

Abstract

The article examines the impact of environmental sustainability on the socio-economic development of territories under modern environmental challenges. The essence of the green economy concept, its importance for rational use of natural resources, improvement of living standards, and environmental safety of regions are revealed. The main directions of sustainable territorial development and current environmental problems related to pollution and insufficient implementation of green technologies are analyzed.

Special attention is paid to the role of higher educational institutions in developing environmental awareness among young people and training specialists oriented toward sustainable development principles. Using the example of our university, the article highlights educational and scientific initiatives aimed at developing students' ecological thinking, implementing digital educational technologies, and supporting environmentally responsible approaches in education. The article also discusses environmental projects aimed at saving the Aral Sea region as an example of practical implementation of environmental sustainability principles.

Keywords:

environmental sustainability, sustainable development, green economy, regional economy, environmental safety, environmental education, innovation, Aral Sea region.

Введение

В XXI веке экологические проблемы стали одной из важнейших угроз устойчивому развитию общества. Рост промышленного производства, урбанизация, загрязнение окружающей среды, изменение климата и истощение природных ресурсов оказывают серьезное влияние на экономику и качество жизни населения. В связи с этим особую актуальность приобретает экологическая устойчивость как основа эффективного социально-экономического развития территорий.

Современная концепция устойчивого развития предполагает гармоничное сочетание экономических, социальных и экологических интересов общества. Важнейшим инструментом достижения данной цели является «зеленая экономика», ориентированная на рациональное использование природных ресурсов, внедрение экологически безопасных технологий и снижение негативного воздействия на окружающую среду.

В современных условиях особая роль принадлежит образовательным учреждениям, формирующим экологическую культуру и профессиональные компетенции будущих специалистов. Высшие учебные заведения становятся важными центрами научных исследований и экологического просвещения молодежи.

Теоретические основы экологической устойчивости

Экологическая устойчивость представляет собой способность общества и экономики сохранять баланс между хозяйственной деятельностью и природной средой. Основной целью устойчивого развития является удовлетворение потребностей современного поколения без ущерба для будущих поколений.

Концепция «зеленой экономики» основывается на следующих принципах: рациональное использование природных ресурсов; внедрение ресурсосберегающих технологий; снижение уровня загрязнения окружающей среды; развитие возобновляемой энергетики; повышение экологической ответственности бизнеса и общества.

Экологическая устойчивость напрямую связана с уровнем социального благополучия населения. Благоприятная экологическая ситуация способствует укреплению здоровья людей, повышению продолжительности жизни и снижению социальных расходов государства.

Влияние экологической устойчивости на экономическое развитие территорий

Экологическая устойчивость играет важную роль в развитии региональной экономики. Современные территории, ориентированные на принципы «зеленой экономики», становятся более привлекательными для инвестиций и инновационной деятельности.

Внедрение экологически чистых технологий способствует: снижению производственных затрат; экономии энергетических ресурсов; повышению

конкурентоспособности предприятий; созданию новых рабочих мест; развитию инновационной экономики.

Большое значение имеет использование возобновляемых источников энергии, таких как солнечная и ветровая энергетика. Это позволяет снижать зависимость от традиционных источников топлива и минимизировать негативное воздействие на окружающую среду.

Кроме того, экологически устойчивые территории имеют высокий потенциал для развития туризма, сельского хозяйства и малого бизнеса. Чистая окружающая среда становится важным фактором инвестиционной привлекательности регионов.

Социальное значение экологической устойчивости

Экологическая устойчивость оказывает непосредственное влияние на качество жизни населения. Загрязнение воздуха, воды и почвы приводит к ухудшению здоровья людей и росту социальных проблем.

B blok – investitsiyalarni rag‘batlantirishning o‘zi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• hududiy (sanoat, iqtisodiy sektor) investitsiyalarni boshqarish tizimi doirasida uzoq muddatli va samarali investitsiyalarni tashkil etish;

• barcha investitsiya subyektlarining investitsiya resurslarini tashkil etish va taqsimlash jarayonlarida muvozanatli va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ishtiroki tizimida investitsiyalarni jalb qilishning an’anaviy usullari va vositalaridan foydalanish;

• investitsiya sohasida davlat rolini kuchaytirish. Shu bilan birga, davlat ishtirokining kengayish darajasi, regulyatorning xususiy investitsiyalarni siqib chiqarish o‘rniga rag‘batlantirishga e’tibor qaratishini hisobga olgan holda, obyektiv cheklovlarga ega. Investitsiya jarayonining intensivligi ishtirok etishning dinamizmi va shakllariga bog‘liq: shuning uchun investitsiya sektorini davlat tomonidan boshqarishni, xususan, rag‘batlantirish nuqtai nazaridan, intensivlashtirish va optimallashtirish talab etiladi.

IMning uchinchi takomillashtirishini ishlab chiqishda biz hududiy investitsiyalarni boshqarish tizimidagi IMning o‘rni va rolini aniqlaymiz, uni ma’lum bir iqtisodiy sektor – bizning holatimizda, qishloq xo‘jaligi-oziq-ovqat misolida investitsiya jarayonlarini boshqarishning kontseptual modeli yordamida tavsiflash mumkin. Ushbu model quyidagi ketma-ket amalga oshirilgan bosqichlarni nazarda tutadi, ularni jarayonlar va tadbirlar bo‘yicha batafsil bayon etish mumkin:

1) hududiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish;

2) hududiy investitsiyalarni rivojlantirish kontseptsiyasini tayyorlash;

3) qishloq xo‘jaligi sektorini rivojlantirish uchun investitsiya strategiyasini shakllantirish;

4) hududiy agrosanoat kompleksida investitsiya siyosatini amalga oshirish;

5) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun investitsiya mexanizmini ishlab chiqish;

6) qishloq xo‘jaligi sektorida investitsiya mexanizmini amalga oshirish;

7) investitsiya strategiyasi (hudud va sanoat) parametrlarini monitoring qilish va takomillashtirish, amalga oshirilgan investitsiya loyihalarining samaradorligi mezonlarini baholash va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari (IM ishtirokchilari) tomonidan ishtirok parametrlarini bajarish jarayoni.

Investitsiya muhitini yaxshilash mexanizmi investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi shart-sharoitlarni yaratish uchun mo‘ljallangan. Hududda investitsiya faolligini oshirish, kapitalni yangilash jarayonlarini faollashtirishning faktorial afzalliklarini aniqlashning nazorat qilinadigan usuli hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, investitsiya mexanizmi MDIM tizimini boshqarishning uchinchi darajasini (subfunksional blok) belgilaydi. U texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga, investitsiyalar uchun moliyaviy resurslarni safarbar qilish jarayoniga,

tashkiliy va uslubiy qo‘llab-quvvatlashga va investitsiya mexanizmining moliyaviy komponentini monitoring qilishga asoslangan.

O‘tkazilgan tahlil va chiqarilgan xulosalar tadqiqot obyektining mohiyatini quyidagicha belgilashga imkon beradi. Mezodarajadagi rivojlanish uchun investitsiya mexanizmi sanoatda tarkibiy investitsiya faoliyatini ta’minlashga tashkiliy va iqtisodiy kontseptual yondashuvni ifodalaydi, bu tizim ichidagi (xususan, sanoatga xos) muvozanatga erishishga va hududiy investitsiya muhitining tarkibiy qismlarini boshqarishga asoslangan hududiy rivojlanish iqtisodiy mexanizmining samarali ishlashiga qaratilgan. Hududiy (sanoat) rivojlanish investitsiya mexanizmining kontseptual asosini hududda investitsiyalarni boshqarish usullari va texnikalari tizimi, shuningdek, ularni tanlashda zarur bo‘lgan obyektiv o‘zaro bog‘liqliklar, hududiy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini muvozanatli rivojlantirish orqali YaHMning tarkibiy o‘sishini ta’minlashga qaratilgan dasturiy jihatdan ishlab chiqilgan, hududning investitsiya salohiyatidan to‘liq foydalanishni va hududiy rivojlanish risklarini dasturlashtiriladigan darajada tekislashni hisobga olgan holda, investitsiya faoliyatini oshirish sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining maqsadlari samaradorligi va muvozanatiga erishish orqali tavsiflash mumkin.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TO‘SIQLARI VA EKOLOGIK BOSHQARUV YECHIMLARI

Shonazarov Farxod Shodiyor o‘g‘li-
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, mustaqil izlanuvchi
https://orcid.org/0009-0001-3804-9366
farkhodshanazarov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruv samaradorligini cheklayotgan tashkiliy omillar va inson kapitali bilan bog'liq to'siqlar kompleks tahlil qilinadi. Raqamli strategiyaning KPI bilan bog'liq emasligi, IT-silo effekti, raqamli qarorlar madaniyatining shakllanmaganligi va ma'lumotlar sifatining pastligi asosiy tashkiliy to'siqlar sifatida aniqlandi. Yashil boshqaruv tizimlariga o'tish uchun inson kapitalini rivojlantirish va tashkiliy arxitekturani qayta loyihalash tavsiyalari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: Tashkiliy inersiya, inson kapitali, IT-silo, raqamli madaniyat, yashil boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati

Аннотация : В статье проводится комплексный анализ организационных факторов и барьеров, связанных с человеческим капиталом, ограничивающих эффективность цифрового управления в

акционерных обществах. Несвязанность цифровой стратегии с KPI, эффект IT-силоса, несформированность культуры цифровых решений и низкое качество данных выявлены как основные организационные барьеры. Разрабатываются рекомендации по развитию человеческого капитала и перепроектированию организационной архитектуры для перехода к системам зелёного управления.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: Организационная инерция, человеческий капитал, IT-силос, цифровая культура, зелёное управление, акционерное общество

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of organisational factors and human capital-related barriers constraining digital governance effectiveness in joint-stock companies. The disconnect of digital strategy from KPIs, IT silo effect, underdeveloped culture of data-driven decisions, and low data quality have been identified as key organisational barriers. Recommendations for human capital development and organisational architecture redesign to transition to green governance systems are developed.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: Organisational inertia, human capital, IT silo, digital culture, green governance, joint-stock company

Ko'p omilli regressiya tahlili inson kapitalini (β=0,31) raqamli boshqaruv samaradorligini belgilovchi ikkinchi muhim omil sifatida aniqladi. Shu bilan birga, bank darajasidagi empirik tahlil ham muhim tafovutni ko'rsatdi: raqamli xizmatlar ulushi bo'yicha BRB bank (78%) va Turonbank (65%) Asakabank (52%) va Ipoteka bank (48%) dan ustun. Bu tafovut texnik imkoniyatlar o'xshash bo'lganida ham namoyon bo'ladi — demak, farq tashkiliy va inson kapitali omillarida. D. Teece (2007) ning dinamik qobiliyatlar konsepsiyasiga ko'ra, tashkiliy inersiya raqamli transformatsiyaning strategik resursga aylanish jarayonini cheklovchi asosiy omil hisoblanadi. Barqaror yashil boshqaruv tizimlariga o'tish uchun tashkiliy va inson kapitali to'siqlarini ilmiy asosda bartaraf etish zarur.

Tahlil natijalari. Birinchi tashkiliy to'siq — raqamli strategiyaning KPI bilan bog'liq emasligi. Ko'pgina aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli loyihalar rasmiy hujjatlarda mavjud bo'lsa-da, ular KPI tizimiga integratsiyalanmagan. Natijada loyihalar parchalangan, sinergiya past va ROI noaniq bo'lib qolmoqda. Teece (2007) ning strategik resurs integratsiyasi konsepsiyasi bo'yicha bu holat raqamli transformatsiyaning tashkiliy qiymat zanjiriga to'liq kirib bora olmasligini anglatadi.

Ikkinchi to'siq — IT-silo effekti. Raqamli loyihalar ko'p hollarda alohida IT-bo'lim doirasida amalga oshirilib, boshqaruvning strategik konturiga chiqarilmaydi. Natijada raqamli yechimlar qaror qabul qilishda yordamchi texnik vosita sifatida qolib, qiymat yaratish zanjiriga to'liq integratsiyalashmaydi. Uchinchi to'siq —

ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatining shakllanmaganligi. Ko'pgina aksiyadorlik jamiyatlarida rahbarlar data-driven qarorlarni qabul qilishga hali tayyor emas — bu North (1990) ta'kidlagan norasmiy me'yorlar va boshqaruv uslubidagi institutsional inertiya namunasidir.

To'rtinchi to'siq — ma'lumotlar sifati va integratsiyasi muammosi. Turli tizimlardan olinadigan ma'lumotlar standartlashmagan, to'liq emas yoki ziddiyatli bo'lib, bu analitik boshqaruvning ishonchliligini pasaytiradi. Jensen va Meckling (1976) ning agentlik nazariyasiga ko'ra, past sifatli ma'lumotlar prinsipal-agent asimmetriyasini yanada kuchaytiradi. Beshinchi to'siq — raqamli kompetensiyali kadrlarning yetishmasligi. IT sohasida malakali mutaxassislar bozori hali rivojlangan emas, raqamli kompetensiyalar tizimli tarzda emas, balki alohida tashabbuslar doirasida rivojlantirilmoqda.

Muallif xulosasi. Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruvni cheklayotgan tashkiliy va inson kapitali omillari o'zaro chambarchas bog'liq tizimni tashkil etadi. Texnologiyani sotib olish yoki infratuzilmani kengaytirish yetarli emas — uni boshqaradigan madaniyat, kompetensiyalar va tashkiliy arxitektura bo'lmasa, raqamli transformatsiya «texnologik qobiq» bo'lib qoladi. Barqaror yashil transformatsiyaga erishish uchun aksiyadorlik jamiyatlari raqamli kompetensiyali kadrlar tarkibini shakllantirishi, IT-silo effektini bartaraf etishi va data-driven qarorlar madaniyatini boshqaruv madaniyatining asosiga aylantirishи zarur.

Amaliy tavsiyalar. Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv kengashi va kuzatuv kengashida raqamli transformatsiya bo'yicha vakolatli a'zo (Chief Digital Officer) lavozimini kiritish va uning vazifalari, mas'uliyat doirasini korporativ ustav bilan belgilash; ikkinchidan, raqamli strategiyani KPI tizimiga va moliyaviy natijalarga to'g'ridan-to'g'ri bog'lash — har bir raqamli loyiha uchun o'lchov mezonlari, kutilayotgan ROI va monitoring muddatlari belgilanishi; uchinchidan, barcha bo'limlar rahbarlarini raqamli savodxonlik va data-driven boshqaruv bo'yicha majburiy qayta tayyorlash dasturini joriy etish; to'rtinchidan, ma'lumotlar sifatini boshqarish (Data Quality Management) bo'yicha korporativ standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; beshinchidan, yashil boshqaruv maqsadlari doirasida raqamli yechimlar orqali ekologik monitoring — energiya iste'moli, chiqindi kamaytirish, resurs samaradorligi — tizimlarini tashkiliy arxitekturaga integratsiyalash.

Adabiyotlar:

1. Teece D.J. Explicating Dynamic Capabilities // Strategic Management Journal. 2007. Vol. 28, No 13. P. 1319–1350.
2. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, 1990. 152 p.
3. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm // Journal of Financial Economics. 1976. Vol. 3, No 4. P. 305–360.

4. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. New York: Free Press, 1985. 450 p.
5. Kane G.C. et al. Strategy, not Technology, Drives Digital Transformation // MIT Sloan Management Review. 2015. 28 p.
6. Brynjolfsson E., McElheran K. The Rapid Adoption of Data-Driven Decision-Making // AER. 2016. Vol. 106, No 5. P. 133–139.
7. Davenport T.H., Harris J.G. Competing on Analytics. Boston: Harvard Business School Press, 2007. 241 p.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son farmoni. 2020 yil 5 oktyabr.

TARMOQ TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING AXBOROT TIZIMIDAGI O‘RNI

Jomonqulova Fazilat Esirgapovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Axborot texnalogiyalari” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tarmoq texnologiyalarining axborot tizimlaridagi o‘rni, ularning ma’lumot almashish, boshqaruv va xavfsizlikdagi ahamiyati tahlil qilingan. Axborot tizimlarini samarali ishlashi uchun lokal va global tarmoqlarning o‘zaro bog‘liqligi, ma’lumot uzatish tezligi, bulutli va IoT texnologiyalarining integratsiyasi yoritilgan. Shuningdek, tarmoq texnologiyalarining korxona faoliyatidagi axborot jarayonlarini tezlashtirishdagi o‘rni va ularni himoyalash mexanizmlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Tarmoq texnologiyalari, axborot tizimi, LAN, WAN, IoT, 5G, bulutli texnologiyalar, xavfsizlik protokollari.

Аннотация: В данной статье анализируется роль современных сетевых технологий в информационных системах, их значение в обмене информацией, управлении и безопасности. Освещаются взаимосвязь локальных и глобальных сетей, скорость передачи данных, интеграция облачных и IoT технологий для эффективного функционирования информационных систем. Также проанализирована роль сетевых технологий в ускорении информационных процессов в деятельности предприятия и механизмы их защиты.

Ключевые слова: сетевые технологии, информационная система, LAN, WAN, IoT, 5G, облачные технологии, протоколы безопасности.

Annotation: This article analyzes the role of modern network technologies in Information Systems, their importance in information exchange, management and security. For the effective operation of Information Systems, the interconnection of local and global networks, the speed of data transmission, the integration of cloud and IoT technologies are covered. Also, the role of network

technologies in accelerating information processes in the activities of the enterprise and the mechanisms of their protection are analyzed.

Key words: network technologies, information system, LAN, WAN, IoT, 5G, cloud technologies, security protocols.

Kirish:

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida barcha korxonalar va tashkilotlar o‘z faoliyatini raqamlashtirish yo‘liga o‘tmoqda. Zamonaviy axborot tizimlarining samarali ishlashi esa, bevosita tarmoq texnologiyalariga bog‘liq. Chunki aynan tarmoq texnologiyalari ma’lumotlarni bir nuqtadan ikkinchisiga uzatadi, foydalanuvchilarni bog‘laydi va tizimlarning o‘zaro integratsiyasini ta’minlaydi. Tarmoq texnologiyalari yordamida korxonalar o‘z bo‘limlari o‘rtasida real vaqt rejimida axborot almashadi, ishlab chiqarish, moliya va menejment jarayonlarini avtomatlashtiradi. Hozirgi zamonda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) inson hayoti va jamiyat rivojida muhim rol o‘ynaydi. Tarmoq texnologiyalari, yoki tarmoq kommunikatsiya texnologiyalari, ma'lumotlarni uzatish va ulanish uchun ishlatiladigan asosiy vositalar bo‘lib, ular internet, lokal tarmoqlar (LAN), keng tarmoqlar (WAN) va boshqa kommunikatsiya muhitlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar zamonaviy dunyoning asosiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib, ularning yordamida ma'lumotlar tez, xavfsiz va samarali tarzda uzatiladi, bu esa shaxsiy, tijorat va davlat sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Tarmoq texnologiyalarining rivojlanishi bilan ular nafaqat kommunikatsiya jarayonlarini soddalashtirdi, balki iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy sohalarda yangi imkoniyatlar yaratdi.

Tarixiy jihatdan, tarmoq texnologiyalari 20-asrning o‘rtalaridan boshlab rivojlana boshladi va internetning keng tarqalishi bilan katta qadamlar oldi. 1980-yillarda lokal tarmoqlar kengayib, murakkablashdi, 1990-yillarda esa internet keng jamoatchilik uchun ochildi va global tarmoq bo‘ldi. Bu davrda TCP/IP protokollari ishlab chiqildi va qabul qilindi, ularning yordamida turli tarmoqlar bir-biri bilan bog‘lanib, ma'lumotlar almashinuvi amalga oshirildi. So‘nggi yillarda mobil tarmoqlar, bulutli texnologiyalar va 5G texnologiyalari rivojlanib, tarmoq imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bu rivojlanishlar insonlarning kundalik faoliyatiga, biznes jarayonlariga va davlat boshqaruviga katta ta'sir ko‘rsatmoqda.

Tarmoq texnologiyalari, yoki tarmoq kommunikatsiya texnologiyalari, ma'lumotlarni uzatish va ulanish uchun ishlatiladigan texnologiyalar to'plamini anglatadi. Bu texnologiyalar internet, lokal tarmoqlar (LAN), keng tarmoqlar (WAN), va boshqa kommunikatsiya tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Ular zamonaviy axborot tizimlarining asosiy qismidir, chunki ular orqali ma'lumotlar tez, xavfsiz va samarali tarzda uzatiladi. Tarmoq texnologiyalarining asosiy vazifasi - turli qurilmalar va tizimlar o'rtasida ma'lumot almashinishni ta'minlash, resurslarni taqsimlash va boshqarishni samarali qilishdir.

Tarmoq texnologiyalarining asosiy turlari va tushunchalari haqida gapirganda, ularni bir necha asosiy kategoriya va texnologiyalarga ajratish mumkin. Avvalo, lokal tarmoqlar (LAN) — bu kichik hududiy maydonda

joylashgan qurilmalar tarmog'idir, odatda ofislar, maktablar yoki uy sharoitida foydalaniladi. LAN texnologiyalari odatda Ethernet protokoli asosida ishlaydi va yuqori tezlikda ma'lumot uzatishni ta'minlaydi. Keng tarmoqlar (WAN) esa katta geografik hududlarni qamrab oladi va odatda ko'plab LANlar yoki boshqa tarmoqlar bilan bog'lanadi. Internet esa dunyo bo'ylab tarqalgan eng katta WAN hisoblanadi va u TCP/IP protokoli yordamida ishlaydi. TCP/IP protokollari tarmoqda ma'lumotlarni paketlarga bo'lib uzatish va qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tarmoq texnologiyalarining boshqa turlari ham mavjud. Masalan, simli texnologiyalar (Ethernet, optik tolalar) yuqori tezlik va xavfsizlikni ta'minlaydi, mobil tarmoqlar (3G, 4G, 5G) esa har qanday joyda va har qanday vaqtda aloqa qilish imkoniyatini yaratadi. Bulutli texnologiyalar yordamida ma'lumotlar va resurslar markazlashtirilgan serverlarda saqlanadi va ularga internet orqali kirish amalga oshiriladi. Bu esa foydalanuvchilarga resurslarni yanada qulay va xavfsiz foydalanish imkonini beradi.

Tarmoq xavfsizligining asosiy maqsadi - axborotlarning maxfiyligini, yaxlitligini va mavjudligini ta'minlashdir. Bu maqsadga erishish uchun turli xavfsizlik mexanizmlari, protokollar va vositalar ishlab chiqilgan. Masalan, shifrlash texnologiyalari ma'lumotlarni uzatishda ularni o‘qib bo‘lmaydigan shaklda saqlashga imkon beradi. Bu, ayniqsa, internet orqali uzatiladigan ma'lumotlar uchun juda muhimdir, chunki ular o‘g‘irlangan taqdirda ham boshqalarning qo‘lga kiritmaydigan darajada himoyalangan bo‘ladi. Shuningdek, autentifikatsiya va ruxsat berish tizimlari, masalan, foydalanuvchi identifikatsiyasi uchun parollar, biometrik ma'lumotlar va ikki faktorli autentifikatsiya (2FA), tarmoq xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Tarmoq xavfsizligining muhim elementlaridan biri - firewall va antivirus dasturlari bo‘lib, ular tarmoqqa kirish va undan chiqishni nazorat qilish, zararli dasturlarni aniqlash va bloklash imkonini beradi. Bundan tashqari, tarmoq monitoringi va kirishni nazorat qilish tizimlari (IDS/IPS) tarmoqda nojo‘ya faoliyatlarni aniqlash va oldini olish uchun qo‘llaniladi. Bu vositalar yordamida tarmoqdagi harakatlar muntazam ravishda kuzatiladi va xavf tug‘diradigan holatlar aniqlanganda tezkor chora-tadbirlar ko‘riladi.

Bulutli texnologiyalar va kiberxavfsizlik sohasidagi yutuqlar tarmoqlarning kelajakdagi rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Bulutli xizmatlar yordamida, resurslar va ma'lumotlar markaziy serverlarda joylashgan holda, global miqyosda boshqariladi va uzatiladi. Bu esa, ayniqsa, korporatsiyalar uchun, shuningdek, shaxsiy foydalanuvchilar uchun, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofadan boshqarishni sezilarli darajada yengillashtiradi. Biroq, bu jarayonlar bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiylik muammolari ham ortib bormoqda. Kelajakda tarmoq texnologiyalarini rivojlantirishda xavfsizlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatik boshqaruv tizimlaridan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, tarmoqlarni barqarorlik va keng qamrovli qilish uchun yangi

texnologiyalar, jumladan, satelit tarmoqlari va quvvatli simsiz aloqa texnologiyalari rivojlantirilmoqda. Bu texnologiyalar, ayniqsa, uzoq va qiyin sharoitlarda, masalan, tog‘li hududlar, orollar yoki qisman qamrovga ega joylarda, tarmoq imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Yana bir muhim istiqbolli yo‘nalish – sun’iy intellekt va mashinalarni o‘rganish texnologiyalarining integratsiyasi. Bu texnologiyalar tarmoq trafikini real vaqtda tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni avtomatik ravishda hal qilish imkonini beradi, bu esa tarmoq barqarorligini va xavfsizligini ta'minlaydi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda tarmoq texnologiyalarining asosiy tushunchalari, turlari va ularning amaliy qo‘llanilishi hamda xavfsizlik masalalari keng yoritildi. Tarmoq texnologiyalarining rivojlanishi, ayniqsa, internet, LAN, WAN va mobil tarmoqlarning tarixi va istiqbollari bilan bog‘liq bo‘lib, ular zamonaviy axborot tizimlarining asosiy qismi sifatida muhim o‘rin tutadi. Bu texnologiyalar yordamida ma'lumotlar uzatish, resurslarni taqsimlash va kommunikatsiya jarayonlari yuqori darajada samarali amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi muhim ahamiyat kasb etib, ularning rivojlanishi va muammolari muhokama qilindi. Shuningdek, tarmoq texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishi, banklar, korxonalar va shaxsiy foydalanuvchilar uchun xavfsizlik va faoliyat samaradorligini ta’minlashda o‘z o‘rnini topdi. Bu, ayniqsa, bulutli xizmatlar, mobil tarmoqlar va 5G texnologiyalarining rivojlanishi bilan yanada kengayib bormoqda. Tadqiqotda keltirilgan natijalar tarmoq texnologiyalarining zamonaviy ehtiyojlarga moslashishi va ularning takomillashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, tarmoq texnologiyalari juda keng va rivojlanayotgan soha bo'lib, ular inson va texnologiyalar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning asosiy tushunchalari va turlari haqida chuqur tushuncha hosil qilish, ularni amaliyotda to'g'ri qo'llash va xavfsizligini ta'minlash hozirgi zamon uchun muhimdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qudratov, A. N., & Yusupov, A. X. (2021). O ‘QUV JARAYONIGA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO ‘LLASH. Science and Education, 2(1), 309-313.

2. Xolmuxamatovich, Y. A. (2022). ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHNING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH. Gospodarka i Innowacje., 23, 26-28

3. Yusupov, A. (2022). TA’LIM JARAYONINI ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANILGAN HOLDA TASHKIL QILISH. Science and innovation, 1(B8), 462-466

UY-JOY QURILISH JARAYONIDA KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH JARAYONINI INOBATGA OLISHNING ZARURIYATI

S.B.Boboqulov SamISI, "Raqamli *iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD*
tel: +998941891989, e-poch: sanjar.bobokulov02@gmail.com,
ORCID 0000-0002-1882-1507

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli uy-joy qurilishi jarayonlarida kommunal xizmat ko'rsatish tizimini qurilish bosqichidayoq kompleks holda rejalashtirish va amalga oshirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Maqolamizda so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ya'ni "Shaffof qurilish" va "Yagona raqamli platforma" tizimlari, shuningdek, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya davlatlar xalqaro tajribalarni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: uy-joy qurilishi, kommunal infratuzilma, eskrou hisobvaraqlari, "yashil" energiya, suv ta'minoti, elektr ta'minoti, issiqlik ta'minoti, davlat-xususiy sheriklik, "Shaffof qurilish" platformasi, Yagona raqamli platforma, shaharsozlik.

Аннотация: В данной статье освещаются научно-теоретические и практические аспекты комплексного планирования и реализации системы коммунального обслуживания на стадии строительства в процессах масштабного жилищного строительства, осуществляемого в Республике Узбекистан. В нашей статье анализируются нормативно-правовые акты, принятые в последние годы, а именно системы "Прозрачное строительство" и "Единая цифровая платформа," а также международный опыт Германии, Сингапура и Южной Кореи.

Ключевые слова: жилищное строительство, коммунальная инфраструктура, счета эскроу, "зеленая" энергия, водоснабжение, электроснабжение, теплоснабжение, государственно-частное партнерство, платформа "Прозрачное строительство," Единая цифровая платформа, градостроительство.

Abstract: This article examines the scientific-theoretical and practical aspects of comprehensive planning and implementation of the communal services system at the construction stage in the processes of large-scale housing construction carried out in the Republic of Uzbekistan. Our article analyzes the regulatory legal acts adopted in recent years, specifically the "Transparent Construction" and "Single Digital Platform" systems, as well as the international experience of Germany, Singapore, and South Korea.

Keywords: housing construction, communal infrastructure, escrow accounts, "green" energy, water supply, electricity supply, heat supply, public-

private partnership, "Transparent Construction" platform, Unified Digital Platform, urban planning.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida, ayniqsa so‘nggi to‘qqiz yilda ulkan qurilish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. 2025-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida[13] qayd etilishicha, joriy yilning o‘zida aholiga 8 million 100 ming kvadrat metrli, 135 ming xonadondan iborat ko‘p qavatli uylar topshirilmoqda, fuqarolar tomonidan esa 19 million kvadrat metr maydonda shaxsiy uy-joy qurilishi amalga oshirilgan. Biznes vakillari tomonidan 24 million kvadrat metr noturar joy obyektlari barpo etilgan. So‘nggi to‘qqiz yilda jami 210 million kvadrat metr turar-joy va noturar joy obyektlari foydalanishga topshirilgan. Ushbu keng ko‘lamli qurilish jarayonlari mamlakatimizning iqtisodiy o‘sish sur’atlari, aholi turmush darajasining yaxshilanayotgani, investitsion jozibadorlikning ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq, qurilish ishlari hajmining keskin oshishi bilan bir qatorda, qurilayotgan va foydalanishga topshirilayotgan uy-joylarni kommunal infratuzilma (elektr, gaz, suv, issiqlik ta’minoti, kanalizatsiya, internet ta’minoti uy-joy kommunal xizmatlari) bilan to‘liq va o‘z vaqtida ta’minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, 2025 yilda respublikada quriladigan uy-joylar miqdori oshib borayotganligidan kelib chiqib, aholini sifatli uy-joy kommunal xizmatlari bilan ta’minlab borsih muhim masalalardan biri hisoblanadi va bu holatga davlat darajasida nazoratga olish zarurdir (1-jadval).

1-jadval

2025-yilda foydalanishga topshirilgan ko‘chmas mulk hajmi

T/r	Obyekt turi	Hajmi (kv. metr)	Izohi
1	**Ko‘p qavatli uylar**	8 100 000 kv. m	135 000 ta xonadon
2	**Shaxsiy uy-joylar**	19 000 000 kv. m	Fuqarolar tomonidan qurilgan
3	**Noturar joy obyektlari**	24 000 000 kv. m	Biznes vakillari tomonidan
4	**Jami (so‘nggi 9 yilda)**	210 000 000 kv. m	Umumiy foydalanishga topshirilgan

1-jadval ma’lumotlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston qurilish sektorining 2025-yildagi holati ko‘chmas mulk bozori ham ijtimoiy, ham tijorat yo‘nalishida jadal transformatsiya davrini boshdan kechirayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, jami barpo etilgan obyektlar tarkibida biznes vakillari tomonidan qurilgan noturar joylar 24 mln kv. metrni, aholi tomonidan qurilgan shaxsiy uy-joylar 19 mln kv. metr hajmining davlat dasturlari asosidagi ko‘p qavatli uylardan sezilarli darajada yuqoriligi iqtisodiyotda xususiy sektor va aholi investitsion faolligining asosiy drayverga aylanganini ko‘rsatadi. So‘nggi to‘qqiz yil ichida 210 million kvadrat

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2025-yil 26-dekabr. — 56 b. (https://president.uz)

metr maydonning foydalanishga topshirilishi sohada barqaror ekstensiv o‘sish dinamikasi shakllanganidan dalolat beradi, ayniqsa 2025-yilgi ko‘rsatkichlarning umumiy salmog‘i yillik o‘sish sur’atlarining jadallashganini tasdiqlaydi. Bu jarayon iqtisodiyotda multiplikativ effekt hosil qilib, nafaqat urbanizatsiya darajasini oshiradi, balki tadbirkorlik infratuzilmasining kengayishi orqali yangi ish o‘rinlari va xizmat ko‘rsatish nuqtalarini yaratishga xizmat qiladi. Qurilish sektori hozirda nafaqat ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, balki milliy iqtisodiyotning tarkibiy o‘sishini ta’minlovchi fundamental bazaga aylangan.

Fikrimizcha, zamonaviy shaharsozlik nazariyasida “infratuzilmaviy yaxlitlik” tushunchasi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra turar-joy massivlarini loyihalash va qurish jarayonida barcha elektr, gaz, suv, issiqlik ta’minoti, kanalizatsiya, internet ta’minoti uy-joy kommunal xizmatlari bir vaqtning o‘zida, kompleks holda barpo etilishi lozim. Ushbu yondashuv quyidagi fundamental tamoyillarga asoslanadi:

Birinchidan, infratuzilma tarmoqlari “bir vaqtda” qurilishi prinsipi. Agar turar-joy binolari foydalanishga topshirilgan bo‘lsa-da, lekin elektr transformatorlari quvvati yetarli emasligi, gaz tarmog‘i ulanishga tayyor emasligi, ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlari mavjud emasligi sababli aholi kommunal xizmatlardan foydalana olmasa, bunday qurilish samarasiz hisoblanadi.

Ikkinchidan, resurslarni optimallashtirish tamoyili. Uy-joy kommunal tarmoqlarni qurilish bosqichidayoq kompleks rejalashtirish qayta qazish ishlarini, qo‘shimcha xarajatlarni va vaqt yo‘qotishlarini oldini oladi.

Uchinchidan, shaharsozlikning komplekskligi tamoyili. Turar-joy massivlarini loyihalashda nafaqat uy-joylarning o‘zi, balki ijtimoiy infratuzilma (maktab, bog‘cha, poliklinika), transport tarmoqlari, kommunal tizimlar, “yashil” hududlar bir butun holda rejalashtirilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan sohada raqamlashtirish va shaffoflikni kuchaytirishga qaratilgan muhim ishlar amalga oshirilmoqda. 2026-yilda “Shaffof qurilish” tizimida “Raqamli shaharsozlik kengashi” platformasi ishga tushirilib, arxitektura-shaharsozlik kengashlari faoliyati to‘liq raqamlashtiriladi. Fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni o‘qish, tahlil qilish va toifalash jarayonlariga sun’iy intellekt joriy etiladi. “Qurilish resurslari milliy klassifikatori” elektron platformasida 206 mingdan ortiq qurilish resurslariga individual kodlar shakllantirilgan. Raqamli smeta moduli ishlab chiqilib, Nukus va Qarshi shaharlarida avtomatik shaharsozlik talablari mexanizmlari tajriba tariqasida joriy etiladi. Qiymati 10 mlrd so‘mdan yuqori bo‘lgan obyektlar loyihalari “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi orqali ko‘rib chiqiladi. “Mening uyim” billing tizimi orqali mavjud 1,4 million xonadondan iborat 42 mingdan ortiq ko‘p qavatli uylarning boshqaruv jarayonlari to‘liq raqamlashtirilgan. Hisobotlar, to‘lovlar hamda fuqarolarning murojaatlari raqamli shaklda qayd etilib, aholiga qulay tarzda yetkazilmoqda . “Turar joy” milliy axborot tizimi bosqichma-bosqich ishga tushiriladi. Ushbu tizim orqali ko‘p qavatli

uylarning texnik holati, yer uchastkalari, energiya va suv iste’moli bo‘yicha ma’lumotlar yagona elektron bazada shakllantiriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar va olib borgan izlanishlarimiz natijasida uy-joy qurilish jarayonida kommunal xizmat ko'rsatish jarayonini inobatga olishni yanada takomillashtirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirdik:

Birinchidan, uy-joy qurilish jarayonida kommunal xizmat ko'rsatish jarayonini inobatga olishda “bir vaqtda qurilish” tamoyilini amaliyotga tadbiq etish, uning me’yoriy-huquqiy asosini shakllantirish, qurilish kompaniyalar tamonidan quriladigan uy-joylar uchun zarurligini asoslash hamda shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchidan, uy-joy qurilish jarayonida kommunal xizmat ko'rsatish jarayonini shaffofligi, tezkorligini ta’minlab berish maqsadida raqamlashtirilgan “infratuzilmaviy xarita” tizimini yaratish va uni Yagona raqamli platforma bilan integratsiyalash qilish.

Uchinchidan, uy-joy kommunal infratuzilmani rivojlantirishda “davlat-xususiy sheriklik” mexanizmlarini keng tadbiq etish, moliyaviy barqarorligini ta’minlash mahalliy va xalqaro investitsion jozibadorlikni oshirish.

To‘rtinchidan, xizmat ko‘rsatish va qurilish jarayonlarida “yashil” hamda “aqlli” texnologiyalarni keng joriy etish, shunga monan tarzda kadrlarni malakasini oshirish.

Ushbu taklif va tavsiyalarni amalga oshirish natijasida qurilish jarayonida kommunal xizmatlarni kompleks rejalashtirish va qurish tizimi yaratiladi, bu esa qayta qazish ishlari va qo‘shimcha xarajatlarni kamaytiradi, aholining turmush sifatini yaxshilaydi, investitsion jozibadorlikni oshiradi va mamlakatimizda barqaror urbanizatsiyani rivojlanishni ta’minlaydi. Zero, yurt obodligi mahalladan boshlanadi, mahallaning obodligi esa — qurilayotgan uy-joylar bilan birga sifatli va ishonchli kommunal infratuzilmaga egalik qilishdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2025-yil 26-dekabr. — 56 b.

9. “Sahm News”: O‘zbekiston yetakchisi 2026-yilga mo‘ljallangan taraqqiyotning asosiy ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi [Elektron resurs]. — Dunyo axborot agentligi, 2025-yil 29-dekabr. — URL: https://dunyo.info (murojaat sanasi: 24.03.2026).

10. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. O‘zbekistonning raqamli qurilish boshqaruvidagi ilg‘or tajribasi yuqori baholandi [Elektron resurs]. — Hukumat portali, 2025-yil 28-oktyabr. — URL: https://hukumat.uz (murojaat sanasi: 24.03.2026).

11. O‘zbekistonda OASIS platformasi yaratiladi, startaplar va IT parklar uchun imkoniyatlar kengaytiriladi [Elektron resurs]. — Gazeta.uz, 2025-yil 24-sentabr. — URL: https://www.gazeta.uz (murojaat sanasi: 24.03.2026).

12. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari [Elektron resurs]. —

Davlat portali, 2025-yil 4-iyun. — URL: https://davlat.uz (murojaat sanasi: 24.03.2026).

13. Large-Scale Urban Infrastructure Renewal Project to Begin in Buka District [Elektron resurs]. — O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali, 2025-yil 16-oktyabr. — URL: https://gov.uz (murojaat sanasi: 24.03.2026).

ЎЗБЕКИСТОНДА АТРОФ-МУҲИТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Джумаев Аскар Хайдарович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг “Рақамли иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси.
Тел: +99891 709 17 88.
Эл.п. askardjumayev@gmail.com

Аннотация: Мақолада қишлоқ хўжалигида мавжуд долзарб муаммолар ва уларни ҳал қилишнинг айрим йўллари кўрсатилган. Хусусан, мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги оборотига киритилган ерларнинг қарийб 86% суғориладиган ерлар бўлиб, кейинги йилларда сув танқислиги аста-секин ортиб бормоқда. Мақолада айнан шу муаммолар кўрсатилиб, уларнинг ечимлари илмий жиҳатдан асосланиб ёзилган.

Таянч иборалар: *демографик ҳолат, ресурстежамкор технологиялар, ўрмонлаштириш, агроўрмон хўжалиги, ихоталаш, экинлар диверсификацияси.*

Аннотация: В статье представлены актуальные проблемы, существующие в сельском хозяйстве, и некоторые пути их решения. В частности, около 86% земель, включенных в сельскохозяйственный оборот нашей страны, являются орошаемыми, и в последние годы дефицит воды постепенно увеличивается. В статье указаны именно эти проблемы, а их решения написаны в научно обоснованной форме.

Ключевые слова: *демографическая ситуация, ресурсосберегающие технологии, лесоразведение, агролесоводство, ихотирование, диверсификация сельскохозяйственных культур.*

Abstract: The article presents current problems existing in agriculture and some ways to address them. Specifically, about 86% of the land included in our country's agricultural turnover is irrigated, and the water shortage has been gradually increasing in recent years. The article highlights these specific problems and writes their solutions in a scientifically grounded manner.

Keywords: *demographic situation, resource-saving technologies, afforestation, agroforestry, breeding, crop diversification.*

Кириш. Қишлоқ хўжалиги Ўзбекистон иқтисодиётининг етакчи тармоқларидан бири ҳисобланади ва уни “яшил иқтисодиёт” асосида ривлжлантириш зарурияти умумглобал ривожланиш тенденцияларига мос келади. Жумладан, мамлакат аҳолисининг қарийб 17 миллиони (жами аҳолининг 50 дан фоиздан ортиғи) қишлоқ ҳудудларида истиқомат қилади. Мамлакатда туғилиш даражаси юқори (23,3 промилле) ва шунга мос равишда қишлоқ жойларида ортиқча ишчи кучи мавжуд. Аҳолининг 45,5 фоизини 25 ёшгача бўлганлар, 55 фоиздан кўпроғини эса 30 ёшгача бўлганлар ташкил этади.

Асосий қисм. Республика аҳолиси сонининг юқори суръатлар билан ўсиб бориши, қишлоқ хўжалиги ерларининг бошқа тоифага ўтказилиши ва глобал иқлим ўзгариши таъсирининг кескинлашуви оқибатида охирги 15 йилда аҳоли жон бошига тўғри келадиган суғориладиган ер майдонлари ўлчами 24 фоизга (0,23 гектардан 0,16 гектаргача), ўртача йиллик сув таъминоти даражаси эса 3 048 метр кубдан 158,9 метр кубгача қисқарди. башоратларга кўра, келгуси 30 йил мобайнида суғориладиган ер майдонлари яна 20 — 25 фоизга қисқариши мумкин.

Қишлоқ хўжалигида ўртача йиллик сув сарфи 45 696 млн метр куб ёки иқтисодиёт тармоқларида истеъмол қилинган сув ресурсларининг 90 фоизини ташкил этиб, юқорилигича қолмоқда. Жумладан, ривожланган давлатларда 1 $м^3$ сув билан 4-6 долларлик маҳсулот етиштирилаётган бўлса, республикамизда бу кўрсаткич 0,15 долларни ташкил этмоқда. Шунинг учун ҳам, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 2019 йил 4 октябрь, ПҚ-4477-сон Қарорида 2030 йилга қадар бир гектар майдонни суғориш учун ишлатиладиган сув сарфини 20 фоизга камайтириш вазифаси белгиланган.

“Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси”да белгиланган устувор йўналишлардан бири “... ер ва сув ресурслари, ўрмон фондидан оқилона фойдаланишни назарда тутувчи табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш” ҳисобланади. Ушбу стратегияда 2030 йилга қадар қишлоқ хўжалигидаги иссиқхона газ чиқиндилари миқдорини 2016 йилги даражадан 50 фоизга камайтириш, сув тежовчи технологиялар жорий этилган суғориладиган қишлоқ хўжалиги ерлари майдонини 32 фоизга, ўрмон билан қопланган майдонларни 30 фоизга кенгайтириш каби вазифалар белгиланган.

Яқин ўн йилликларда қишлоқ хўжалиги учун сув танқислиги муаммоси юзага келади. Қишлоқ хўжалиги ривожланиши кўп сув талаб қилади, интенсив қишлоқ хўжалиги ривожланишига ўтиш янада кўпроқ сув талаб этади. Истиқболда қишлоқ хўжалигида унумдорликни оширишга сув истеъмолини мутаносиб тарзда ошириш ҳисобига эришиб бўлмайди. Жаҳон амалиёти кўрсатишича, қишлоқ хўжалигида сувдан самарали фойдаланиш усулларидан

фойдаланиш талаб этилади. Айрим ҳисоб-китобларга кўра 1 $м^3$ тоза сув маҳсулот етиштириш ҳосилдорлигини 50-80%га оширади. Қишлоқ хўжалигида тоза сув истеъмолини камайтиришда суғоришда самарадорлиги юқори технологияларни қўллаш, дренаж ёрдамида ёмғир сувларини йиғиш, техник сувларни тозалаш ва улардан иккиламчи фойдаланиш каби усулларни қўллаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Жаҳон ресурслари институтининг прогнозига кўра, 2040 йилга бориб Ўзбекистон сув танқислиги энг юқори бўлган 33 та мамлакатнинг бирига айланади. Ҳосилдорликнинг камайиши эса озиқ-овқат хавфсизлиги ва тўлов баланси учун жиддий салбий оқибатларни келтириб чиқаради, бу албатта сув ресурсларини барқарор бошқариш ва қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда ресурстежамкор юқори технологияларни қўллаш заруратини юзага келтиради.

Мамлакатимизда сув танқислигини бартараф этишни ягона йўли **ўрмонлаштиришдир.** Айниқса, **агроўрмон** хўжалигини ривожлантириш таназзулга юз тутган ерларни қайта тиклашда муҳим роль ўйнайди. **Агроўрмон хўжалиги –** тупроқ сифатини яхшилаш мақсадида ўрмончилик ва қишлоқ хўжалигини мутаносиб тарзда ривожлантиради. Дарахтлар иссиқхона газларини тутиб қолади, кислород ишлаб чиқаради, ёмғир сувларини жамғаради, тупроқ эрозиясига қаршилик қилади ва гумуснинг шаклланиши учун табиий ўғитлар беради. Бунинг учун органик ўғит сифатида дарахт баргларидан кенг фойдаланиш юқори самара беради. Ўрмонлар, чакалакзор ўрмонларни кўпайтирилиши нафақат ер намлигини сақланишини, балки уни кенгайиб ривожланиши минтақавий иқлимни ҳам ўзгаришига, сув ресурсларини кўпайишига олиб келади.

Мамлакатимизда кенг тарқалган япроқли дарахтлардан **тут дарахти** ва унинг барча навлари, ҳавони тозалаш, карбонат ангидритни ютиш ва кислород чиқариш бўйича Россия теракларидан кейин иккинчи чемпион ҳисобланади. Тут ўрмонзорларини кўпайтирилиши, ерни тут дарахти билан ихоталаниши, пилла маҳсулотини етиштириб кўпайтиришда жуда катта аҳамиятга эга бўлиши мумкин. Чунки жаҳон бозорида ипак толасига ва ипакдан тўқилган матоларга талаб йилдан-йилга ортиб бормоқда. Қишлоқ хўжалигининг 10 гектаргача экин майдонларини тут дарахтлари билан 2-4 қатор қилиб ихоталаш, тупроқ эрозиясини камайтиришига ва тупроқдаги намликни 2,5%га кўпайишига олиб келади.

Сув ресурсларини кўпайтириш бўйича қуйидаги таклифларни киритиш мумкин:

- Агроўрмонларни барпо этишда тут ўрмонларини кўпайтириш ва уни ерларни ихоталашда кўп қаторли қилиб экиш;
- Ўрмонларни барпо этишда мустаҳкам ёғочли ва тез ўсадиган мевали дарахтларни (ўрик, ёнғоқ, бодом...) ҳам кўпайтириш;
- Ўрмонларни барпо этиш жараёнларида, уларни самарали суғориш технологияларини 8-10 йиллар давомида ташкил этиш ва таъминлаш.

Ўзбекистон Республикасининг “яшил иқтисодиёт” га ўтиш стратегиясига мувофиқ қишлоқ хўжалиги соҳасида 2030 йилга қадар қуйидаги вазифаларни амалга ошириш режалаштирилган ва улар қуйидагилардан иборат**:**

- ишлаб чиқариш айланишдан чиққан яйловларни тиклаш ва яйловларни барқарор бошқариш механизмларини жорий этиш;
- органик қишлоқ хўжалиги услубларини жорий этиш;
- ҳайдаладиган ер майдонлари юзасининг доимий қопланиб туришини ва табий озиқланишини таъминлаш мақсадида экинларни алмашлаб экиш;
- экинлар таркибини диверсификация қилиш (кўп йиллик дарахтлар ва кўп йиллик ўтлар экилишини кенгайтириш, айниқса беда (клевер) ўсимлигини);
- ишлаб чиқариш ва қайта ишлашга (яшил) инвестицияларни жалб этиш, шунингдек, қишлоқ хўжалиги ва озиқ - овқат маҳсулотларининг қўшилган қиймат занжирини яратиш;
- чорвачиликнинг органик чиқиндиларини тўғри сақлаш, қайта ишлаш;
- сув манбаларининг қишлоқ хўжалиги чиқиндилари билан ифлосланишининг олдини олиш;
- шўрланиш, қурғоқчилик ва бошқа хавфли ҳодисалар ва хатарларга бардошли юқори маҳсулдор чорва мол ва ўсимлик турлари (навлари)ни етиштириш, маҳаллий чорва турлари ва ўсимлик навлари генофондини, шунингдек, маданий ўсимликларнинг ёввойи аждодлари генофондини сақлаш.
- Ўзбекистонда Орол денгизининг қуриган тубидаги ўрмонларнинг умумий майдонининг 60 фоизига етказиш ва 10-15 йиллик саксовулларнинг қаторлари орасида бир қатордан 3метр оралиқда иссиқсевар туронғул ҳамда қайрағоч (ғужум) дарахтларини ҳамда шўр ерларда ҳам ўсдиган бутасимон ёввойи жийда дарахтларини экиш;
- катта бутасимон дарахлар (саксовул, ёввойи жийда) оралиғида мустаҳкам ёғочли ёввойи дўлана (бояришник) ва бошқа иссиқсевар дарахтларни зич оралиғда (1,5Х2м) экиш ҳамда уларни суғориш ишларини 8-10 йил давомида ташкил этиш (кейин дарахтларни ўзлари нам сақланиши ҳисобилан ўсиб улғаяди);
- қишлоқ хўжалигида сув ресурсларининг йўқотилишини 10% га камайтириш;
- қишлоқ хўжалигида сув сарфини 15% га камайтириш (гектарига);
- оқова сувларни тозалаш самарадорлигини 80% гача ошириш;

Хулоса. Ўзбекистонда, қишлоқ хўжалигини “яшил иқтисодиёт” тамойиллари асосида ривожлантириш ва тупроқ эррозияси ҳамда уни деградациясини бартараф этиш учун **Агроўрмон** хужаликларини ташкил этиш ва ривожлантириш, фойдаланиладиган ерларни юқорида киритилган таклифлар асосида ихоталаш, яқин ўн йилликларда ўз самарасини бериши ҳамда сув танқислигини қисман бўлсада камайтириши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Орол денгизи тубидаги суви қуриган ҳудудларда “яшил қопламалар” — ҳимоя ўрмонзорлари барпо этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 15 февраль, 132-сон қарори

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Орол денгизи тубидаги суви қуриган ҳудудларда “яшил қопламалар” — ҳимоя ўрмонзорлари барпо этиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2019 йил 24 февраль, 1331-сон қарори.

3. Вахобов А.В., Хажибакиев Ш.Х. Қишлоқ хўжалигини “яшил иқтисодиёт” асосида ривожлантириш муаммолари // Электрон илмий журнал. Agroiqtisodiyot, №1, 2017.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 2019 йил 4 октябрь, ПҚ-4477-сон қарори.

«РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И «ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ» В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА»

СамИЭС,
кафедра «Реальная экономика»
И.О.Доцента **Рузиева Н.Б.**

Аннотация. Современное социально-экономическое развитие немыслимо без учета экологических реалий. Глобальные вызовы, такие как изменение климата, истощение природных ресурсов и загрязнение окружающей среды, требуют перехода к новым моделям экономики, основанным на принципах устойчивости и «зеленых» технологий. Узбекистан, страна с богатым природным наследием и ярко выраженными климатическими особенностями, является показательным примером того, как экологическая устойчивость может стать движущей силой регионального развития.

Ключевые слова: *экономика, развитие, устойчивость, ресурсы, зелёная экономика, модель, технологии, сила, направления, проблемы.*

Узбекистан сталкивается с рядом серьезных экологических проблем, которые оказывают прямое влияние на его социально-экономический ландшафт:

- **Аральское море:** Катастрофическое высыхание Аральского моря привело к опустыниванию огромных территорий, засолению почв, ухудшению качества воды, росту респираторных заболеваний среди населения и потере биоразнообразия. Это также негативно сказалось на

сельском хозяйстве и местных сообществах, которые зависели от рыбной ловли.

- **Дефицит водных ресурсов:** Регион Центральной Азии, и Узбекистан в частности, испытывает острый дефицит пресной воды, что усугубляется изменением климата и неэффективным использованием водных ресурсов в сельском хозяйстве.
- **Загрязнение воздуха и почв:** Интенсивное промышленное производство, сельское хозяйство и использование ископаемого топлива способствуют загрязнению воздуха и почв, что сказывается на здоровье населения и плодородности земель.

Однако, эти вызовы также открывают новые возможности для внедрения «зеленой экономики» и достижения устойчивого развития. Узбекистан обладает значительным потенциалом в области возобновляемых источников энергии, а также возможностями для модернизации традиционных отраслей с применением экологически чистых технологий.

«Зеленая экономика» как драйвер регионального развития. Переход к «зеленой экономике» в Узбекистане может способствовать социально-экономическому развитию регионов по нескольким ключевым направлениям:

1. **Развитие возобновляемой энергетики:**
   - **Снижение зависимости от ископаемого топлива:** Узбекистан активно развивает солнечную и ветровую энергетику. Это не только снижает выбросы парниковых газов, но и повышает энергетическую безопасность регионов, особенно отдаленных.
   - **Создание новых рабочих мест:** Строительство, эксплуатация и обслуживание солнечных электростанций и ветропарков создают устойчивые рабочие места, повышая уровень занятости в регионах.
   - **Привлечение инвестиций:** Активное развитие сектора возобновляемой энергетики привлекает внутренние и внешние инвестиции, стимулируя экономический рост.
2. **Модернизация сельского хозяйства:**
   - **Эффективное водопользование:** Внедрение капельного орошения, сбор дождевой воды и развитие гидропоники позволяют значительно сократить потребление воды, что критически важно для засушливых регионов.
   - **Органическое земледелие:** Переход на органические методов ведения сельского хозяйства снижает использование химических удобрений и пестицидов, улучшая качество почв и продуктов питания, а также снижая риск загрязнения окружающей среды.
   - **Развитие экотуризма:** Сохранение природных ландшафтов и биоразнообразия, особенно в районах, пострадавших от экологических бедствий, может способствовать развитию экотуризма, создавая новые источники дохода для местных сообществ.

3. **«Зеленое» строительство и городское планирование:**
   - **Энергоэффективность:** Использование энергоэффективных строительных материалов и технологий при строительстве новых зданий и модернизации существующих позволяет снизить потребление энергии, уменьшая расходы на отопление и кондиционирование.
   - **Управление отходами:** Внедрение систем раздельного сбора и переработки мусора способствует снижению нагрузки на полигоны и создает новые возможности для бизнеса в сфере утилизации.
   - **Создание зеленых зон:** Планирование и создание парков, скверов и зеленых насаждений в городах и населенных пунктах улучшает качество воздуха, создает комфортные условия проживания и способствует развитию рекреационных зон.
4. **Сохранение биоразнообразия и экологический мониторинг:**
   - **Восстановление экосистем:** Реализация проектов по восстановлению растительности в районах, пострадавших от опустынивания, помогает бороться с эрозией почв и возвращать земли в сельскохозяйственный оборот.
   - **Развитие научных исследований:** Создание центров экологического мониторинга и проведение исследований позволяют лучше понимать состояние окружающей среды, прогнозировать риски и разрабатывать эффективные меры по их снижению.
   - **Экологическое образование и просвещение:** Повышение осведомленности населения об экологических проблемах и принципах устойчивого развития является ключом к формированию ответственного отношения к природе и активному участию в «зеленых» инициативах.

Примеры успешных инициатив в Узбекистане:

- **Солнечные электростанции:** Узбекистан активно строит солнечные photovoltaic (PV) электростанции, например, в Навоийской и Джизакской областях, что является конкретным шагом к «зеленой» энергетике.
- **Проекты по водосбережению:** Реализуются пилотные проекты по внедрению капельного орошения в Ферганской долине и Самаркандской области, демонстрируя потенциал для повышения эффективности в сельском хозяйстве.
- **Устойчивое лесопользование:** Проводятся мероприятия по посадке деревьев, в том числе в зоне бывшего дна Аральского моря, способствуя борьбе с опустыниванием.

Заключение. Узбекистан демонстрирует, что экологическая устойчивость и «зеленая экономика» — это не просто модные термины, а реальные инструменты для достижения долгосрочного социально-экономического прогресса. Инвестиции в «зеленые» технологии, ответственное использование природных ресурсов и повышение экологической

осведомленности населения открывают путь к процветанию регионов, минимизации экологических рисков и созданию здоровой и устойчивой среды для будущих поколений. Успех подобных инициатив требует комплексного подхода, включающего государственную поддержку, привлечение частного сектора, международное сотрудничество и активное вовлечение местного населения.

XIZMATLAR SOHASIDA YASHIL TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA HAL ETILISHI LOZIM BO‘LGAN DOLZARB MASALALAR VA ULARNING TASHKILIY-IQTISODIY YECHIMLARI

Abdivoxidov Mamurjon Avazxon o‘g‘li - PhD., dotsent v.b.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
e-mail: abdivoxidovmamurjon@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada xizmatlar sohasida yashil transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy yechimlar tahlil qilinadi. Resurs sarfini hisobga olish, ekologik logistika, chiqindilarni boshqarish, yashil ko‘nikmalar, raqamli monitoring va moliyalashtirish mexanizmlari xizmatlar samaradorligining muhim omillari sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *yashil transformatsiya, xizmatlar sohasi, resurs sarfi, ekologik logistika, raqamli monitoring, yashil audit, iqtisodiy rag‘bat.*

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные проблемы зеленой трансформации в сфере услуг и организационно-экономические решения по их устранению. Особое внимание уделяется учету ресурсов, экологичной логистике, управлению отходами, зеленым навыкам, цифровому мониторингу и финансовым стимулам как факторам повышения эффективности услуг.

Ключевые слова*: зеленая трансформация, сфера услуг, расход ресурсов, экологичная логистика, цифровой мониторинг, зеленый аудит, экономическое стимулирование.*

Abstract. The article analyzes urgent problems arising during green transformation in the service sector and organizational-economic solutions for overcoming them. Resource accounting, ecological logistics, waste management, green skills, digital monitoring and financial incentives are substantiated as important factors of service efficiency.

Keywords*: green transformation, service sector, resource consumption, ecological logistics, digital monitoring, green audit, economic incentives.*

Kirish

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng tez moslashuvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Savdo, transport, turizm, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatlar, moliya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va axborot xizmatlari aholining kundalik hayoti bilan bevosita tutashadi. Raqamli iqtisodiyot mazkur sohada xizmat ko‘rsatish tezligi, qulayligi va bozor qamrovini kengaytiradi. Kengayish jarayoni bilan birga energiya iste’moli, transport oqimi, qadoqlash, binolardan foydalanish, elektron uskunalar chiqindisi va ma’lumotlar infratuzilmasi xarajatlari ortadi. Yashil transformatsiya ana shu o‘sishni ekologik jihatdan boshqariladigan shaklga keltirishni talab qiladi.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xizmatlar hajmini oshirish, hududlarda servis infratuzilmasini kengaytirish, elektron xizmatlarni rivojlantirish va xususiy sektor faolligini kuchaytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan [5]. Biroq tarmoqning tez o‘sishi resurslardan foydalanish madaniyati bilan uyg‘unlashmasa, iqtisodiy natija ekologik yuklama evaziga yuzaga keladi. Shu nuqtada dolzarb masala xizmatlar sohasining yashil transformatsiyasini umumiy chaqiriq sifatida emas, aniq boshqaruv muammolari va ularning yechimlari tarzida ko‘rishdan iborat.

Asosiy dolzarb muammolar

Birinchi muammo — xizmat ko‘rsatish obyektlarida energiya va suv sarfini aniq hisobga olish tizimining yetarli darajada shakllanmaganidir. Kichik savdo do‘konlari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, mehmonxonalar, maishiy xizmat korxonalari ko‘pincha resurs xarajatlarini umumiy to‘lov sifatida ko‘radi. Xizmat birligiga to‘g‘ri keladigan energiya yoki suv sarfi hisoblanmaganda, tejash imkoniyati ham ko‘rinmaydi. Aqlli hisoblagichlar, elektron monitoring va resurs sarfi bo‘yicha oddiy tahliliy panel ushbu muammoni kamaytirishi mumkin.

Ikkinchi muammo — xizmatlar logistikasida ekologik va iqtisodiy samaradorlikning yetarli uyg‘unlashmaganidir. Yetkazib berish xizmatlari, taksi, sayyohlik tashuvlari, savdo omborlari va kuryerlik faoliyatida yo‘nalish noto‘g‘ri rejalashtirilsa, yoqilg‘i sarfi ortadi, shahar transport oqimi tig‘izlashadi, xizmat narxi yuqorilaydi. Raqamli xaritalar, buyurtmalarni klasterlash, yuklamani prognozlash va marshrutni avtomatlashtirish xarajatni ham, ekologik bosimni ham kamaytiradi. Bunday yondashuv yashil transformatsiyani tadbirkor uchun majburiyat emas, operatsion samaradorlik vositasiga aylantiradi.

Uchinchi muammo — chiqindilarni boshqarishning xizmatlar sohasi xususiyatlariga moslashmaganidir. Savdo, umumiy ovqatlanish, turizm va maishiy xizmatlarda qadoqlash, oziq-ovqat qoldiqlari, plastmassa, qog‘oz va maishiy chiqindilar ulushi yuqori bo‘ladi. Chiqindilarni saralash, qayta ishlash korxonalari bilan shartnomaviy aloqalar, elektron kuzatuv va iste’molchiga ekologik tanlov

berish tizimi yetarlicha yo‘lga qo‘yilmasa, yashil transformatsiya tashqi ko‘rinishdagi targ‘ibot bilan cheklanib qoladi.

To‘rtinchi muammo — kadrlar va boshqaruv ko‘nikmalarining yangi talabga mos emasligidir. Xizmat ko‘rsatish xodimi mijoz bilan ishlashni bilishi bilan birga resurs tejash, raqamli platformadan foydalanish, ekologik standartlarga rioya qilish, chiqindini saralash va xizmat sifatini o‘lchash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Korxona rahbarlari esa yashil xarajat va yashil investitsiya o‘rtasidagi farqni anglay olishi lozim. Yashil ko‘nikmalar xizmatlar sohasida inson kapitali sifatining yangi komponentiga aylanmoqda.

Tashkiliy-iqtisodiy yechimlar

Dolzarb masalalarni hal etishda birinchi yechim sifatida xizmatlar sohasi uchun bosqichma-bosqich yashil audit tizimini joriy etish mumkin. Mazkur audit sanoat korxonalaridagi murakkab ekologik ekspertizadan farqli ravishda sodda, arzon va raqamli shaklda tashkil etilishi lozim. Unda energiya, suv, chiqindi, transport, qog‘oz sarfi, elektron xizmatlar ulushi va iste’molchi qoniqishi kabi ko‘rsatkichlar qayd etiladi. Natijada korxona o‘zining zaif nuqtasini ko‘radi, hududiy boshqaruv esa umumiy tendensiyani tahlil qiladi.

Ikkinchi yechim — iqtisodiy rag‘batlarni ekologik natija bilan bog‘lashdir. Energiya tejamkor uskunaga o‘tgan, elektron xizmat ulushini oshirgan, chiqindini saralagan yoki yetkazib berish marshrutlarini optimallashtirgan korxonaga soliq, ijara, kredit yoki subsidiya bo‘yicha imtiyoz berilishi mumkin. Biroq imtiyoz faqat hujjat asosida emas, raqamli monitoring orqali tasdiqlangan natijaga tayansa, uning samarasi yuqori bo‘ladi. Natijaga yo‘naltirilgan rag‘bat tarmoqda sun’iy hisobot berish amaliyotini kamaytiradi.

Uchinchi yechim — yashil transformatsiya jarayoniga iste’molchini faol ishtirokchi sifatida kiritishdir. Mobil ilova orqali ekologik reyting, qog‘ozsiz chek, qayta ishlanadigan qadoq tanlovi, jamoat transporti bilan bog‘langan xizmat takliflari va mijoz fikrini yig‘ish mexanizmi xizmat ko‘rsatish madaniyatini o‘zgartiradi. Iste’molchi talabining o‘zgarishi korxonani ekologik mas’uliyatli harakatga undaydi. Bozor talabi va davlat talabi bir yo‘nalishda ishlaganda transformatsiya barqaror tus oladi.

1-jadval. Xizmatlar sohasida yashil transformatsiyaning dolzarb muammolari va yechimlari

Muammo	Tashkiliy-iqtisodiy yechim	Natijadorlik mezoni
Resurs sarfi hisobga olinmasligi	aqlli hisoblagichlar, oddiy yashil audit, elektron tahlil paneli	xizmat birligiga energiya va suv sarfining kamayishi

Logistika samarasizligi	marshrutni raqamli optimallashtirish, buyurtmalarni klasterlash	yoqilg‘i sarfi, vaqt va transport yuklamasining qisqarishi
Chiqindilarni boshqarish zaifligi	saralash infratuzilmasi, qayta ishlash shartnomalari, elektron kuzatuv	qayta ishlash ulushi va ekologik mas’uliyatning ortishi
Yashil ko‘nikmalar yetishmasligi	xodimlarni qisqa muddatli o‘qitish, korxona ichki standartlari	xizmat sifati va ekologik intizomning yaxshilanishi
Moliyalashtirish cheklanganligi	natijaga yo‘naltirilgan imtiyoz, yashil kredit va subsidiya	investitsiya qaytimi va resurs tejamkorlik ko‘rsatkichlari

Jadvaldan ko‘rinadiki, xizmatlar sohasidagi muammolar faqat ekologik mazmunga ega emas; ularning har biri iqtisodiy xarajat, xizmat sifati, hududiy boshqaruv va raqamli ma’lumotlar bilan bog‘langan. Muammo to‘g‘ri aniqlansa, yechim korxona uchun qo‘shimcha yuk emas, xarajatlarni qisqartiruvchi va bozor mavqeini kuchaytiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Xulosa va takliflar

Xizmatlar sohasida yashil transformatsiyani amalga oshirish uchun nazariy chaqiriqlarni amaliy mexanizmlarga aylantirish talab etiladi. Resurs sarfini hisoblash, logistika jarayonlarini raqamlashtirish, chiqindilarni boshqarish, yashil ko‘nikmalarni shakllantirish va natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish ushbu mexanizmning tayanch bo‘g‘inlaridir. Har bir xizmat turi uchun bir xil talabni joriy etishdan ko‘ra, tarmoq xususiyatidan kelib chiqadigan indikatorlar tizimi samaraliroq natija beradi.

Amaliy takliflar sifatida xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar uchun soddalashtirilgan yashil audit blankasini ishlab chiqish, hududlar kesimida yashil xizmatlar reytingini yuritish, energiya tejamkor uskunalar xaridini imtiyozli kreditlash, raqamli logistika yechimlarini kichik biznesga moslashtirish, xizmat xodimlari uchun qisqa muddatli yashil ko‘nikmalar kurslarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Ushbu chora-tadbirlar xizmatlar sohasining o‘sishini ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qarori. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son Qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son Qarori. Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik axborotlar va tahliliy ma’lumotlar. Toshkent, 2024–2025.

7. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J., Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2014.

8. Porter M., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Journal of Economic Perspectives, 1995.

CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING GREEN TRANSFORMATION PERFORMANCE IN SERVICE INDUSTRIES

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi, PhD
Email: erdonovmuhammad@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida yashil transformatsiya samaradorligini baholashning konseptual va metodologik asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan. Unda “resurs-kirish – jarayon – natija – yakuniy ta’sir” mantiqiga asoslangan indikatorlar tizimi taklif etiladi. Energiya samaradorligi, uglerod sig‘imi, resurslardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, xizmat sifati, iste’molchi xulq-atvori va hududiy ekologik natijalar baholash mezonlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Tezisda ko‘p mezonli baholash usullari, indikatorlarni vaznlash va monitoring mexanizmlaridan foydalanish zarurati asoslanib, xizmatlar sohasida ekologik natijadorlikni aniq o‘lchashga imkon beruvchi yondashuv shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: yashil transformatsiya samaradorligi; baholash indikatorlari; xizmat ko‘rsatish tarmoqlari; ko‘p mezonli baholash; energiya samaradorligi; uglerod sig‘imi; xizmat sifati

Аннотация: Данный тезис направлен на разработку концептуальных и методологических основ оценки эффективности зеленой трансформации в отраслях услуг. Предлагается система индикаторов, основанная на логике «ресурсный вход – процесс – результат – итоговое воздействие». В качестве критериев оценки рассматриваются энергоэффективность, углеродоемкость, использование ресурсов, сокращение отходов, качество услуг, поведение потребителей и региональные экологические результаты. В тезисе обосновывается необходимость применения многокритериальных методов оценки, взвешивания индикаторов и механизмов мониторинга, что позволяет сформировать подход к точному измерению экологической результативности в сфере услуг.

Ключевые слова: эффективность зеленой трансформации; оценочные индикаторы; отрасли услуг; многокритериальная оценка; энергоэффективность; углеродоемкость; качество услуг

Annotation: This thesis develops conceptual and methodological foundations for assessing green transformation performance in service industries. It proposes an indicator system based on the logic of input, process, output and final impact. Energy efficiency, carbon intensity, resource use, waste reduction, service quality, consumer behavior and regional environmental outcomes are considered as key assessment criteria. The thesis substantiates the need for multi-criteria decision-making methods, indicator weighting and monitoring mechanisms in order to measure environmental performance more accurately. The proposed approach helps align ecological outcomes with service quality, managerial accountability and long-term competitiveness in the service sector.

Keywords: green transformation performance; assessment indicators; service industries; multi-criteria assessment; energy efficiency; carbon intensity; service quality

1. Introduction

The service sector is treated here as a heterogeneous system that includes tourism, hospitality, retail and wholesale trade, transport, logistics, finance, information and communication services, health, education, municipal services and professional business services. Although services are less material-intensive than heavy industry, their environmental impacts arise through buildings, mobility, data infrastructure, procurement, packaging, outsourced operations and customer behavior. This thesis therefore adapts green transformation concepts to the operational realities of services rather than simply transferring industrial policy models.

Performance assessment is a central methodological problem because service organizations often influence emissions indirectly through buildings, travel, procurement, digital platforms and customer choices. A credible system must therefore measure not only operational impacts but also transformation capability, innovation and stakeholder outcomes.

The scientific relevance of this issue is strengthened by the fact that service activities are embedded in everyday consumption, urban mobility, information exchange and public welfare. Consequently, even modest improvements in service delivery can generate cumulative environmental benefits at regional and national scale. The service-sector perspective also helps connect climate policy with employment, innovation, inclusion and consumer behavior, which are often treated as separate policy domains.

2. Conceptual Framework

- **Inputs:** leadership commitment, financial capital, green skills, digital infrastructure, environmental standards and stakeholder pressure.
- **Processes:** energy management, green procurement, waste prevention, service eco-design, digital monitoring and employee training.
- **Outputs:** reduced energy intensity, lower emissions, higher recycling rate, paperless operations, new green services and improved reliability.
- **Outcomes:** environmental improvement, cost savings, customer trust, social inclusion, resilience and competitiveness.

The theoretical contribution of the analysis is the integration of firm-level capabilities, institutional incentives and territorial governance into a single explanatory framework. This is important because green transformation in services cannot be explained only by technology adoption; it also depends on norms, standards, market expectations, customer participation and the capacity of public institutions to coordinate diverse actors.

3. Indicator System

Table 1. Hierarchical indicator system for service-sector green transformation assessment

Dimension	Example indicators	Measurement
Energy efficiency	Energy use per square meter; energy per transaction; share of renewable electricity	kWh/m2; kWh/service unit; %
Carbon intensity	Scope 1+2 emissions; purchased transport emissions; emissions per revenue	tCO2e; tCO2e/USD
Waste and circularity	Waste per customer; recycling rate; packaging reuse; food waste reduction	kg; %; index
Digitalization	Smart meters; data availability; paperless processes; automation for route or demand optimization	index 0-100
Green innovation	New low-carbon services; R&D spending; eco-design pilots; green patents	count; % of revenue

Service quality and inclusion	Customer satisfaction, accessibility, affordability, reliability and green awareness	CSAT; SLA; survey score

Methodologically, the service sector requires a combination of quantitative and qualitative tools. Quantitative indicators provide comparability and accountability, while qualitative evidence explains organizational routines, stakeholder expectations and contextual constraints. A mixed-method approach is therefore more appropriate than a single metric, especially where impacts are indirect, intangible or distributed across supply chains.

4. Methodology

The recommended methodology combines normalization of indicators, stakeholder-based weighting, multi-criteria decision-making, sensitivity analysis and qualitative validation. Quantitative indicators reveal performance differences, while interviews and case analysis explain why some organizations transform faster than others. This mixed approach reduces the risk of treating green transformation as a narrow technical exercise.

Methodologically, the service sector requires a combination of quantitative and qualitative tools. Quantitative indicators provide comparability and accountability, while qualitative evidence explains organizational routines, stakeholder expectations and contextual constraints. A mixed-method approach is therefore more appropriate than a single metric, especially where impacts are indirect, intangible or distributed across supply chains.

5. Empirical Considerations

Data should be collected from utility bills, procurement systems, transport records, digital platforms, environmental reports and customer surveys. For SMEs, simplified scorecards may be more realistic than full carbon accounting. For public services, equity and access indicators should be integrated with environmental indicators so that cost savings do not undermine service quality.

For the service sector, this issue should be analyzed across operational, organizational and territorial dimensions. Operational measures reduce direct impacts; organizational measures build capabilities; and territorial measures ensure that individual actions are supported by infrastructure, standards and collective governance.

6. Conclusion

Assessment should be designed as a learning system. It must help organizations identify weak points, compare alternatives, allocate investment and communicate progress transparently. The proposed framework makes green transformation measurable without ignoring the intangible and relational characteristics of services.

The broader implication is that green transformation should be understood as a continuous learning process. Targets and indicators are necessary, but they should be combined with feedback mechanisms, stakeholder dialogue and periodic

revision of policies. This adaptive approach is especially important in services, where technologies, customer expectations and business models change rapidly.

References

International Energy Agency (IEA). (2025). Buildings: Energy System. IEA.

United Nations Environment Programme (UNEP). (2025). About green economy. UNEP.

World Bank. (2024). Services, value added (% of GDP). World Development Indicators.

OECD. (2023). Green growth and sustainable development: Policy frameworks and indicators. OECD Publishing.

IPCC. (2022). Climate Change 2022: Mitigation of Climate Change. Cambridge University Press.

Ellen MacArthur Foundation. (2019). Completing the Picture: How the Circular Economy Tackles Climate Change.

UN Tourism. (2023). Measuring the Sustainability of Tourism. UN Tourism.

ISO. (2015). ISO 14001: Environmental management systems - Requirements with guidance for use. International Organization for Standardization.

ISHSIZLIK VA UNING IQTISODIY OQIBATLARI

Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti mustaqil izlanuvchisi
University of innovation technology
Moliya va iqtisodiyot kafedrasi assistent-o'qituvchisi
+998932616661
dildorahaydarjonovna@gmail.com
Baxriddinov Diyorbek Baxriddin o`g`li
University of innovatision technology talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari va uning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri kompleks tahlil qilingan. Ishsizlikning turli shakllari (friktsion, strukturali, siklik), uning iqtisodiy o'sish sur'atlariga, ijtimoiy barqarorlikka hamda davlat byudjetiga bo'lgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston moliya va mehnat bozoridagi zamonaviy tendensiyalar o'rganilib, ishsizlik darajasini kamaytirish, aholini samarali ish bilan ta'minlash hamda mehnat bozori infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ishsizlik, iqtisodiy oqibatlar, mehnat bozori, ijtimoiy barqarorlik, tarkibiy ishsizlik, yoshlar bandligi, davlat siyosati.

Аннотация: В данной статье анализируются экономические последствия безработицы и ее влияние на развитие общества. Рассматриваются различные формы безработицы (фрикционная,

структурная, циклическая), ее влияние на темпы экономического роста, социальную стабильность и государственный бюджет. Также изучены современные тенденции на рынке труда Узбекистана, разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на снижение уровня безработицы, обеспечение эффективной занятости населения и совершенствование инфраструктуры рынка труда.

Ключевые слова: безработица, экономические последствия, рынок труда, социальная стабильность, структурная безработица, занятость молодежи, государственная политика.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the economic consequences of unemployment and its negative impact on social development. The different forms of unemployment (frictional, structural, cyclical), its effects on economic growth rates, social stability, and the state budget are highlighted. In addition, modern trends in the financial and labor markets of Uzbekistan are studied, and scientific and practical proposals and recommendations aimed at reducing the unemployment rate, ensuring effective employment, and improving the infrastructure of the labor market are developed.

Keywords: unemployment, economic consequences, labor market, social stability, structural unemployment, youth employment, government policy.

Kirish. Ishsizlik — har qanday iqtisodiy tizimning samarali ishlashini baholashda eng muhim makroiqtisodiy indikatorlardan biri bo‘lib, uning yuqori darajasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavf tug‘diradi. Mehnat resurslaridan to‘liq foydalanmaslik yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmining potentsial darajadan past bo‘lishiga va jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida, xususan, keyingi o‘n yillikda aholi bandligini ta’minlash va mehnat bozorini tartibga solish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid qator farmon va qarorlari, xususan, mehnat munosabatlarini takomillashtirish, yangi barqaror ish o‘rinlarini yaratish, aholini tadbirkorlikka jalb qilish hamda ishsiz qatlamni kasb-hunarga qayta tayyorlash tizimini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Hukumat tomonidan qabul qilingan maqsadli dasturlar doirasida kichik biznes subyektlariga soliq va kredit imtiyozlarining berilishi mehnat bozoridagi taranglikni yumshatishga xizmat qilmoqda.

Mazkur islohotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ishsizlikning tarkibiy qismlarini o‘rganish, uning oqibatlarini iqtisodiy modellar asosida baholash va davlatning faol bandlik siyosatini modernizatsiya qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

ASOSIY QISM VA METODOLOGIYA

Ishsizlik iqtisodiy tushuncha sifatida mehnat qilish istagi va qobiliyatiga ega bo‘lgan, biroq o‘ziga munosib ish joyi topa olmayotgan iqtisodiy faol aholining bir

qismini anglatadi. Makroiqtisodiyot nazariyasida ishsizlik kelib chiqish sabablari va davomiyligiga ko‘ra uchta asosiy shaklga bo‘linadi:

- **Friktsion ishsizlik:** Ishchilarning o‘z xohishi bilan bir ish joyidan ikkinchisiga o‘tishi, yashash joyini o‘zgartirishi yoki oliy ta’limni bitirib, ilk bor ish qidirishi bilan bog‘liq vaqtinchalik holat. Bu tabiiy jarayon bo‘lib, iqtisodiyot uchun xavfli hisoblanmaydi.
- **Strukturali (tarkibiy) ishsizlik:** Texnik taraqqiyot va iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida mehnat resurslariga bo‘lgan talab tarkibi bilan taklif tarkibi o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Masalan, ishlab chiqarishning raqamlashtirilishi yoki avtomatlashtirilishi oqibatida ayrim kasb egalariga bo‘lgan talabning yo‘qolishi. O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish jarayonida ushbu turdagi ishsizlik dolzarb hisoblanadi.
- **Siklik ishsizlik:** Iqtisodiy siklning pasayishi, yalpi talabning kamayishi va ishlab chiqarish inqirozlari davrida yuzaga keladigan ishsizlikdir. Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar va xalqaro bozordagi xomashyo narxlarining tebranishi milliy iqtisodiyotlarda siklik ishsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ishsizlikning salbiy iqtisodiy oqibatlari:

- **YIM yo‘qotishlari (Ouken qonuni):** Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan oshganda, mamlakat iqtisodiyoti o‘z salohiyatidan to‘liq foydalana olmaydi va ishlab chiqarish hajmi pasayadi.
- **Davlat byudjetiga yukning ortishi:** Bir tomondan, ishsizlar soni ortishi sababli davlat byudjetiga tushadigan daromad solig‘i va ijtimoiy to‘lovlar hajmi kamayadi. Ikkinchi tomondan, davlat tomonidan ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy yordamlar va bandlik dasturlariga ajratiladigan xarajatlar yuklamasi ortadi.
- **Inson kapitalining qadrsizlanishi:** Uzoq muddat ishlamaslik oqibatida mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalari va malakasi eskiradi, bu esa kelgusida ularning mehnat unumdorligini pasaytiradi.

Mehnat bozorining statistik tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik vazirligi va Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda mamlakatda ishsizlik darajasini bir xonali ko‘rsatkichda saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, 2023-yil yakunlari bo‘yicha respublikada ishsizlik darajasi o‘rtacha **9-10%** atrofini tashkil etgan. Biroq mehnat bozorida tarkibiy nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda:

1. Yoshlar ishsizligi: 16-30 yoshgacha bo‘lgan aholi qatlami o‘rtasida ishsizlik ko‘rsatkichlari umumiy iqtisodiyotga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, ayrim hududlarda **20% dan** oshadi. Bu oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimining mehnat bozori talablari bilan to‘liq integratsiyalashmaganligini ko‘rsatadi.

2. Hududiy nomutanosiblik: Qishloq joylarida demografik o‘sish sur’atining yuqoriligi va sanoat ob’ektlarining kamligi sababli ishsizlik shahar markazlariga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Qishloq xo‘jaligida mavsumiylik omili ham yashirin ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Davlat tomonidan ko‘rilayotgan faol choralar natijasida har yili yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Ayniqsa, o‘zini ozi band qilish tizimining joriy etilishi, tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash orqali norasmiy mehnat sektorini legallashtirish choralari o‘z samarasini bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishsizlik nafaqat sof iqtisodiy zarar keltiruvchi, balki jamiyatda jinoyatchilikning ortishi, ijtimoiy tushkunlik va aholi turmush darajasining pasayishiga sabab bo‘luvchi destruktiv omildir. O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va ishsizlikning salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. **Yoshlar bandligini ta’minlashning innovatsion mexanizmlari:** Oliy va professional ta’lim muassasalarida "Dual ta’lim" tizimini to‘liq joriy etish, talabalarning amaliyot qismini bevosita bo‘lajak ish joylarida tashkil qilish. Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun startap loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish.
2. **Kadrlar qayta tayyorlash (Reskilling) tizimini raqamlashtirish:** Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan IT, raqamli marketing, "yashil iqtisodiyot" va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha qisqa muddatli bepul kasb-hunar kurslarini (masalan, "Monomarkazlar" tarmog‘ini) hududlarda yanada kengaytirish.
3. **Qishloq joylarida infratuzilmani rivojlantirish:** Agroklasterlar qoshida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi kichik sanoat korxonalarini tashkil etish orqali qishloq aholisi bandligini mavsumiylikdan doimiylikka o‘tkazish.
4. **Mehnat bozorini moslashtirish va rag‘batlar tizimi:** Masofadan turib ishlash (frilans) va moslashuvchan ish vaqti rejimlarini huquqiy tartibga solish, xotin-qizlar va imkoniyati cheklangan shaxslarni ishga qabul qilgan korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkalarini pasaytirish kabi iqtisodiy rag‘batlarni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. *Ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi materiallari*. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021–2023-yillarda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari va normativ hujjatlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Mehnat va bandlik sohasidagi yillik statistik to‘plami*. – Toshkent, 2023.
4. Xodjayev S. *Ishsizlik va mehnat bozori: tahlil va takliflar*. O‘zbekiston iqtisodiyoti va mehnat bozoriga oid ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021.

5. Qo‘chqorov A.T. *Ishsizlik va uning iqtisodiy oqibatlari* // O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali. – 2019. – №2. – B. 33-40.
6. Shodmonov M.B. *Ishsizlikni kamaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish usullari*. Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida amaliy tadqiqotlar. – Toshkent, 2020.
7. World Bank. *World Bank Report on Unemployment and Economic Growth in Central Asia*. – Washington D.C.: World Bank Group, 2022.
8. ILO (International Labour Organization). *Global Employment Trends for Youth 2021: Laying the foundations for a better future*. – Geneva: ILO, 2021.
9. UNDP. *Human Development Report 2023: Towards an inclusive society*. – New York: UNDP, 2023.
10. Mamatov U.F. *O‘zbekistondagi ish bilan ta’minlash va ishsizlik masalalari: tahlil va yechimlar*. – Toshkent, 2018.

DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGI VA UNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti mustaqil izlanuvchisi
University of innovation technology
Moliya va iqtisodiyot kafedrasi assistent-o’qituvchisi
+998932616661
dildorahaydarjonovna@gmail.com
Salimov Elyor Eldor o‘g‘li
University of innovatision technology talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budjeti taqchilligining iqtisodiy mohiyati, uning yuzaga kelish sabablari hamda tarkibiy moliyalashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi misolida budjet taqchilligini kamaytirishga qaratilgan fiskal va soliq siyosati choralarining samaradorligi o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda o‘tish davri iqtisodiyoti sharoitida budjet barqarorligini ta’minlash hamda davlat qarzini maqbul darajada saqlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, budjet taqchilligi, iqtisodiy inqiroz, soliq siyosati, inflyatsiya, makroiqtisodiy barqarorlik, davlat qarzi, fiskal konsolidatsiya.

Аннотация: В данной статье проанализированы экономическая сущность дефицита государственного бюджета, причины его возникновения и механизмы финансирования. На примере Республики Узбекистан изучена эффективность мер фискальной политики, направленных на сокращение бюджетного дефицита. Также разработаны практические предложения по

обеспечению устойчивости бюджета и поддержанию государственного долга на оптимальном уровне в условиях переходной экономики.

Ключевые слова: государственный бюджет, инфраструктура, экономическое развитие, дефицит бюджета, экономический кризис, налоговая политика, инфляция, макроэкономическая устойчивость, государственный долг.

Abstract: This article analyzes the economic essence of the state budget deficit, the causes of its occurrence, and financing mechanisms. Using the example of the Republic of Uzbekistan, the effectiveness of fiscal policy measures aimed at reducing the budget deficit has been studied. In addition, practical recommendations for ensuring budget stability and maintaining public debt at an optimal level in a transition economy have been developed.

Keywords: state budget, infrastructure, economic development, budget deficit, economic crisis, tax policy, inflation, macroeconomic stability, public debt.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (26.12.2013-y., O‘RQ-360-son) davlat budjetini shakllantirish, ijro etish va nazorat qilishning huquqiy tartibini belgilaydi. Davlat budjeti mamlakat iqtisodiyotining markaziy va boshqaruvchi tarmog‘i bo‘lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy daromadlari va xarajatlarini strategik rejalashtirish vazifasini bajaradi. Budjet resurslari orqali ta’lim, sog‘liqni saqlash, mudofaa, aholini ijtimoiy himoya qilish va yirik infratuzilma sohalari izchil moliyalashtiriladi. Shu sababli davlat budjeti iqtisodiy rivojlanish va jamiyat farovonligini ta’minlashda yetakchi mexanizm hisoblanadi.

2024–2025-yillarda O‘zbekistonda davlat budjeti taqchilligini kamaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli fiskal islohotlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 4 foizini tashkil etdi. Xalqaro moliya institutlari tavsiyalari hamda milliy iqtisodiy maqsadlardan kelib chiqib, 2025-yilda ushbu ko‘rsatkichni YaIMga nisbatan 3 foizgacha kamaytirish va fiskal konsolidatsiyani kuchaytirish rejalashtirilgan.

ASOSIY QISM VA MUHOKAMA

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, budjet taqchilligi davlat xarajatlarining budjet daromadlaridan ortib ketishi natijasida shakllanadigan murakkab makroiqtisodiy nomutanosiblik hisoblanadi. Bu holat tizimli iqtisodiy inqiroz, tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining pasayishi, soliq bazasining qisqarishi yoki aksincha, davlatning ijtimoiy majburiyatlari va investitsion xarajatlarining keskin ortishi sababli paydo bo‘lishi mumkin. Budjet taqchilligi uzoq muddat davom etsa va tartibga solinmasa, u davlat qarzining uzluksiz oshishiga, pul massasining ko‘payishi orqali inflyatsiyaning kuchayishiga hamda makroiqtisodiy barqarorlikning buzilishiga olib keladi.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2025-yil uchun mamlakatimiz davlat budjeti daromadlari 502,6 trillion so‘m, xarajatlari esa 541,7 trillion so‘m etib

belgilangan bo‘lib, kutilayotgan budjet taqchilligi qariyb 39,1 trillion so‘mni tashkil qilmoqda. Shuningdek, joriy moliyaviy davrning oraliq hisobotlariga ko‘ra, birinchi yarim yillikda budjet taqchilligi ko‘rsatkichi vaqtinchalik omillar ta’sirida 32,6 trillion so‘mga yetgani qayd etilgan bo‘lib, yil yakuniga qadar uni muvozanatlash choralari ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi "Soliq va budjet siyosatining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi PQ-4938-sonli qarori soliq tizimini soddalashtirish, budjet daromadlarini oshirish va fiskal barqarorlikni ta’minlashda muhim huquqiy asos bo‘ldi. Fiskal siyosat orqali davlat soliq ma’muriyatchiligini takomillashtiradi. Soliq tizimining samarali ishlashi va "yashirin iqtisodiyot" ulushining kamaytirilishi budjetga tushumlarni ko‘paytiradi hamda real iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.



1-rasm. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish mexanizmlari strukturasi

Moliyaviy va fiskal siyosatning muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali soliq bazasi kengayadi, natijada davlat daromadlari ortib, budjet balansi yaxshilanadi.

Aksincha, tarkibiy muammolar mavjud bo‘lganda yoki kutilmagan eksogen shoklar (tabiiy ofatlar, global pandemiyalar va geosiyosiy inqirozlar) yuzaga kelganda davlat qo‘shimcha ijtimoiy va kompensatsion mablag‘lar sarflashga majbur bo‘ladi va bu taqchillikni chuqurlashtiradi. Davlat qarzi ko‘rsatkichi ham

budjet balansi bilan chambarchas bog‘liqdir. 2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining jami davlat qarzi 37 milliard dollarga yetgan va bu ko‘rsatkich YaIMning 33,2 foizini tashkil etib, xalqaro xavfsiz me’yorlardan (60%) sezilarli darajada past hisoblanadi. 2025-yilda tashqi qarz jalb qilishning yillik cheklangan hajmi 5,5 milliard dollar etib belgilangan bo‘lib, uning 3 milliard dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat budjeti taqchilligini qoplashga va makroiqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmonida ham budjet barqarorligi hamda yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlash eng ustuvor vazifa qilib belgilangan. Hukumat tomonidan olib borilayotgan izchil fiskal siyosat va davlat xarajatlarini raqamlashtirish orqali maqsadli nazorat qilish natijasida 2025-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotining real o‘sishi 6 foiz atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Soliqlarning adolatli shaklda undirilishi va fiskal yukning muvozanatlanishi milliy iqtisodiyot tarkibidagi tarkibiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti taqchilligini maqbul makroiqtisodiy darajada saqlash va uni moliyalashtirishda inflyatsion xavfi past bo‘lgan g‘aznachilik majburiyatlari hamda uzoq muddatli tashqi imtiyozli kreditlardan unumli foydalanish lozim. Kelgusida O‘zbekistonda budjet barqarorligini yanada mustahkamlash uchun soliq bazasini kengaytirish, davlat xarajatlarining natijadorligini (auditini) oshirish, soliq imtiyozlarini optimallashtirish va davlat qarzini boshqarishning strategik monitoring tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr, O‘RQ–360-son.
2. “Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, PF–5468-son Farmoni.
3. Musayev A. *Soliq tizimi nazariyasi*. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Qodirov A. *Fiskal siyosat asoslari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Jo‘rayev A., Tursunov B. *Soliqlar va soliqqa tortish*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

GREEN TRANSFORMATION OF THE HOTEL INDUSTRY IN THE DIGITAL AGE: URGENT ISSUES AND SOLUTIONS

Zhao Ying
Silk Road International University of
Tourism and Cultural Heritage
Mustaqil izlanuvchilik(PhD)
Turizm va mehmonxona faoliyati
+8613672023212 407322248@qq.com

Annotations. This article examines the four aspects of the digital transformation in the business field during recent years: technological integration factors, digital consciousness investigation, growth of gray capital and evaluation of flexibility. Suggested methods for a four-sided cooperation system are based on the existing empirical literature.

This paper investigates four important problems in the green transformation of the hotel industry in the information era: technical integration obstacles, digital trust dilemma, lack of green human resources and performance evaluation discrepancies. Based on the relevant empirical studies from abroad, a four-level cooperative solution structure including technology, organization, market and institution is suggested.

Аннотация. В данной статье анализируются четыре актуальные проблемы зеленой трансформации гостиничной индустрии в цифровую эпоху: барьеры технологической интеграции, кризис цифрового доверия, дефицит зеленого человеческого капитала и пробелы в измерении эффективности. На основе международной эмпирической литературы предложена четырехслойная система совместных решений, охватывающая технологию, организацию, рынок и институты.

Kalit so'zlar: yashil mehmonxona; raqamli transformatsiya; sun'iy intellekt; Internet of Things; yashil marketing; yashil sertifikat

Key words: green hotel; digital transformation; artificial intelligence; Internet of Things; green marketing; green certification

Ключевые слова: зеленый отель; цифровая трансформация; искусственный интеллект; интернет вещей; зеленый маркетинг; зеленый сертификат

INTRODUCTION

The global hotel industry is confronted with two kinds of challenges, namely the Sustainable Development Goals (SDGs) and the digital technology revolution (AI, IoT, Big Data)[1,2]. Hotels have great influences on the environment because of the high usage of energy and water and the emission of waste; therefore, green measures have become an important matter related to the reputation of the brand and the financial stability, not just a minor problem in corporate social responsibility[3,4]. However, some recent research indicates that the effect of technology adoption on green performance is not direct but is influenced by the

organizational absorptive capacity and the consumer's trust in a complicated way[5,6]. According to a comprehensive review of the international scientific literature, this paper points out the urgent problems in the green transformation of the hotel industry in the era of information technology and puts forward a four-level solution framework.

LITERATURE REVIEW

According to our research, Kim et al.found that it enhances the willingness of customers to pay a higher price and their intention to return to hotels in the U.S[3]. Gupta et al.discovered that five-star hotels in India have better online evaluations and a higher intention to return[4]. Yang et al.indicated that larger and higher-class hotels with good online reputations are more probable to join in green programs[7] .

Furthermore, digital technologies promote environmental friendly practices. Eskerod et al.indicated that Internet of Things enhances energy saving[8]. Kartika et al. established a real-time energy monitoring system[9] . However, Ahmad et al. demonstrated that AI encourages eco-friendly consumption[10], while Chi and Vu cautioned that AI might hinder green innovation because of the concern of being replaced[11] .

Furthermore, conflicts between green marketing and consumer behavior. Yildiz et al. indicated that green labels enhance the purchase intention, while Font et al. discovered that too much information leads to an increase in the perception of greenwashing, which is harmful to the booking[12,13]. Xualso found that the green certification has a twofold effect: it improves the ratings but causes contradictory evaluations, thus increasing the reputation risk for luxury hotels[6].

RESEARCH METHODOLOGY

This research conducts a systematic literature review and a critical comparative analysis. Twenty-five academic papers were chosen from the given literature database.

ANALYSIS AND RESULTS

Based on the literature review, this article identifies four urgent issues.

Incompatibility of technological integration and infrastructure, due to the non-cooperation of Internet of Things (IoT), Artificial Intelligence (AI) and Property Management Systems (PMS) in the old buildings where legacy systems exist, is a difficulty. The importance of technology roadmaps is less than that of digital leadership and regulations for their application[9]. This results in separate implementations and poor strategic cooperation. The high initial expenses particularly obstruct Small and Medium Enterprises (SMEs)[15].

The uncertainty regarding the credibility in digital matters and the abundance of information is present. The common positive evaluations reduce the trust; too much environmental information causes greenwashing[13]. The green certification has two impacts: low-scoring hotels get fewer adverse comments, whereas high-grade chains encounter greater risks[6]. The difference in the hotel's and Online

Travel Agency's (OTA) green policies influences the relationship between environmental problems and the willingness to pay for better services [16].

Lack of green human resources and digital leadership. The implementation of digital strategies affects the performance by enhancing green intellectual capital rather than directly improving it[17]. The application of AI may decrease the employees' self-study and green innovations because of the fear of job loss [11]. Digital leadership contributes to the sustainable advantage by increasing green absorptive capacity and eco-innovations [5], and GDTL also improves the performance through the circular economy[18]. Nevertheless, there is a serious shortage of personnel who possess both digital and environmental management abilities.

There exist some errors in the assessment and distribution of responsibility. A green HR evaluation system has been suggested[19], but its application is limited. Enhancement of efficiency can be accomplished by controlling green information; however, the majority of the hotels use the method of passive data management [20]. The effect of AI and green technologies on the performance is uncertain, which makes it hard to judge the profit return [12]. The lack of uniform standards hinders a fair evaluation and allows for greenwashing.

CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

This document suggests a four-layer structure for hotel green digital transformation according to international experiences.

Technological level: Hotels should install IoT sensors for continuous energy/water measurement, apply AI chatbots and Avatar-based training to promote environmental friendly habits, and combine the systems to eliminate isolation.

Organisational level: Prioritize the development of green human and relational capital instead of hardware. Incorporate green digital transformation indicators into the KPIs and apply AI-assisted training to reduce employees' concern about technology.

Market level:Adopt reliable third-party attestations and maintain uniform green assertions on all information channels to prevent inconsistency. Green promotion should emphasize particular, substantiated signs instead of general statements.

Institute level: Set up common green performance standards in various fields by using APIs for data communication. Combine interpretable AI with CSR to guarantee equity and privacy.

In summary, hotel managers ought to consider using scalable IoT systems. The industry and government should assist in the retrofitting and training of small to medium enterprises. Technology suppliers should design components, enable interchangeability and keep the costs low.

REFERENCES

[1]Cao, Y., Xinwen, L. (2025). Longitudinal insights into the industrial IoT-green intellectual capital Nexus in the post-COVID era using SEM-ANN approach. Scientific Reports, 15(1), 36141.
[2]Liu, X.Y., et al. (2024). The evolution of smart hotels: A bibliometric review of the past, present and future trends. Heliyon, 10(4), e26472.
[3]Kim, W.G., Li, J., Han, J.S., Kim, Y. (2015). The influence of recent hotel amenities and green practices on guests' price premium and revisit intention. Tourism Economics, 23(3), 577–593.
[4]Gupta, V., et al. (2022). Are consumers influenced by the use of green practices in five-star hotels? International Journal of Tourism Cities, 9(1), 159–181.
[5]Hussein, H., et al. (2024). Digital leadership and sustainable competitive advantage. Sustainability, 16(13), 5371.
[6]Xu, Z. (2025). The double-edged sword effect of green certification. Journal of Hospitality and Tourism Management, 65, 101342.
[7]Yang, Y., Jiang, L., Wang, Y.W. (2022). Why do hotels go green? Understanding TripAdvisor GreenLeaders participation. International Journal of Contemporary Hospitality Management, 35(5), 1670–1690.
[8]Eskerod, P., et al. (2019). Drivers for pursuing sustainability through IoT technology within high-end hotels. Sustainability, 11(17), 5372.
[9]Kartika, L.G.S., et al. (2019). Green Monitoring System For Energy Saving In Accommodation Services. Conference Paper.
Ahmad, S., et al. (2026). How and when AI-enabled customer experience shapes sustainable consumption in smart hotels. Journal of Retailing and Consumer Services, 89, 104636.
[10]Chi, N.T.K., Vu, N.H. (2026). AI impact on hospitality employees' green creativity. Corporate Social Responsibility and Environmental Management, 1–16.
[11]Yildiz, H., Tahali, S., Trichina, E. (2023). The adoption of the green label by SMEs in the hotel sector. Journal of Enterprise Information Management, 37(5), 1627–1657.
[12]Font, X., et al. (2025). Sustainability information overload. Journal of Hospitality and Tourism Management, 62, 196–204.
[13]Zheng, D., et al. (2025). Adoption of AI-powered technologies for food upcycling in green hotels. British Food Journal, 1–22.
[14]Seow, A.N., et al. (2025). Sustainable business performance of SMEs in green hotels. Cogent Business & Management, 12(1), 2526144.
[15]Wei, C.H., et al. (2023). Paying a premium for green-label hotels: The role of the mismatched hotel-OTA involvement. Journal of Hospitality & Tourism Research, 48(4), 595–606.
[16]Yang, C., Chen, W.J., Liu, J.J. (2026). The impact of digital strategy on green intellectual capital. International Journal of Hospitality Management, 135, 104628.
[17]Elshaer, I.A., et al. (2025). Driving sustainability performance in hotels through green digital leadership and circular economy. Systems, 13(6), 415.

[18]Shen, L.L. (2022). The performance evaluation model of hotel green human resources based on internet of things and fuzzy theory. Mobile Information Systems, 2022, 1–12.
[19]Patwary, A.K., et al. (2024). Measuring sustainable business performance in Malaysian hotels. International Journal of Hospitality Management, 123, 103935.
[20]Kocak, E., Alnour, M. (2025). Adaptation to technological and environmental shifts in tourism. Tourism Economics, 1–10.
[21]Hao, F., et al. (2024). Technology for sustainability: the impact of Avatar-led Green Training. International Journal of Contemporary Hospitality Management, 37(1), 140–160.
[22]Assaker, G., O'Connor, P. (2023). The importance of green certification labels in online hotel booking choice. Cornell Hospitality Quarterly, 64(4), 401–414.
[23]Patwary, A.K., et al. (2025). Sustainable leadership in the hospitality industry. International Journal of Hospitality & Tourism Administration, 1–21.
[24]Chen, X., et al. (2026). Integrating explainable AI and corporate social responsibility. Technological Forecasting and Social Change, 223, 124444.

BIZNES JARAYONLARINI TADQIQ QILISHDA IJTIMOIY SO‘ROVLAR O‘TKAZISH

Abdullayeva Zulfiya Izzatovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi PhD dotsent
Otonazarov Shoxzodbek
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada biznes jarayonlarini tadqiq qilishda ijtimoiy so‘rovlarning nazariy asoslari, amaliy metodologiyasi va tatbiq etish imkoniyatlari keng ko‘lamda o‘rganilgan. So‘rov metodlarining tasnifi, anketalashtirish, chuqur intervyu va fokus-guruh texnikalarining biznes tahlilida tutgan o‘rni hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llari yoritilgan. O‘zbekiston biznes muhitida o‘tkazilgan so‘rovlar tajribasi va ularning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati statistik ma'lumotlar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy so‘rov, anketa, fokus-guruh, chuqur intervyu, bozor tadqiqoti, iste'molchi xulq-atvori, biznes tahlili, sifatli va miqdoriy metodlar

Аннотация. В данной научной статье всесторонне исследуются теоретические основы, практическая методология и возможности применения социальных опросов в изучении бизнес-процессов. Освещены классификация методов опроса, роль анкетирования, глубинных интервью и техник фокус-групп в бизнес-анализе, а также пути их эффективного использования. На основе статистических данных проанализирован опыт проведения опросов в бизнес-среде Узбекистана и их значение для принятия экономических решений.

Ключевые слова: социальный опрос, анкета, фокус-группа, глубинное интервью, исследование рынка, поведение потребителей, бизнес-анализ, качественные и количественные методы.

Abstract. This research article comprehensively examines the theoretical foundations, practical methodology, and application potential of social surveys in the study of business processes. It highlights the classification of survey methods, the role of questioning, in-depth interviews, and focus group techniques in business analysis, alongside avenues for their effective utilization. Furthermore, the experience of conducting surveys within the business environment of Uzbekistan and their significance in economic decision-making are analyzed based on statistical data.

Keywords: social survey, questionnaire, focus group, in-depth interview, market research, consumer behavior, business analysis, qualitative and quantitative methods.

KIRISH

Zamonaviy raqobat muhitida muvaffaqiyatli biznes yuritish uchun bozor ishtirokchilari — iste'molchilar, hamkorlar va xodimlar — haqida to‘liq va ishonchli ma'lumotga ega bo‘lish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar o‘z mahsulot va xizmatlarini takomillashtirish, yangi segmentlarni aniqlash hamda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tizimli tadqiqotlar o‘tkazishga ehtiyoj sezmoqda. Aynan shu zaruriyat ijtimoiy so‘rovlarni biznes tahlilining eng keng tarqalgan va samarali vositalaridan biriga aylantirgan.

Ijtimoiy so‘rov metodologiyasi sotsiologiya, psixologiya va statistika fanlari kesishmasida shakllangan bo‘lib, u keyinchalik marketing, boshqaruv va iqtisodiyot sohasiga moslashtirilgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar tufayli onlayn so‘rovlar, sun'iy intellektga asoslangan tahlil tizimlari va real vaqt rejimidagi ma'lumot yig'ish imkoniyatlari biznes tadqiqotlarining yangi bosqichini boshlab bergan. Dunyo bo‘yicha biznes-tadqiqotlar bozori hajmi 2023 yilda 81 milliard dollardan oshganligining o‘zi ushbu sohaga bo‘lgan talabning qanchalik ulkanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda biznes tadqiqotlariga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortgan. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish dasturlari, xususiy sektorning kengayishi va raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari korxonalarni bozorni chuqurroq o‘rganishga undamoqda. Shu bilan birga, mamlakatda ijtimoiy so‘rov metodologiyasidan professional darajada foydalanish hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, ushbu yo‘nalishda ilmiy-metodologik ishlanmalar talab etilmoqda. Maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Biznes tadqiqotlarida qo‘llaniladigan ijtimoiy so‘rovlar ikki katta metodologik guruhga bo‘linadi: sifatli (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) metodlar. Miqdoriy metodlar raqamli ma'lumotlar yig'ish va statistik tahlil qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, katta auditoriyani qamrab olish imkonini beradi. Sifatli

metodlar esa respondentlarning chuqur fikrlari, motivlari va his-tuyg'ularini aniqlashga yo‘naltirilgan. Zamonaviy biznes tadqiqotlarida ushbu ikki yondashuvning uyg'unlashtirilgan (mixed-methods) varianti tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda, chunki u bir-birining kamchiliklarini qoplaydi va natijalarning ishonchliligini oshiradi.

Anketalashtirish (anketa so‘rovi) biznes tadqiqotlarida eng keng tarqalgan miqdoriy metod hisoblanadi. Yaxshi tuzilgan anketa o‘zida turli turdagi savollarni — yopiq (bir yoki bir nechta variant tanlov), ochiq (erkin javob), Likert shkalasi (1 dan 5 gacha baholash) va semantik differentsial savollarni uyg'unlashtiradi. Anketani ishlab chiqishda bir qator metodologik talablarga rioya qilish zarur: savollar bir ma'noli va tushunarli bo‘lishi, yetakchi yoki tarafkash iboralarga yo‘l qo‘yilmasligi, mantiqiy tartib saqlangan bo‘lishi kerak. O‘zbekiston chakana savdo kompaniyalari tajribasiga ko‘ra, to‘g'ri tuzilgan mijoz mamnuniyati anketal so‘rovi asosida amalga oshirilgan o‘zgarishlar takroriy xaridlar sonini 19-24 foizga oshirgan.

Chuqur intervyu (in-depth interview) sifatli tadqiqot metodlarining eng samarali turlaridan biri bo‘lib, u tadqiqotchi va respondent o‘rtasida yakkama-yakka o‘tkaziladigan, yarim tuzilmali yoki erkin muloqotga asoslangan suhbatni nazarda tutadi. Bu metod, ayniqsa, yangi mahsulotni bozorga chiqarishdan oldin maqsadli auditoriyaning chuqur ehtiyojlarini, xarid qarorini qabul qilish jarayonini va mahsulotga munosabatini aniqlashda beqiyos. Iste'molchi psixologiyasini tushunishda intervyu so‘rovidan foydalangan Toshkentdagi mobil ilova kompaniyasi foydalanuvchi interfeysi dizaynini to‘liq qayta ko‘rib chiqib, ilova yuklanishi sonini 3 oy ichida 40 foizga oshirishga erishgan.

Fokus-guruh (focus group) — 6 dan 12 gacha kishidan iborat maxsus tanlangan respondentlar guruhining moderator rahbarligida o‘tkaziladigan muhokamasi bo‘lib, u miqdoriy so‘rovda ko‘rinmagan ijtimoiy va psixologik omillarni yuzaga chiqarish imkonini beradi. Guruh dinamikasi, o‘zaro fikr almashish jarayoni va norasmiy muhit respondentlarning haqiqiy munosabatini ochib beradi. Fokus-guruh metodologiyasi, ayniqsa, brend qiyofasini baholash, reklama materiallarini sinab ko‘rish va yangi konsepsiyalarni test qilishda samarali. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida mahsulot qadoqlanishi konsepsiyasini sinashda fokus-guruhdan foydalanilgan holda bir yil ichida savdo hajmini 31 foizga oshirish natijalari qayd etilgan.

Onlayn so‘rovlar (web-based surveys) raqamli texnologiyalar davriga xos bo‘lgan yangi imkoniyat bo‘lib, xarajatlarni kamaytirish, geografik chegaralarni bartaraf etish va ma'lumot yig'ish tezligini oshirish jihatlaridan an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega. Google Forms, SurveyMonkey, Typeform kabi platformalar yordamida o‘tkaziladigan onlayn so‘rovlar bir necha soat ichida yuzlab respondentlardan ma'lumot to‘plash imkonini beradi. O‘zbekistonda internet foydalanuvchilar sonining 2023 yilda 24 million kishiga yetishi onlayn so‘rovlarning biznes muhitida tatbiq etilish doirasini sezilarli

kengaytirgan. Biroq, onlayn so‘rovlarda tanlanma xatosi (selection bias) muammosi alohida metodologik nazorat talab qiladi.

So‘rov natijalarining sifati ko‘p jihatdan tanlanma (namuna) to‘g'ri shakllantirilganiga bog'liq. Tasodifiy tanlanma, kvota tanlanma va maqsadli tanlanma usullari biznes tadqiqotlari maqsadiga qarab turlicha qo‘llaniladi. Amaliyotda O‘zbekistondagi kichik va o‘rta biznes korxonalarining aksariyati so‘rov o‘tkazishda tanlanma hajmini ilmiy asosda hisoblash o‘rniga qulay respondentlarni tanlash (convenience sampling) bilan chegaralanishi natijalar ishonchliligini pasaytirishi haqida adabiyotlarda qayd etilgan. Shu sababli, tanlanma hajmini to‘g'ri aniqlash uchun statistik formulalar (Cochran formulasi va boshqalar) dan foydalanish tadqiqot sifatini belgilovchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

O‘zbekistonda 2020-2024 yillar davomida turli tarmoqlarda o‘tkazilgan biznes so‘rovlari tahlili qator muhim tendentsiyalarni ko‘rsatmoqda. Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarning 43 foizi mijoz mamnuniyatini o‘lchash maqsadida kamida yillik so‘rovlar o‘tkazgani qayd etilgan. Shu bilan birga, so‘rovlar natijalarini boshqaruv qarorlariga to‘liq integratsiya qilish darajasi atigi 27 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich so‘rovlar o‘tkazish bilan ulardan to‘liq foydalanish o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatib, natijalarni harakatga aylantiruvchi boshqaruv tizimlarini mustahkamlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Raqamli muhitda so‘rov metodologiyasi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan chatbot-intervyular, sensorli ma'lumotlar (sensor data) bilan so‘rov natijalarini uyg'unlashtirish va real vaqt rejimidagi fikr-mulohaza tizimlari (real-time feedback) yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, mijozlar sifatida sotib olish jarayonidagi his-tuyg'ularni yuz ifodalari tahlili va so‘rov ma'lumotlari bilan birlashtirgan yondashuvlar 2023 yildan boshlab O‘zbekistonning yetakchi elektron tijorat platformalarida sinovdan o‘tkazilmoqda. Bu integrasiya an'anaviy so‘rovlar bermaydigan chuqur psixologik ma'lumot olish imkonini bermoqda.

Biroq, ijtimoiy so‘rovlarni biznes tadqiqotlarida qo‘llashda bir qator metodologik va axloqiy muammolar ham mavjud. Respondent holisligi (respondent bias), ijtimoiy maqbullik ta'siri (social desirability bias) va so‘rovdan charchash (survey fatigue) so‘rov ma'lumotlari sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va respondentlar maxfiyligini ta'minlash zamonaviy tadqiqot etikasining asosiy talabi sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda 2022 yilda qabul qilingan shaxsiy ma'lumotlar to‘g'risidagi qonun so‘rovlarni o‘tkazishda yangi muvofiqlik talablarini belgilab bergan va tadqiqotchilar ushbu huquqiy me'yorlarga rioya qilishga majbur.

XULOSA

Ijtimoiy so‘rovlar biznes jarayonlarini tadqiq qilishning universal va ko‘p qirrali vositasi sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Anketalashtirish, chuqur intervyu, fokus-guruh va onlayn so‘rovlar metodlarining har biri o‘ziga xos

imkoniyatlarga ega bo‘lib, ularni maqsadga muvofiq tanlash va uyg'unlashtirish biznes tahlilining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekiston iqtisodiy muhitida so‘rovlardan foydalanish ko‘lami so‘nggi yillarda kengayib borsa-da, ularning metodologik sifati va natijalardan foydalanish darajasi rivojlangan mamlakatlardagidan hali past. Shu sababli, korxonalarda tadqiqot madaniyatini shakllantirish, xodimlarni so‘rov metodologiyasi asoslariga o‘qitish va natijalarni boshqaruv tizimiga integratsiyalash muhim strategik vazifa sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va Big Data imkoniyatlari ijtimoiy so‘rovlarning kelajakdagi rivojlanishida yangi ufqlar ochmoqda. Gibrid metodlar — miqdoriy va sifatli yondashuvlarning uyg'unlashuvi — biznes tadqiqotlarida tobora ustuvor yo‘nalishga aylanib bormoqda. Ushbu tendentsiyaga tayangan holda so‘rov metodologiyasini doimiy takomillashtirish O‘zbekiston korxonalari uchun raqobatdosh afzallik manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy so‘rovlar — bu nafaqat ma'lumot yig'ish vositasi, balki korxona va iste'molchi o‘rtasidagi muloqotni tizimlashtirib, qaror qabul qilish jarayonini ilmiy asosga ko‘chiruvchi strategik mexanizm hisoblanadi. Uni professional darajada tatbiq etish biznes muvaffaqiyatining muhim kafolatlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Babbie, E. (2021). The practice of social research (15th ed.). Boston: Cengage Learning.
2. Bryman, A. (2016). Social research methods (5th ed.). Oxford: Oxford University Press.
3. Churchill, G. A., & Iacobucci, D. (2019). Marketing research: methodological foundations (12th ed.). New York: Cengage.
4. Dillman, D. A., Smyth, J. D., & Christian, L. M. (2014). Internet, phone, mail, and mixed-mode surveys: the tailored design method (4th ed.). New York: Wiley.
5. Ergashev, B., & Tursunov, A. (2022). O‘zbekistonda bozor tadqiqotlarini tashkil etish metodologiyasi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, 6(1), 22–35.
6. Fowler, F. J. (2014). Survey research methods (5th ed.). Thousand Oaks: SAGE Publications.
7. Hamidova, N. (2023). Mijozlar mamnuniyatini o‘lchashning zamonaviy usullari. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy to‘plami, 4(2), 67–79.
8. Kotler, P., & Keller, K. L. (2022). Marketing management (16th ed.). New York: Pearson.

9. Krueger, R. A., & Casey, M. A. (2015). Focus groups: a practical guide for applied research (5th ed.). Thousand Oaks: SAGE.
10. Nozimov, Sh. (2021). Kichik biznesda marketing tadqiqotlari: metodika va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
11. O‘zbekiston Respublikasi. (2022). Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g'risidagi qonun. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
12. Punch, K. F. (2014). Introduction to social research: quantitative and qualitative approaches (3rd ed.). London: SAGE.

XIZMAT KO’RSATISH SOHASINING AHOLI FOROVONLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI

Xudayarova Maftuna Shavkatovna
(+99 893 355 50 45, maftuna.khudayarova.89@gmail.com),
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy kategoriya sifatida turli ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur sohaning yalpi ichki mahsulot o‘sishiga qo‘shayotgan hissasi va xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: Xizmat ko’rsatish sohasi, aholining tadbirkorlik faolligi, aholi forovonligi, servis faoliyati, aholi bandligi, tadbirkorlik faoliyati.

Аннотация: В данной статье анализируется сектор услуг как экономическая категория на основе различных научных и теоретических подходов. Также исследованы вклад данной сферы в рост валового внутреннего продукта и основные направления предпринимательской деятельности в сфере услуг.

Ключевые слова: сектор услуг, предпринимательская активность населения, благосостояние населения, сфера услуг, занятость населения, предпринимательская активность.

Annotation: This article analyzes the service sector as an economic category based on various scientific and theoretical approaches. The contribution of this sector to Gross domestic product growth and the main directions of entrepreneurial activity in the service sector are also studied.

Keywords: Service sector, entrepreneurial activity of the population, population well-being, service activity, population employment, entrepreneurial activity.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, postindustrial iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida

ustun mavqega ega bo‘lib, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi YAIMning asosiy qismini tashkil etadi va iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shu bois, aholining tadbirkorlik faolligini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son, 2018-yil 27-iyundagi ““Yoshlar-Kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son Farmonlari[14], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4231-son, 2018-yil 7-iyundagi ““Har bir oila tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-sonli Qarorlari[15] qabul qilindi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy kategoriya sifatida turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Shunga ko‘ra, dastlab ilmiy manbalardan “xizmat ko‘rsatish”, “xizmat ko‘rsatish sohasi tadbirkorligi” tushunchalariga oid qarashlar o‘rganildi. Ma’lumki, “servis” atamasi xizmat, xizmat ko‘rsatish, yordam tushunchalarini anglatadi.[16] Ilmiy manbalarda keltirilishicha “servis” inglizcha “servise” so‘zidan olingan bo‘lib, “aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish”ni anglatadi[17], “servis – servis (aholiga xizmat ko‘rsatish, xizmat)”, “servis” va “xizmat” tushunchalari bir-biriga hamohang va o‘xshash sinonim so‘zlar sifatida qo‘llaniladi[18]. Mazkur ishlarda “servis” tushunchasi “xizmat”, “xizmat ko‘rsatish” tushunchalari bilan hamohang, o‘xshash, sinonim, bir-birini to‘ldiruvchi va yoki ekvivalent tushunchalar sifatida qaralgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasi tadbirkorlik faoliyati uchun juda qulay jabha hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy adabiyotlarda ushbu sohada tadbirkorlik faoliyatining moxiyatini tushuntiruvchi turli xil talqindagi yondashuvlar uchraydi. Xususan, D.Musinov zamonaviy iqtisodiy tizimda xizmat ko‘rsatish sohasini iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida e’tirof etadi. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy diversifikatsiyani ta’minlaydi, balki aholi bandligini oshirish, daromadlarni ko‘paytirish va turmush darajasini yaxshilashda ham muhim rol o‘ynaydi[19].

---

[14] http://lex.uz
[15] http://lex.uz
[16] Кувандиков Ш.О. Сервис соҳаси тараққиёти ва унда оилавий тадбиркорликнинг ўрни //“Сервис” илмий амалий журнал. 3-махсус сон, 2020. 101-106 б.
[17] Плотников В.А., Иваненко М.Г. Подходы к анализу понятий «сервис» и «услуга». Журнал. Технико-технологические проблемы сервиса №3(33) 2015, стр.70.; Христофорова И.В. Современные подходы к маркетингу услуг // Сервис Plus. 2008. № 1. С. 83-87.
[18] Қудратов Ғ.Ҳ., Пардаев М.Қ., Абдукаримов Б.А. “Сервис ривожи – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириш омили”. Т.: “Fan va tehnologiya” нашриёти, 2007. – 12 б.
[19] Musinov, Dilshod. (2024). Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘sishning institutsional shart-sharoitlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2. 122-127. 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss12-pp122-127.

Shularga ko‘ra, **“xizmat ko‘rsatish sohasida aholining tadbirkorlik faolligi”** tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishga harakat qilindi. Aholining tadbirkorlik faolligini qo’llab-quvvatlash, rivojlantirish va boshqarishga sinergetik yondoshuv tamoyillarini qo’llash asosida unga ta’rif berildi. **Aholining tadbirkorlik faolligi** deganda mavjud ixtiyoridagi resurslariga tayanib, oilasi farovonligini oshirishga qaratilgan harakati (faolligi)ga asoslangan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Bunday yondoshuv natijasida aholining tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash va boshqarish tizimini o’zini-o’zi band etish tamoyillari asosida takomillashuviga erishish mumkin.

2025-yilning yanvar–sentabr oylaridagi dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo‘yicha o‘tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda), ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 722 166,1 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda 14,0 %ga oshdi. Ma’lumot uchun: 2024- yilning yanvar–sentabr oylarida xizmatlar hajmi 580 459,1 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 12,8 %ga o‘sdi **(1-rasm).**



1-rasm. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (yanvar-sentabr, mlrd so‘m)[20]

Xizmat ko‘rsatish sohasi o‘z tarkibiga ko‘ra murakkab va ko‘p tarmoqli tizim hisoblanadi. U transport, aloqa, savdo, moliya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, axborot texnologiyalari kabi turli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyati esa tijorat xizmatlari, ijtimoiy xizmatlar hamda ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi xizmatlar kesimida rivojlanib, iqtisodiy

[20] https://stat.uz/img/news/analitika-09_2025-zb-lotin_p48967.pdf

tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Xizmat ko’rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy modeli[21]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy xulosa qilganda, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sohaning rivojlanishi orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, daromadlar oshadi va turmush darajasi yaxshilanadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal qilish va imkoniyatlardan to‘liq foydalanish orqali xizmatlar sohasining salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin.

Shularga asoslanib quyidagi xulosalar ishlab chiqildi: aholining tadbirkorlik faolligi va uning milliy iqtisodiyotdagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tadbirkorlar sonining ortishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, ishlab chiqarilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining kengayishi, aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik daromadlari ulushining oshishi hamda uy xo‘jaliklarining investitsiyaviy faolligi kabi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘lishi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4231-son. http://lex.uz
2. Кудратов Ғ.Ҳ., Пардаев М.Қ., Абдукаримов Б.А. “Сервис ривожи – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириш омили”. Т.: “Fan va tehnologiya” нашриёти, 2007. – 12 б.

[21] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3. Кувандиков Ш.О. Сервис соҳаси тараққиёти ва унда оилавий тадбиркорликнинг ўрни //“Сервис” илмий амалий журнал. 3-махсус сон, 2020. 101-106 б.
4. Плотников В.А., Иваненко М.Г. Подходы к анализу понятий «сервис» и «услуга». Журнал. Технико-технологические проблемы сервиса №3(33) 2015, стр.70.; Христофорова И.В. Современные подходы к маркетингу услуг // Сервис Plus. 2008. № 1. С. 83-87.

ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СРЕДЫ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ УСЛУГ

Саламов Фаррух Фаттоевич
и.о.доцент кафедры “Экономическая теория”
Самаркандского института экономики и сервиса.
E-mail: farrux_sies@mail.ru
Ашуров Сардоржон
Магистр 1-ого курса группы МИ-225
E-mail: sardorashurov198@gmail.com

Аннотация. В статье исследуется влияние макроэкономической среды на эффективность малого предпринимательства в сфере услуг. На примере Самаркандской области анализируются ключевые факторы — инфляция, налоговая политика, кредитование и валютный курс — и предлагаются меры государственной поддержки.
Ключевые слова: макроэкономическая среда, малое предпринимательство, сфера услуг, эффективность бизнеса, инфляция, налоговая политика, кредитование, Самаркандская область.

Annotatsiya. Maqolada makroiqtisodiy muhitning xizmat ko’rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik samaradorligiga ta’siri o’rganiladi. Inflyatsiya, soliq siyosati, kreditlash va valyuta kursi omillari tahlil qilinib, davlat qo’llab-quvvatlash choralari tavsiya etiladi.
Kalit so'zlar: makroiqtisodiy muhit, kichik tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasi, biznes samaradorligi, inflyatsiya, soliq siyosati, kreditlash, Samarqand viloyati.

Abstract. This article examines the influence of the macroeconomic environment on the efficiency of small business entities in the service sector. Using the Samarkand region as a case study, key factors — inflation, tax policy, credit availability, and exchange rate — are analyzed, and state support measures are proposed.
Keywords: macroeconomic environment, small entrepreneurship, service sector, business efficiency, inflation, tax policy, lending, Samarkand region.

Введение

Малое предпринимательство обеспечивает занятость населения и формирование налоговых поступлений: его доля в ВВП Узбекистана превышает 55%. Особое место занимает сфера услуг, динамично развивающаяся в условиях рыночных преобразований. Вместе с тем эффективность малых предприятий напрямую зависит от состояния макроэкономической среды — совокупности внешних условий, формируемых общеэкономической политикой государства.

Основная часть

Макроэкономическая среда представляет собой совокупность внешних условий, оказывающих системное воздействие на деятельность хозяйствующих субъектов. Для малого предпринимательства в сфере услуг можно выделить несколько ключевых факторов. Инфляция на уровне 10–12% ведёт к росту издержек — аренды, расходных материалов и заработной платы — при ограниченных возможностях повышения цен. Налоговые реформы (снижение НДС до 12%, упрощённый режим) улучшили условия, однако административная нагрузка на малые предприятия остаётся значительной. Высокие процентные ставки сдерживают инвестиции, а льготные программы через Фонд поддержки предпринимательства охватывают лишь часть субъектов. Самаркандская область, как крупнейший туристический центр страны с объектами ЮНЕСКО, располагает более 18 000 субъектов малого бизнеса, 40% из которых заняты в сфере услуг. Туристический поток в 1,5 млн человек в год формирует устойчивый спрос, однако сезонность доходов и валютные колебания создают дополнительные риски. Девальвация сума повышает конкурентоспособность туристического продукта, но удорожает импортное оборудование. Таким образом, влияние макроэкономической среды на малый бизнес носит многоаспектный характер и требует целенаправленного регулирования.

Заключение

Проведённый анализ свидетельствует о том, что макроэкономическая среда оказывает существенное воздействие на эффективность субъектов малого предпринимательства в сфере услуг. Инфляционное давление, условия кредитования, налоговая нагрузка и динамика валютного курса во многом определяют конкурентоспособность малого бизнеса. Для повышения эффективности малых предприятий Самаркандской области целесообразно расширить доступ к льготным кредитным программам, снизить административную нагрузку и обеспечить стабильность макроэкономической политики. Дальнейшие исследования будут направлены на разработку механизмов адаптации малых предприятий к изменениям макроэкономической среды и оценку эффективности государственных программ поддержки.

Список использованной литературы.
1. Mahmudov M.F. Industrial tashkilotlar. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2021. - 202 b.
2. Mahmudov M.F., Madraximova G.R. Ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2022. - 234 b.
3. Shadiyeva G. Industrial tashkilotlar. Darslik. SamISI, Samarqand: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2022. - 288 bet.
4. Шавқиев Э. Индустриал иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. Самарқанд: “STEP-SEL” МЧЖ. Нашриёти, 2024. - 450 бет.

ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ КЛАСТЕРНОЙ МОДЕЛИ В СФЕРЕ УСЛУГ

Саламов Фаррух Фаттоевич
и.о.доцент кафедры “Экономическая теория”
Самаркандского института экономики и сервиса.
E-mail: farrux_sies@mail.ru
Нуриддинова Умида Бобохоновна
Магистр группы МИ-225
Самаркандский институт экономики и сервиса
Телефон: +998933350554
E-mail: nuriddinovaumida@gmail.com

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы оценки экономической эффективности кластерной модели в сфере услуг. Проведен анализ основных факторов, влияющих на развитие кластеров, таких как кооперация предприятий, инновационная активность и рациональное использование ресурсов. Обоснована роль кластерной модели в повышении конкурентоспособности сферы услуг, снижении издержек и улучшении качества предоставляемых услуг.
Ключевые слова: кластерная модель, сфера услуг, экономическая эффективность, конкуренция, кооперация, инновации, издержки, развитие экономики.

Annotatsiya. Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida klaster modelining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari ko‘rib chiqilgan. Korxonalar kooperatsiyasi, innovatsion faollik va resurslardan oqilona foydalanish kabi klasterlar rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Xizmat ko‘rsatish sohasi raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashda klaster modelining roli asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: klaster modeli, xizmat ko‘rsatish sohasi, iqtisodiy samaradorlik, raqobat, kooperatsiya, innovatsiyalar, xarajatlar, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. The article examines the issues of assessing the economic efficiency of the cluster model in the service sector. The analysis of the main factors influencing the development of clusters, such as cooperation of enterprises, innovative activity, and rational use of resources, is carried out. The role of the cluster model in increasing the competitiveness of the service sector, reducing costs, and improving the quality of services provided is substantiated.
Keywords: cluster model, service sector, economic efficiency, competition, cooperation, innovation, costs, economic development.

Введение.

Современная экономика характеризуется усилением конкуренции и необходимостью повышения эффективности всех отраслей, включая сферу услуг. В этих условиях особое значение приобретает кластерная модель, которая предполагает объединение предприятий, организаций и учреждений в единую систему взаимодействия. Кластерная модель в сфере услуг представляет собой форму организации экономической деятельности, при которой участники тесно сотрудничают друг с другом, обмениваются ресурсами, информацией и технологиями. Это позволяет повышать качество услуг и снижать затраты на их предоставление. Одним из основных преимуществ кластерной модели является снижение издержек. За счет совместного использования инфраструктуры, логистики и информационных ресурсов предприятия могут значительно сократить расходы. Например, туристические компании, гостиницы и транспортные организации, объединенные в кластер, могут предлагать более доступные и качественные услуги.

Еще одним важным аспектом является повышение инновационной активности. В рамках кластера происходит обмен знаниями и опытом, что способствует внедрению новых технологий и современных методов управления. Это особенно важно для сферы услуг, где качество и скорость обслуживания играют ключевую роль.

Также кластерная модель способствует повышению конкурентоспособности. Объединенные предприятия способны более эффективно конкурировать как на внутреннем, так и на внешнем рынке, предлагая комплексные услуги и более выгодные условия для клиентов.

Оценка экономической эффективности кластерной модели может осуществляться на основе следующих показателей:

1. уровень снижения издержек производства услуг;
2. рост объема предоставляемых услуг;
3. повышение качества обслуживания клиентов;
4. увеличение прибыли участников кластера;
5. уровень инновационной активности.

Таким образом, кластерная модель является важным инструментом повышения эффективности сферы услуг.

Заключение

Подводя итог, можно отметить, что рассмотренные аргументы подтверждают эффективность кластерной модели: во-первых, она снижает издержки за счет совместного использования ресурсов; во-вторых, способствует развитию инноваций и обмену опытом; в-третьих, повышает конкурентоспособность участников рынка услуг.

Общий вывод заключается в том, что кластерная модель является одним из наиболее перспективных направлений развития сферы услуг, обеспечивающим рост экономической эффективности и устойчивое развитие отрасли.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Закон Республики Узбекистан «О развитии предпринимательства».
2. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы.
3. Портер М. Конкурентное преимущество. – М.: Альпина, 2019.
4. Иванов В.В. Кластерная экономика: теория и практика. – М.: Экономика, 2020.
5. Абдуллаев Ш.М. Развитие сферы услуг в условиях рыночной экономики. – Ташкент, 2021.

III SHO‘BA. HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK BARQARORLIK VA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI

Rais: Sharipov To‘lqin Saidaxmedovich – SamISI i.f.n., professor
Kotib: Ruziyeva Nigina Baxtiyarovna – SamISI PhD., v.b., dotsent

QISHLOQ HUDUDLARIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Artikov Zokir Sayfiddinovich
O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD, prof.
Muallifning elektron manzili: zokirartikov86@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5333-4376
Muallifning uyali aloqa raqami: +99897 918 70 74

Annotatsiya. Mazkur tezisda qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashning iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va qishloq xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, ekologik boshqaruv, davlat qo‘llab-quvvatlashi va investitsion mexanizmlarning qishloq hududlari rivojlanishidagi o‘rni baholangan.

Kalit so‘zlar: ekologik barqarorlik, qishloq hududlari, yashil iqtisodiyot, iqtisodiy mexanizmlar, ekologik boshqaruv, resurs tejamkorligi, qishloq xo‘jaligi.

Аннотация: В данной статье анализируются экономические механизмы обеспечения экологической устойчивости в сельских территориях. Рассматриваются вопросы рационального использования природных ресурсов, повышения экологической безопасности и экономической эффективности внедрения зелёных технологий в сельском хозяйстве. Также оценивается роль экологического управления, государственной поддержки и инвестиционных механизмов в развитии сельских территорий.

Ключевые слова: экологическая устойчивость, сельские территории, зелёная экономика, экономические механизмы, экологическое управление, ресурсосбережение, сельское хозяйство.

Annotation: This thesis analyzes the economic mechanisms for ensuring environmental sustainability in rural areas. The economic efficiency of rational use of natural resources, strengthening environmental safety, and implementing green technologies in agriculture is highlighted. In addition, the role of environmental

management, government support, and investment mechanisms in rural development is evaluated.

Keywords: environmental sustainability, rural areas, green economy, economic mechanisms, environmental management, resource efficiency, agriculture.

Kirish. Bugungi kunda qishloq hududlarida ekologik muammolarni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining ortishi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining kengayishi hamda iqlim o‘zgarishi natijasida yer va suv resurslariga bo‘lgan bosim kuchaymoqda. Bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun samarali iqtisodiy mexanizmlarni joriy etishni talab etadi.

Qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlash iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni ham mustahkamlaydi. Ayniqsa, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish va yashil investitsiyalarni jalb qilish ushbu yo‘nalishning muhim omillari hisoblanadi. Hozirgi davrda ko‘plab mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda ham suvni tejash texnologiyalari, organik dehqonchilik va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga oid keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashning iqtisodiy mexanizmlari tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik zararlarni kamaytirish va iqtisodiy manfaatdorlikni oshirishga qaratilgan tizimli choralarni o‘z ichiga oladi. Ushbu mexanizmlar yordamida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ekologik xavfsizligini ta’minlash va resurslar samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi. Ekologik barqarorlikni ta’minlashning asosiy iqtisodiy mexanizmlaridan biri ekologik rag‘batlantirish tizimidir. Ushbu tizim orqali ekologik toza texnologiyalarni joriy qilayotgan xo‘jalik subyektlariga subsidiyalar, soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi. Bu esa tadbirkorlarning ekologik innovatsiyalarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Shuningdek, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish qishloq hududlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Masalan, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish suv sarfini kamaytiradi hamda hosildorlikni oshirish imkonini beradi. Organik o‘g‘itlardan foydalanish esa tuproq unumdorligini tiklashga xizmat qiladi.

Qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashda yashil investitsiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya

loyihalari, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza ishlab chiqarishni moliyalashtirish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish mumkin.

1-jadval

Qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlash mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi[22]

№	Mexanizm turi	Amalga oshirish vositasi	Kutilayotgan iqtisodiy natija	Ekologik ta’siri
1	Suv tejovchi texnologiyalar	Tomchilatib sug‘orish	Suv xarajatlari kamayadi	Suv resurslari saqlanadi
2	Organik dehqonchilik	Kimyoviy vositalarni qisqartirish	Mahsulot sifati oshadi	Tuproq degradatsiyasi kamayadi
3	Yashil energetika	Quyosh panellari o‘rnatish	Elektr xarajatlari qisqaradi	Karbon chiqindilari kamayadi
4	Ekologik subsidiyalar	Imtiyozli kredit va grantlar	Investitsiya faolligi oshadi	Ekologik loyihalar ko‘payadi
5	Chiqindilarni qayta ishlash	Qayta ishlash korxonalari	Qo‘shimcha daromad yaratiladi	Atrof-muhit ifloslanishi kamayadi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, ekologik barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari nafaqat ekologik xavfsizlikni kuchaytiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Ayniqsa, suv tejovchi texnologiyalar va yashil energetika qishloq xo‘jaligida xarajatlarni kamaytirish bilan birga resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda “yashil qishloq xo‘jaligi” modeli asosida ekologik xavfsizlik va iqtisodiy manfaatdorlik uyg‘unlashtirilmoqda. Ushbu modelda resurs tejamkor texnologiyalar, raqamli monitoring va ekologik standartlardan keng foydalaniladi.

[22] Muallif ishlanmasi



1-rasm. Yashil transformatsiya jarayonlarida hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar va ularning yechimlari

1-rasm: Yashil transformatsiya jarayonlarida hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar[23]

Rasmda qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashning asosiy iqtisodiy mexanizmlari aks ettirilgan. Unga ko‘ra resurs tejamkorlik, iqtisodiy rag‘batlantirish va yashil texnologiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Ayniqsa, subsidiyalar va soliq imtiyozlari ekologik loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va organik dehqonchilik ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda ham qishloq hududlarini ekologik rivojlantirish bo‘yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, suv resurslarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Ekologik barqarorlikni ta’minlashda aholining ekologik madaniyatini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Chunki resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish ekologik muammolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada ekologik va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligi qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashning iqtisodiy mexanizmlari iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlikni birgalikda ta’minlashga xizmat qiladi. Resurslardan oqilona

[23] Muallif ishlanmasi

foydalanish va yashil texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik muammolarni kamaytirish hamda qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish mumkin. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish;
- ekologik loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish;
- qishloq hududlarida ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish;
- aholining ekologik madaniyatini oshirish.

Natijada qishloq hududlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019.

10. Vahobov A., Xajibakiyev Sh. Ekologik iqtisodiyot va yashil transformatsiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2024.

SUSTAINABLE TOURISM FLOW MANAGEMENT IN THE GREEN TRANSFORMATION OF CULTURAL HERITAGE PROTECTION: DUNHUANG'S EXPERIENCE AND IMPLICATIONS FOR SAMARKAND

Jie Zheng
Associate Professor, Faculty of
Cultural Heritage, Beijing City University;
PhD Candidate, "Silk Road" International
University of Tourism and Cultural
Heritage, Samarkand, Uzbekistan
Phone: +998 90 715 68 61
Email: 3843895@qq.com

Abstract: In the context of green transformation, cultural heritage sites face the pressing challenge of balancing tourism growth with ecological sustainability. The Mogao Caves in Dunhuang have pioneered a sustainable tourism flow management approach that integrates green principles with heritage conservation. This paper analyzes Dunhuang's experience across three dimensions: ecological preventive conservation, digital diversion for load reduction, and community-based

living heritage transmission. In light of the visitor pressure faced by Samarkand's heritage sites, the paper proposes practical recommendations for green-oriented tourism flow management, offering a reference for the sustainable development of heritage cities along the Silk Road.
Keywords: green transformation; sustainable tourism flow management; Dunhuang experience; cultural heritage protection; Samarkand

Annotatsiya: Yashil transformatsiya sharoitida madaniy meros obyektlari turizm o'sishi va ekologik barqarorlikni muvozanatlash muammosiga duch kelmoqda. Dunxuandagi Mogao g'orlari yashil tamoyillarni merosni muhofaza qilish bilan uyg'unlashtirgan barqaror turizm oqimlarini boshqarish yondashuvini yaratdi. Mazkur maqolada Dunxuan tajribasi uch yo'nalishda tahlil qilinadi. Samarqand meros obyektlari duch kelayotgan tashrif bosimini hisobga olgan holda, maqolada yashil yo'naltirilgan turizm oqimlarini boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.
Kalit so'zlar: yashil transformatsiya; barqaror turizm oqimlarini boshqarish; Dunxuang tajribasi; madaniy merosni muhofaza qilish; Samarqand

Аннотация: В контексте зеленой трансформации объекты культурного наследия сталкиваются с проблемой баланса между ростом туризма и экологической устойчивостью. Пещеры Могао в Дуньхуане разработали подход к устойчивому управлению туристическими потоками, объединяющий зеленые принципы с охраной наследия. В статье анализируется опыт Дуньхуана по трем направлениям. С учетом давления посетителей на объекты наследия Самарканда предлагаются практические рекомендации по зелено-ориентированному управлению туристическими потоками.
Ключевые слова: зеленая трансформация; устойчивое управление туристическими потоками; опыт Дуньхуана; охрана культурного наследия; Самарканд

Introduction

Green transformation has become a global imperative for the tourism sector, requiring heritage sites to reconcile visitor growth with ecological sustainability. Samarkand, a Silk Road World Heritage city with over 2,750 years of history, exemplifies this challenge. Foreign tourist arrivals have surged from approximately 180,000 in 2015 to 2.6 million in 2024, with projections exceeding 3 million in 2025 [3]. This rapid growth has intensified pressures on heritage conservation and environmental management, creating an urgent need for green-oriented solutions.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida.

[5] United Nations Framework Convention on Climate Change. Uzbekistan Third Nationally Determined Contribution, 2025.

[6] World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC: World Bank, 2023.

[7] OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025.

[8] Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: darslik. Toshkent: Universitet, 2020.

РЫНОЧНАЯ СТРУКТУРА, СТРАТЕГИЯ ФИРМЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Абдуллаева Зульфия Иззатовна
доц. кафедры «Реальная экономика»
Самаркандский институт экономики и сервиса
Тел.+998933516537
E-mail: abdullaevazulfiya70@gmail.com.
Наимов Самандар Раджабович
Магистр группы МИ-225
Самаркандский институт экономики и сервиса
Телефон: +998915563043
E-mail: naimovsamandar86@gmail.com

Аннотация. В данном тезисе исследуется взаимосвязь между рыночной структурой, стратегическим поведением фирмы и экономической эффективностью. Анализируются три основные рыночные структуры − монополия, олигополия и монополистическая конкуренция – с точки зрения их влияния на динамическую эффективность.
Ключевые слова: Рыночная структура, стратегия фирмы, экономическая эффективность, монополия, олигополия, монополистическая конкуренция.

Annotatsiya. Ushbu tezisda bozor tuzilmasi, firmaning strategik xatti-harakati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganiladi. Uchta asosiy bozor tuzilmasi − monopoliya, oligopoliya va monopolistik raqobat – dinamik samaradorlikka ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: bozor tuzilmasi, firma strategiyasi, iqtisodiy samaradorlik, monopoliya, oligopoliya, monopolistik raqobat.

Abstract. This thesis examines the relationship between market structure, the strategic behavior of firms, and economic efficiency. Three main market structures − monopoly, oligopoly, and monopolistic competition − are analyzed in terms of their impact on dynamic efficiency. It is demonstrated that monopoly power generates deadweight losses in social welfare, while in oligopolistic markets it is precisely the strategic choice between cooperation and competition that determines the ultimate market outcome.
Keywords: market structure, firm strategy, economic efficiency, monopoly, oligopoly, monopolistic competition.

Введение

Рыночная структура определяет потенциальную ситуацию, в рамках которых функционирует любая фирма: число конкурентов, степень дифференциации продукта, высоту барьеров входа и уровень рыночной власти.

Структура рынка – это лишь форма, содержание которой определяет стратегия фирм и специфика отрасли.

Монополия – это стагнация и потери, в то время как конкуренция за продукт превращает прибыль в технический прогресс. Общественная польза всегда рождается из баланса между ценой, качеством и инновациями.

В условиях монополии фирма является единственным продавцом и сталкивается с убывающим спросом. Чтобы максимизировать прибыль, она устанавливает выпуск там, где MR = MC, а цену – значительно выше предельных издержек. Где: MR – предельный доход, MC – предельные издержки.

Классический пример – фармацевтическая отрасль: обладатель патента, поэтому может устанавливать цену в десятки раз выше себестоимости производства.

Олигополия – структура, при которой несколько крупных игроков учитывают поведение друг друга при принятии решений. В олигополии решающую роль играет не структура сама по себе, а стратегия – и именно от неё зависит, будет ли рынок эффективным.

В монополистической конкуренции много фирм, каждая из которых обладает небольшой рыночной властью за счёт уникальности своего продукта, что свидетельствует о статической неэффективности. Однако именно это порождает инновации.

Заключение

Взаимосвязь структур, стратегий и эффективности многомерны. Есть необходимость гибкого подхода, то есть необходимо оценивать реальные последствия каждой структуры для конкретной отрасли и общества в целом.

Научно-теоретические и практические предложения и рекомендации

– переводить услуги в онлайн-площадки для снижения транзакционных издержек и расширения географии рынка;

– снижать входные барьеры для новых игроков, чтобы через усиление конкуренции стимулировать рыночную эффективность;

– внедрять системы контроля и оценки сервиса, напрямую увязывая конкурентоспособность фирмы с уровнем удовлетворенности клиента.

Список использованной литературы

1. Qarshiboyev X.Q., Kushmanbekova Sh.K., Komilova V.Sh. Ko'p tarmoqli iqtisod modeli // Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali. – 2025. – №4(1). – URL: https://mudarrisziyo.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/1834

2. Nizamov A. Tarmoqlar iqtisodiyoti: raqobat va bozor tuzilmalari // SamDU ilmiy axborotnomasi. – Samarqand, 2022. — №3. — B. 45–52.

3. Bakayev Z. Bozor iqtisodiyotida samaradorlik va raqobatbardoshlik // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2021. — №2. — B. 88–97. — URL: https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/796.

АНАЛИЗ СТАНДАРТНОГО ОТКЛОНЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МОДЕЛИ GARCH

к.ф-м.н., **Каршибоев Хайрулла Киличевич**
зав.кафедры «Высщей математики»
Самаркандский институт экономики и сервиса.
E-mail: karshiboyev@mail.ru
Мурадов Кодир Кулдошевич –
страший преподователь, Самаркандский
филиал института ISFT, *E-mail: a_aliqulov@mail.ru*

Аннотация: В данной статье анализируется волатильность ключевых фондовых индексов Узбекистана с использованием модели обобщенной авторегрессионной условной гетероскедастичности (GARCH). На основе исторических данных о ценах оцениваются уровни волатильности, что позволяет получить представление о рыночных рисках и стратегиях управления рисками. В исследовании также обсуждаются основные преимущества и ограничения методологии GARCH.

Ключевые слова: фондовый рынок Узбекистана, волатильность, модель GARCH, управление рисками, финансовые рынки.

Фондовый рынок Узбекистана в последние годы быстро развивается. В изучении финансовых рынков волатильность индексов — то есть изменчивость цен — является важным показателем оценки инвестиционного риска. Уровень стандартного отклонения оказывает существенное влияние на стабильность рынка и решения инвесторов. Поэтому модель GARCH, одна из статистических моделей временных рядов, широко используется для определения стандартного отклонения финансовых временных рядов.

Общая информация о модели GARCH. Модель GARCH (Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity) является расширением модели ARCH, описанной Энглом (1982). Она позволяет прогнозировать динамику дисперсии во временных рядах.

Модель GARCH(p,q) выражается следующим образом:

$$\sigma_t^2 = \alpha_0 + \sum_{i=1}^{q} \alpha_i \epsilon_{t-i}^2 + \sum_{j=1}^{p} \beta_j \sigma_{t-j}^2$$

Здесь:

$\sigma_t^2 - t$ условная дисперсия во времени,

$\epsilon_{t-i}^2 -$ остаточные квадраты из предыдущих периодов,

$\alpha_i, \beta_j -$ параметры модели.

Модель GARCH позволяет выявить феномен «кластеризации волатильности» в финансовых временных рядах и прогнозировать риски.

Источник и выбор данных. Для исследования использованы ежедневные цены основных индексов (TSEI, TASE, OTSE), публикуемые Национальной биржей Узбекистана за 2018–2025 годы. Данные были собраны на основе исторических цен закрытия. В исследовании были учтены следующие критерии:

1. Использовались только данные за восемь лет (2018–2025).
2. Были выбраны индексы с высокой рыночной ликвидностью.
3. Для расчета остатков и рентабельности использовались логарифмические преобразования:

$$r_t = \ln(P_t) - \ln(P_{t-1})$$

Очистка данных и статистический анализ. Данные очищаются следующим образом:

• Удаляются неизвестные или пустые значения цен.

• Выбросы выявляются и преобразуются.

• Рассчитываются описательные статистики (среднее, медиана, максимум, минимум, стандартное отклонение).

Затем выполняется прогнозирование волатильности с использованием модели GARCH(1,1), а параметры модели оцениваются с помощью метода максимального правдоподобия (MLE).

Результаты волатильности

Indeks	**Средние волатильности (%)**	**максимал волатильности (%)**	**минимал волатильности (%)**	**Std. dev (%)**
TSEI	1.25	3.40	0.50	0.85
TASE	1.10	2.80	0.40	0.70
OTSE	1.35	3.80	0.60	0.95

Индекс OTSE имеет самую высокую волатильность и дисперсию, что указывает на более высокий инвестиционный риск. Индекс TASE выделяется как наиболее стабильный сегмент.

Диаграмма визуально сравнивает среднюю волатильность и показывает высокий риск индекса OTSE.

Динамика стандартного отклонения

График условной дисперсии, рассчитанный с использованием модели GARCH, показывает следующее:

• Стандартное отклонение обычно высокое после больших изменений и низкое в периоды затишья (кластеризация волатильности).

• В частности, рыночные колебания в 2020–2021 годах вызвали высокую волатильность индекса OTSE.

• Индексы TSEI и TASE более стабильны, что означает более низкий риск для инвесторов.

Анализ стандартного отклонения: Результаты исследования показывают, что модель GARCH эффективно работает с финансовыми временными рядами. Индекс OTSE является наиболее неопределенным сегментом, а TASE — наиболее стабильным.

1. Рекомендации для инвесторов:

Инвестиции в индекс OTSE должны быть диверсифицированы.

1. Возможно создание портфеля с низким риском с использованием индексов TSEI и TASE.

2. Преимущества модели:

Предварительная оценка рыночного риска путем расчета условной дисперсии.

Возможность выявления явления «кластеризации волатильности».

3. Ограничения:

Не позволяет точно прогнозировать экстремальные события (крах или пузырь).

Основана только на исторических данных, не учитывает будущие политические или экономические изменения.

Заключение. Анализ стандартного отклонения индексов на фондовом рынке Узбекистана с использованием модели GARCH является эффективным инструментом для инвесторов по выявлению рисков и оценке стабильности рынка. Прогнозы стандартного отклонения на основе GARCH поддерживают финансовые решения и улучшают управление рыночным риском. Рекомендуется расширить этот анализ на различные рыночные условия в будущем.

Список использованной литературы

1. Engle R.F. *Autoregressive Conditional Heteroskedasticity with Estimates of the Variance of UK Inflation*. *Econometrica*, 1982.
2. Bollerslev T. *Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity*. *Journal of Econometrics*, 1986.
3. Tsay R.S. *Analysis of Financial Time Series*. Wiley, 2010.
4. O‘zbekiston Milliy Birjasi statistik ma’lumotlari (2018–2025).
5. Gujarati D., Porter D. *Basic Econometrics*. McGraw-Hill, 2022.

РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi, PhD
Email: erdonovmuhammad@gmail.com

Abstract. The thesis reveals the role of ecological sustainability and the green economy in improving the quality of socio-economic development of regions. It argues that regional growth should be assessed through production and investment indicators together with resource efficiency, environmental quality and living standards. The paper also highlights green infrastructure, local management mechanisms and investment attractiveness as key factors of territorial modernization.

Keywords: regional development, ecological sustainability, green economy, infrastructure, quality of life, investment attractiveness

Аннотация. В тезисе раскрывается роль экологической устойчивости и зеленой экономики в повышении качества социально-экономического развития регионов. Региональный рост предлагается оценивать через производственные и инвестиционные показатели в сочетании с ресурсной эффективностью, качеством окружающей среды и уровнем жизни населения. Отдельно выделены зеленая инфраструктура, местные механизмы управления и инвестиционная привлекательность территорий.

Ключевые слова: региональное развитие, экологическая устойчивость, зеленая экономика, инфраструктура, качество жизни, инвестиционная привлекательность

Annotatsiya. Tezisda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sifatini oshirishdagi roli ochib beriladi. Hududiy o‘sishni ishlab chiqarish va investitsiya ko‘rsatkichlari bilan birga resurs samaradorligi, atrof-muhit sifati va aholi turmush darajasi orqali baholash zarurligi

asoslanadi. Yashil infratuzilma, mahalliy boshqaruv mexanizmlari va investitsion jozibadorlik hududiy modernizatsiyaning muhim omillari sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: hududiy rivojlanish, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, infratuzilma, hayot sifati, investitsion jozibadorlik

Введение

Региональное развитие традиционно измеряется экономическими показателями: ростом промышленности, объемом услуг, инвестициями, доходами населения и занятостью. Однако в современных условиях эти показатели не отражают полной картины. Если рост сопровождается загрязнением воздуха, дефицитом воды, накоплением отходов и ухудшением городской среды, он создает скрытые издержки для здоровья населения, бизнеса и бюджета. Поэтому экологическая устойчивость становится не внешним условием, а внутренним критерием качества развития региона.

Для Узбекистана данная проблема особенно актуальна, поскольку регионы различаются по природным условиям, отраслевой структуре, плотности населения и уровню инфраструктуры. Стратегия “Узбекистан — 2030” и государственная программа 2025 года усиливают значение зеленой экономики в национальном развитии [3; 4]. Это означает, что региональные программы должны учитывать не только экономические цели, но и экологическую нагрузку, ресурсную эффективность и устойчивость к климатическим рискам.

Методология

Методология исследования основана на системном анализе, региональном подходе, сравнении экономических и экологических факторов, а также изучении стратегических документов. Роль зеленой экономики в развитии регионов рассмотрена через три канала: снижение ресурсных издержек, повышение качества жизни населения и рост инвестиционной привлекательности. Такая логика позволяет оценить экологическую устойчивость как фактор экономической эффективности.

Анализ и результаты

Первый канал — снижение ресурсных издержек. В регионах с высокими потерями энергии и воды предприятия сталкиваются с ростом себестоимости, коммунальные организации — с дополнительными затратами, а население — с ухудшением качества услуг. Инвестиции в энергоэффективные здания, снижение потерь в сетях, переработку отходов и экологический транспорт уменьшают долгосрочные расходы. Поэтому зеленая инфраструктура должна рассматриваться как экономический актив, а не как социальная нагрузка бюджета.

Второй канал — качество жизни. Чистый воздух, безопасная вода, зеленые зоны, удобный общественный транспорт и эффективное управление отходами напрямую влияют на здоровье, мобильность и социальное

самочувствие населения. В долгосрочном периоде это снижает расходы на здравоохранение, повышает производительность труда и укрепляет человеческий капитал. Таким образом, экологическая устойчивость имеет прямую связь с социальной политикой и развитием человеческого потенциала.

Третий канал — инвестиционная привлекательность. Современные инвесторы все чаще учитывают экологические стандарты, доступность ресурсов и климатические риски. Регион, имеющий устойчивую инфраструктуру, прозрачные экологические правила и понятные зеленые индикаторы, воспринимается как менее рискованный. Особенно это важно для экспортно ориентированных производств, туризма и сервисной экономики, где экологическая репутация влияет на конкурентоспособность.

Четвертый аспект связан с управлением. Если зеленые цели не включены в систему региональных показателей, они остаются декларативными. Для практической реализации необходимы региональные паспорта зеленого развития, включающие энергоемкость, водные потери, переработку отходов, зеленые зоны, качество воздуха и долю устойчивого транспорта. Публичность таких показателей повышает ответственность местных органов власти и дает бизнесу ориентиры для инвестиций.

Заключение и предложения

В заключение следует подчеркнуть, что экологическая устойчивость является важным фактором социально-экономической конкурентоспособности регионов. Она снижает скрытые издержки, улучшает качество жизни и формирует более устойчивую инвестиционную среду. Поэтому зеленая экономика должна быть встроена в промышленную, аграрную, транспортную, туристическую и коммунальную политику регионов.

Практические предложения включают разработку региональных зеленых индикаторов, экологическую экспертизу инфраструктурных проектов, стимулирование зеленого предпринимательства, развитие открытых экологических данных и вовлечение населения в общественный контроль. Такой подход позволит соединить экономический рост с экологической безопасностью и социальной устойчивостью.

Литература

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года № ПП-4477 «Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан к зеленой экономике на период 2019-2030 годов».

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года № ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к зеленой экономике до 2030 года».

[3] Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии “Узбекистан — 2030”».

[4] Указ Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан — 2030” в Год охраны окружающей среды и зеленой экономики».
[5] United Nations Framework Convention on Climate Change. Uzbekistan Third Nationally Determined Contribution, 2025.
[6] World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC: World Bank, 2023.
[7] OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025.
[8] Вахабов А.В., Хаджибакиев Ш.Х. и др. Зеленая экономика: учебник. Ташкент: Университет, 2020.

TO‘SIQSIZ TURIZM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA XIZMAT KO‘LAMINI KENGAYTIRISH

Umurzakova Dilnoza Egamberdiyeva
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ferdu_www@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi — “to‘siqsiz turizm xizmatlari” konsepsiyasini tahlil qilamiz. Maqolada to‘siqsiz turizm deganda nafaqat jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay muhit, balki transport, vizalar, axborot, moliyaviy va institutsional to‘siqlarni bartaraf etish orqali turizm xizmatlaridan barcha toifadagi sayohatchilarning teng va qulay foydalanish imkoniyati tushuniladi. O‘zbekiston Turizm qo‘mitasining “Inklyuziv to‘siqsiz turizm” va “Inklyuziv sayohat” dasturlari doirasida 2025-yilning birinchi yarmida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun 8 337 ta sayohat tashkil etilgani, 5 625 ta rejalashtirilganidan oshib ketgani alohida ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: to‘siqsiz turizm, inklyuziv turizm, turizm infratuzilmasi, xizmatlar ko‘lami, “aqlli” turizm, “Better Cotton” turizmda, ijtimoiy mas’uliyat, O‘zbekiston Turizm qo‘mitasi, Invest.gov.uz, Markaziy Osiyo, Buyuk Ipak yo‘li.

Аннотация: В данной статье анализируется концепция «безбарьерного туризма» — стратегическое направление развития туристического сектора в Республике Узбекистан. В статье безбарьерный туризм понимается не только как удобная среда для людей с ограниченными физическими возможностями, но и как равный и удобный доступ к туристическим услугам для всех категорий путешественников путем устранения транспортных, визовых, информационных, финансовых и институциональных барьеров. Особо отмечается, что в рамках программ Комитета по туризму Узбекистана «Инклюзивный безбарьерный туризм» и «Инклюзивные путешествия» в первом полугодии 2025 года было организовано 8337 поездок для

нуждающихся в социальной защите, из которых 5625 превысили запланированные.

Ключевые слова: безбарьерный туризм, инклюзивный туризм, туристическая инфраструктура, спектр услуг, «умный» туризм, «Лучший хлопок» в туризме, социальная ответственность, Комитет по туризму Узбекистана, Invest.gov.uz, Центральная Азия, Великий Шелковый путь.

Abstract: This article analyzes the concept of "barrier-free tourism"—a strategic direction for the development of the tourism sector in the Republic of Uzbekistan. The article defines barrier-free tourism not only as a convenient environment for people with disabilities but also as equal and convenient access to tourism services for all categories of travelers by eliminating transport, visa, information, financial, and institutional barriers. It is particularly noted that, under the "Inclusive Barrier-Free Tourism" and "Inclusive Travel" programs of the Tourism Committee of Uzbekistan, 8,337 trips were organized for people in need of social protection in the first half of 2025, of which 5,625 exceeded the planned number.

Keywords: barrier-free tourism, inclusive tourism, tourism infrastructure, range of services, smart tourism, "Best Cotton" in Tourism, social responsibility, Tourism Committee of Uzbekistan, Invest.gov.uz, Central Asia, Great Silk Road.

Global turizm industriyasi XXI asrda iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan va eng istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylandi. Dunyo Turizm Tashkilotining (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasi jahon iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasi bo‘yicha neft, kimyo va avtomobilsozlik kabi yetakchi tarmoqlar bilan tenglashib bormoqda. Ushbu rivojlanishda “to‘siqsiz turizm” konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi — bu nafaqat jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay muhit yaratish, balki transport, vizalar, axborot, moliyaviy va institutsional to‘siqlarni bartaraf etish orqali turizm xizmatlaridan barcha toifadagi sayohatchilarning teng va qulay foydalanish imkoniyatini ta’minlashdir. O‘zbekiston so‘nggi yillarda turizm sohasida ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirdi. 2017-yildan boshlab vizasiz rejim joriy etilishi, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tarixiy va madaniy meros obyektlarini qayta tiklash, xorijiy sayyohlar uchun qulayliklar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Natijada mamlakatimizga keluvchi xorijiy sayyohlar soni 2016-yildagi 2 milliondan 2025-yilda 11 millionga yetdi.

2025-yil 26-dekabrdagi Prezidentimiz Murojaatnomasida turizm sohasiga qaratilgan yangi strategik maqsadlar belgilandi. 2030-yilga borib xorijiy turistlar sonini 11 milliondan 20 millionga yetkazish, turizm xizmatlari hajmini 20 milliard dollarga oshirish, xizmatlar bozorini 100 milliard dollardan oshirish — bu kabi vazifalar turizmni iqtisodiyotning lokomotiv tarmog‘iga aylantirishga qaratilgan. 2026-yilning o‘zida tadbirkorlar tomonidan 3,5 mingdan ziyod yangi servis

obyektlari ishga tushirilishi, 5 ming gektar yer turizm maqsadlarida auksionga chiqarilishi belgilangan[25].

“To‘siqsiz turizm” (inklyuziv turizm, paraturizm) — nafaqat jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar, balki har qanday sayohatchi uchun qulay, teng va samarali xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan turizm modelidir. Ushbu konsepsiya turizm xizmatlaridan foydalanish yo‘lidagi barcha to‘siqlarni — jismoniy, axborot, moliyaviy, institutsional va ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

O‘zbekistonda to‘siqsiz turizm infratuzilmasini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2024-yildan boshlab madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning to‘siqsiz harakatlanishi uchun pandus, plintus va liftlar o‘rnatilishi belgilangan. 2025-yil yanvar holatiga ko‘ra, 53 ta muzeyda pandus yo‘lakchasi, 9 ta muzeyda ko‘tarilish vositasi (lift) o‘rnatilgan va 35 ga yaqin muzeylarda audiogidlar tashkil etilgan. Ko‘zi ojiz shaxslar uchun madaniy meros obyektlarining kichraytirilgan o‘lchamdagi maketlari o‘rnatilib, ular to‘g‘risida Brayl alifbosidagi ma’lumotlar joylashtirilmoqda. Raqamli xizmatlar yo‘nalishida ham muhim qadamlar qo‘yilgan. 2024-yil 1-martdan boshlab “www.Uzbekistan.travel” yagona milliy turistik axborot portalida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Portal ko‘zi ojiz va zaif eshituvchi shaxslar uchun moslashtirilib, ularga sayohat qilishlari uchun maxsus turpaketlar joylashtirilgan[26].

O‘zbekiston Turizm qo‘mitasi va O‘zbekiston nogironlar jamiyati hamkorligida “Sayohat barcha uchun” xayriya loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun respublikaning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan shaharlariga bepul sayohatlar tashkil etiladi. Loyihaning dastlabki bosqichida 2019-yil noyabr oyida Namangan viloyatida istiqomat qilayotgan 25 nafar nogironligi bo‘lgan kishilarning Toshkent shahriga sayohati tashkillashtirilgan. Sayohat bilan bog‘liq barcha xarajatlar (transport, ovqatlanish, mehmonxona, gidlar xizmati) homiylik mablag‘lari hisobidan qoplangan. Sayohat davomida turizm infratuzilmasining nogironligi bo‘lgan kishilar uchun moslashtirilganlik holati o‘rganilib, kelgusida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan .

Transport tizimi to‘siqsiz turizmning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Prezident qaroriga muvofiq, temir yo‘l va jamoat transportlarida hamda barcha aeroport, vokzal, avtoshohbekatlarda nogironligi bo‘lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus ko‘tarilish panduslari, qulay zina tutqichlari o‘rnatiladi hamda kema aravachalari (nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus aravacha) qo‘yiladi. Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan “Shaharlarda yashash va unumdorlikni oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish” (LPCP) dasturi doirasida 2025-yil dekabridan boshlab mamlakatning 16 ta tuman va shahrida

[25] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2025-yil 26-dekabr. — 56 b. https://president.uz

[26] https://lex.uz/docs/-6759699

munitsipal infratuzilma va xizmatlar rivojlantirilmoqda. Dastur ijtimoiy, kommunal, transport, savdo, ishbilarmonlik, turizm infratuzilmasi va jamoat joylarini rivojlantirishga sarmoya kiritadi. 2030-yilga kelib, ushbu dastur orqali 1 millionga yaqin aholining turmush sharoitlarini yaxshilash rejalashtirilgan.

“To‘siqsiz turizm” konsepsiyasi O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishiga aylandi. 2025-yil 26-dekabrdagi Prezident Murojaatnomasida belgilanganidek, 2030-yilga borib xorijiy turistlar sonini 11 milliondan 20 millionga yetkazish, turizm xizmatlari hajmini 20 milliard dollarga oshirish kabi maqsadlar sohani iqtisodiyotning lokomotiv tarmog‘iga aylantirishga qaratilgan. O‘zbekistonda to‘siqsiz turizm infratuzilmasini yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Madaniy meros obyektlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun pandus, lift, audiogidlar va Brayl alifbosidagi ma’lumotlar o‘rnatilmoqda. 53 ta muzeyda pandus, 9 ta muzeyda lift mavjud bo‘lib, 35 ga yaqin muzeyda audiogidlar tashkil etilgan . “Uzbekistan.travel” portali nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirilib, maxsus turpaketlar joylashtirilgan. Biroq, to‘siqsiz turizmni rivojlantirishda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar ham mavjud: ayrim madaniy meros obyektlarida hali ham to‘liq moslashtirish ishlari bajarilmagan, mehmonxonalarning aksariyatida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus jihozlangan xonalar soni yetarli emas, viloyatlar kesimida to‘siqsiz muhitni yaratish darajasi turlicha, sohada ishlaydigan kadrlar malakasini oshirish zarur.

Umuman olganda, to‘siqsiz turizm xizmatlarini takomillashtirish nafaqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, balki har bir sayyoh uchun qulay va teng imkoniyatlar yaratish demakdir. Bu yo‘lda infratuzilma, raqamlashtirish, moliyaviy rag‘batlantirish va kadrlar tayyorlashni uyg‘unlashtirgan holda olib boriladigan ishlar O‘zbekistonni nafaqat mintaqadagi yetakchi turizm davlatiga, balki barcha uchun ochiq va qulay turizm maskaniga aylantiradi. Zero, haqiqiy turizm salohiyati — bu nafaqat go‘zal manzaralar va tarixiy obidalar, balki har bir mehmonni samimiy kutib olish va ularga teng xizmat ko‘rsatish qobiliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2025-yil 26-dekabr. — 56 b. (https://president.uz)

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-20-son Qarori. — 2024-yil 12-yanvar. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-6759699

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni. — 2025-yil 15-may. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-102-son Farmoni. — 2024-yil 18-iyul. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-7031233

18. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining rasmiy Telegram kanali — URL: https://t.me/uzbektourismofficial

19. Jahon banki. “Shaharlarda yashash va unumdorlikni oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish” (LPCP) dasturi — Vashington, 2025-yil 15-dekabr. — URL: https://www.worldbank.org/uz/news/press-release/2025/12/15/upgraded-municipal-infrastructure-to-enhance-quality-of-life-for-1-million-people-across-uzbekistan

SHAHAR INFRATUZILMASINI EKOLOGIK MODERNIZATSIYA QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Mirzayeva Shirin Nodirovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti.
mirzayevashirin502@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-0035-636X
+998905020271

Annotatsiya. Mazkur tezisda shahar infratuzilmasini ekologik modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini shahar boshqaruviga integratsiya qilish masalalari tahlil qilingan. Energiya samaradorligi, ekologik transport, yashil hududlar va chiqindilarni boshqarish tizimining iqtisodiy samaradorligi statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, ekologik modernizatsiyaning innovatsion mexanizmlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik modernizatsiya, shahar infratuzilmasi, yashil iqtisodiyot, ekologik transport, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В данной работе анализируются приоритетные направления экологической модернизации городской инфраструктуры и внедрения принципов зелёной экономики в городское управление. Рассматриваются вопросы энергоэффективности, экологического транспорта и управления отходами.

Ключевые слова: экологическая модернизация, городская инфраструктура, зелёная экономика, экологический транспорт, устойчивое развитие.

Annotation: This thesis analyzes priority directions for ecological modernization of urban infrastructure and integration of green economy principles into urban management. It examines energy efficiency, green transport, waste management systems, and sustainable urban development based on statistical indicators.

Keywords: ecological modernization, urban infrastructure, green economy, green transport, sustainable development.

Kirish. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi zamonaviy shaharlarda ekologik muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Atmosfera havosining ifloslanishi, transport yuklamasining ortishi, energiya resurslariga talabning ko‘payishi va chiqindilar hajmining oshishi shahar infratuzilmasini ekologik jihatdan modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, “aqlli va yashil shahar” konsepsiyasi iqtisodiy samaradorlik bilan ekologik xavfsizlikni uyg‘unlashtirishning eng muhim vositasiga aylanmoqda. O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyot strategiyasi doirasida ekologik transport, energiya tejamkor qurilish va yashil hududlarni kengaytirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Shahar infratuzilmasini ekologik modernizatsiya qilish barqaror rivojlanishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, ekologik modernizatsiya nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki investitsion jozibadorlikni oshirish, energiya xarajatlarini kamaytirish va aholining turmush sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda yirik shaharlarda asosiy ekologik muammolar transport chiqindilari, energiya resurslaridan samarasiz foydalanish va maishiy chiqindilar hajmining ortishi bilan bog‘liq. Shu sababli ekologik modernizatsiya jarayonida “yashil transport”, “aqlli energetika”, “yashil qurilish” va chiqindilarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

1-jadval

Shahar infratuzilmasini ekologik modernizatsiya qilish ko‘rsatkichlari (2020–2025)[27]

№	Ko‘rsatkich	2020	2022	2024	2025
1	Elektr transport vositalari soni	1 200	4 800	11 500	18 000
2	Yashil hududlar ulushi (%)	18	21	25	30
3	Energiya tejamkor binolar (%)	9	16	28	40
4	Chiqindilarni qayta ishlash darajasi (%)	14	22	35	48
5	Atmosfera ifloslanish indeksi	0.71	0.64	0.56	0.48

[27] Muallif ishlanmasi

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik modernizatsiya jarayonlari natijasida shaharlarda ekologik ko‘rsatkichlar sezilarli yaxshilanmoqda. Xususan, elektr transport vositalari sonining keskin ortishi atmosfera havosiga chiqarilayotgan zararli gazlar hajmini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yashil hududlar ulushining oshishi shaharlarda mikroiqlimni yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlash va ekologik muvozanatni ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Energiya tejamkor binolar ulushining ko‘payishi esa kommunal xarajatlarni kamaytirish bilan birga energiya resurslaridan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Biroq ayrim hududlarda ekologik infratuzilmaning eskirganligi, yashil texnologiyalar uchun investitsiya yetishmasligi va chiqindilarni boshqarish tizimining sust rivojlanganligi mavjud muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Shahar ekologik modernizatsiyasining samaradorligi ko‘p jihatdan ekologik boshqaruv tizimi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog‘liq.

2-jadval

Shahar ekologik modernizatsiyasining ustuvor yo‘nalishlari samaradorligi[28]

№	Yo‘nalish	Ekologik samaradorlik	Iqtisodiy samaradorlik	Uzoq muddatli ta’sir
1	Elektr transport	Yuqori	Yuqori	Yuqori
2	Yashil qurilish	Yuqori	O‘rta	Yuqori
3	Chiqindilarni qayta ishlash	O‘rta	Yuqori	Yuqori
4	Aqlli energetika	Yuqori	Yuqori	Yuqori
5	Yashil hududlarni kengaytirish	Yuqori	O‘rta	Yuqori

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, elektr transport va aqlli energetika tizimlari ekologik modernizatsiyaning eng samarali yo‘nalishlari hisoblanadi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va “smart city” texnologiyalarining joriy etilishi energiya sarfini kamaytirish bilan birga ekologik monitoring samaradorligini oshirmoqda.

Chiqindilarni qayta ishlash tizimining rivojlanishi esa iqtisodiy jihatdan qo‘shimcha qiymat yaratish imkonini bermoqda. Chunki chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlash yangi sanoat yo‘nalishlari va ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

[28] Muallif ishlanmasi



1-rasm: Shahar infratuzilmasini ekologik modernizatsiya qilishning asosiy komponentlari[29]

Rasmda ekologik modernizatsiyaning asosiy yo‘nalishlari — elektr transport, energiya samarador binolar, yashil hududlar va chiqindilarni qayta ishlash tizimlari o‘zaro bog‘liq holda aks ettirilgan. Ushbu komponentlarning integratsiyalashuvi shaharlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, resurs tejamkorligini oshirish va aholining yashash sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ekologik modernizatsiya jarayonlari kompleks yondashuv asosida amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi. Ayniqsa, yashil texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlarining uyg‘unlashuvi kelajakdagi “aqlli va yashil shaharlar” modelining asosiy poydevorini yaratadi.

Xulosa va takliflar. Shahar infratuzilmasini ekologik modernizatsiya qilish zamonaviy iqtisodiyotning ekologik va ijtimoiy barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik transport, energiya tejamkor qurilish, yashil hududlarni kengaytirish va chiqindilarni qayta ishlash tizimlari shaharlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda ekologik infratuzilmaning eskirganligi, yashil texnologiyalar uchun moliyaviy resurslarning yetarli emasligi va ekologik

[29] Muallif ishlanmasi

boshqaruv tizimidagi kamchiliklar modernizatsiya jarayonlarini sekinlashtirmoqda. Bu esa ekologik siyosatni yanada takomillashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etishni talab qiladi. Takliflar quyidagilardan iborat:

- shaharlarda elektr transport infratuzilmasini kengaytirish;
- energiya tejamkor va ekologik xavfsiz qurilish standartlarini majburiy joriy etish;
- chiqindilarni saralash va qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy klasterlarni tashkil etish;
- “aqlli shahar” texnologiyalarini ekologik monitoring tizimlari bilan integratsiyalash;
- yashil hududlar ulushini oshirish orqali urban ekologik muvozanatni mustahkamlash.

Kelajak shaharlari – bu faqat zamonaviy infratuzilma emas, balki ekologik xavfsiz, energiya samarador va inson salomatligiga xizmat qiluvchi barqaror makondir. Tabiat va urbanizatsiya uyg‘unligiga asoslangan ekologik modernizatsiyagina iqtisodiy taraqqiyot bilan ekologik muvozanat o‘rtasidagi barqaror hamkorlikni ta’minlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

11. UN-Habitat. World Cities Report 2024, Nairobi, 2024.
12. International Energy Agency. Energy Efficient Urban Systems, Paris, 2023.
13. Newman P., Beatley T. Green Urbanism and Sustainable Cities, Island Press, Washington, 2024.
14. European Environment Agency. Urban Sustainability and Smart Cities, Copenhagen, 2025.
15. Bulkeley H. Cities and Climate Governance, Routledge, London, 2023.

YASHIL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YETKAZIB BERISH XIZMATLARIDA SO‘NGGI MIL LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Qulmurodova Ra’no Akbar qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Tayanch doktoranti
Telefon: +998 (93) 338-96-56
E-mail: qulmurodovarano@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil transformatsiya sharoitida so‘nggi mil logistikasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tadqiq etilgan. Elektron tijorat rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan logistika muammolari va ularning ekologik oqibatlari tahlil qilingan. Smart locker, micro-hub va elektr transport vositalarining logistika tizimidagi o‘rni o‘rganilgan hamda O‘zbekiston sharoitida yashil logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil logistika, so‘nggi mil logistika, smart locker, micro-hub, elektr transport, ekologik barqarorlik.

Аннотация. В статье исследуются организационно-экономические механизмы развития логистики последней мили в условиях зелёной трансформации. Проанализированы экологические последствия роста электронной коммерции и возможности применения smart locker, micro-hub и электротранспорта. Разработаны научно-практические рекомендации по развитию экологически устойчивой логистической инфраструктуры в Узбекистане.

Ключевые слова: зелёная логистика, логистика последней мили, smart locker, micro-hub, электротранспорт, экологическая устойчивость.

Annotation. This article examines organizational-economic mechanisms for developing last-mile logistics under conditions of green transformation. Environmental impacts of e-commerce growth and the role of smart lockers, micro-hubs and electric vehicles are analyzed. Scientific and practical recommendations for developing environmentally sustainable logistics infrastructure in Uzbekistan are proposed.

Keywords: green logistics, last-mile logistics, smart locker, micro-hub, electric transport, environmental sustainability.

Kirish. Bugungi kunda elektron tijorat bozori hajmining ortishi logistika xizmatlariga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Ayniqsa, so‘nggi mil logistikasida tezkor va samarali yetkazib berish masalasi logistika kompaniyalari oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Shu bilan birga, transport vositalari sonining ortishi ekologik muammolar, tirbandlik va qo‘shimcha logistika xarajatlarini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, shahar logistikasida hosil bo‘ladigan karbon chiqindilarining muhim qismi aynan so‘nggi mil logistikasiga to‘g‘ri keladi

(Gowans, 2024). Shu sababli logistika tizimlarini ekologik jihatdan takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil logistika konsepsiyasi transport va yetkazib berish tizimlarini energiya tejamkor hamda ekologik xavfsiz usullar asosida tashkil qilishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda smart locker, micro-hub va elektr transport vositalari so‘nggi mil logistikasini modernizatsiya qilishning muhim vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu texnologiyalar transport qatnovlarini qisqartirish, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda ekologik zararlarni pasaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish hamda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Xorijiy davlatlar tajribasi va O‘zbekistonda elektron tijorat hamda logistika infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi.

Asosiy qism. So‘nggi mil logistikasida smart locker tizimidan foydalanish buyurtmalarni markazlashgan holda yetkazish imkonini yaratadi. Natijada transport vositalarining qatnovlari kamayadi va logistika samaradorligi oshadi. Ilmiy manbalarda smart locker tizimlari ekologik barqaror yetkazib berishning samarali vositalaridan biri sifatida baholanadi (Tran & Bui, 2020).

Micro-hub texnologiyasi yirik yuk transportlaridan mahsulotlarni kichik logistika markazlariga yetkazish va keyingi bosqichda ekologik transport vositalari orqali tarqatishni nazarda tutadi. Xorijiy tajribada micro-hublardan foydalanish transport oqimini optimallashtirish va tirbandlikni kamaytirishda ijobiy natija berayotgani qayd etilgan (EU Urban Mobility Observatory, 2025).

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda elektr transport vositalari va mikro-logistika markazlaridan foydalanish yashil logistikaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Ayrim Yevropa logistika kompaniyalari tajribasida ekologik transport vositalaridan foydalanish natijasida logistika xarajatlari hamda karbon chiqindilarining qisqarishi kuzatilgan (DHL Group, 2024).

O‘zbekistonda ham elektron tijorat bozori bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. 2024-yilda mamlakat elektron tijorat bozori hajmi 1 milliard dollardan oshgani qayd etilgan. Shu bilan birga, pick-up punktlari va raqamli logistika xizmatlari soni ortib bormoqda. Bu esa yashil logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Jadval 1.An’anaviy va yashil logistika tizimining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	An’anaviy logistika	Yashil logistika
Transport xarajati	Yuqori	Nisbatan past
Karbon chiqindisi	Yuqori	Kam
Yetkazib berish samaradorligi	O‘rtacha	Yuqori
Ekologik ta’sir	Salbiy	Barqaror
Raqamlashtirish darajasi	Past	Yuqori

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, maqolada O‘zbekiston sharoitida smart locker, micro-hub va elektr transport vositalarini integratsiyalash asosida yashil so‘nggi mil logistikasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tizimlashtirildi.

Ilmiy-amaliy takliflar: Birinchidan, yirik shaharlarda smart locker tizimlarini bosqichma-bosqich kengaytirish orqali transport qatnovlari va logistika xarajatlarini kamaytirish mumkin.

Ikkinchidan, shahar hududlarida micro-hublarni tashkil etish ekologik logistika tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ekologik transport vositalaridan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va subsidiyalar mexanizmini joriy qilish zarur.

To‘rtinchidan, logistika kompaniyalarini yagona raqamli platforma orqali integratsiyalash buyurtmalarni boshqarish samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, smart locker, micro-hub va elektr transport vositalari so‘nggi mil logistikasining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda yashil logistika tizimini rivojlantirish uchun zamonaviy logistika infratuzilmasini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish va ekologik transport vositalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gowans, G. (2024). Green Last Mile Europe Report 2024. Trans.info.
2. Tran, T.H., & Bui, N.T. (2020). Smart locker – a sustainable urban last-mile delivery solution. NEU-KKU Conference Proceedings.
3. EU Urban Mobility Observatory. (2025). Microhubs as the future of last-mile logistics.
4. DHL Group. (2024). Green logistics and sustainable delivery systems report.
5. International Energy Agency (IEA). (2019). Uzbekistan: Strategy for transition to a Green Economy (2019–2030).
6. World Bank. (2024). Digital trade and logistics development trends in Central Asia.

HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK BARQARORLIK VA YASHIL IQTISODIYOTNING XIZMATLAR SOHASI BILAN INTEGRATSION O‘RNI

Abdivoxidov Mamurjon Avazxon o‘g‘li - i.f.f.d., dotsent v.b.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
e-mail: abdivoxidovmamurjon@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot va xizmatlar sohasi o‘rtasidagi integratsion bog‘liqlik tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot hududiy xizmatlar sifatini o‘lchash, resurslardan foydalanishni kuzatish va yashil xizmatlar klasterlarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: hududiy rivojlanish, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, xizmatlar sohasi, raqamli xizmatlar, yashil klaster.

Аннотация. В статье анализируется интеграционная связь между экологической устойчивостью, зеленой экономикой и сферой услуг в социально-экономическом развитии регионов. Цифровая экономика рассматривается как инструмент измерения качества региональных услуг, мониторинга использования ресурсов и формирования зеленых сервисных кластеров.

Ключевые слова: региональное развитие, экологическая устойчивость, зеленая экономика, сфера услуг, цифровые услуги, зеленый кластер.

Abstract. The article analyzes the integrative role of environmental sustainability, green economy and the service sector in regional socio-economic development. The digital economy is viewed as a tool for measuring regional service quality, monitoring resource use and forming green service clusters.

Keywords: regional development, environmental sustainability, green economy, service sector, digital services, green cluster.

Kirish

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi faqat ishlab chiqarish hajmi yoki investitsiya oqimi bilan belgilanmaydi. Aholining kundalik hayot sifati, jamoat makonlari qulayligi, transport va savdo infratuzilmasi, turizm muhiti, maishiy xizmatlar, kommunal xizmatlar, raqamli davlat xizmatlari va ekologik xavfsizlik hududiy raqobatbardoshlikning muhim tarkibiga aylanmoqda. Xizmatlar sohasi aynan shu ko‘rsatkichlarni aholiga yaqinlashtiradi. Demografik o‘sish, urbanizatsiya va biznes faolligi kuchaygan hududlarda xizmatlar tizimi ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashmasa, rivojlanish sifati pasayadi.

Yashil iqtisodiyot hududiy rivojlanishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavflarni kamaytirish va iqtisodiy qiymat yaratish o‘rtasidagi

muvozanatni ta’minlaydi. Xizmatlar sohasi esa ushbu muvozanatni amaliy hayotga olib kiradi. Masalan, toza transport, energiya tejamkor mehmonxona, qog‘ozsiz davlat xizmati, chiqindini saralaydigan umumiy ovqatlanish tarmog‘i, suvni tejaydigan maishiy xizmat, yashil jamoat makonlari va elektron savdo logistikasidagi optimallashtirish hududiy yashil iqtisodiyotning kundalik ko‘rinishidir.

Hududiy xizmatlar va ekologik barqarorlik

Hududiy xizmatlar tizimida ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun barcha hududlarga bir xil ko‘rsatkichlar majmuasini mexanik tatbiq etish yetarli emas. Turizm salohiyati yuqori hududlarda mehmonxona, transport, umumiy ovqatlanish va madaniy xizmatlarning ekologik ko‘rsatkichlari ustuvor bo‘ladi. Sanoatlashgan hududlarda logistika, savdo, texnik xizmat va kommunal xizmatlar samaradorligi ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Qishloq tumanlarida esa ichimlik suvi, maishiy xizmatlar, bozor infratuzilmasi, agroservis va raqamli davlat xizmatlariga kirish imkoniyati muhimroqdir. Hududiy differensial yondashuv yashil iqtisodiyot siyosatini aniq natijaga yo‘naltiradi.

Raqamli iqtisodiyot hududiy ekologik barqarorlikni boshqarish uchun axborot asosini yaratadi. Mahallalar, tumanlar va shaharlar kesimida xizmat ko‘rsatish obyektlari soni, xizmatlar hajmi, transport yuklamasi, chiqindi yig‘ish chastotasi, yashil hududlardan foydalanish, elektron xizmatlardan foydalanish ulushi va aholi murojaatlari raqamli tizimda jamlansa, hududiy qarorlar sifat jihatdan o‘zgaradi. Boshqaruv subyekti muammoni umumiy tasavvur asosida emas, vaqt va joyga bog‘langan aniq indikatorlar orqali ko‘radi.

Xizmatlar sohasi hududiy bandlikning keng manbai hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot bilan uyg‘unlashgan xizmatlar yangi mehnat ko‘nikmalarini talab qiladi: energiya auditi, raqamli logistika, ekologik marketing, chiqindilarni saralash, mijozlar oqimini tahlil qilish, yashil sertifikatlash va servis sifatini baholash. Bu jarayon hududiy inson kapitalining yangilanishiga olib keladi. Mahalliy aholi uchun barqaror daromad manbai yaratiladi, yoshlar va ayollar bandligi uchun nisbatan moslashuvchan ish o‘rinlari kengayadi.

Yashil xizmatlar klasteri

Hududiy rivojlanishda yashil xizmatlar klasteri konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Klaster xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar, mahalliy hokimiyat, kommunal tashkilotlar, transport operatorlari, turizm obyektlari, ta’lim muassasalari va raqamli platformalarning o‘zaro bog‘langan faoliyatini anglatadi. Bunday modelda alohida korxona ekologik mas’uliyatni yolg‘iz bajarishga majbur bo‘lmaydi; chiqindi, transport, energiya, axborot va kadrlar masalalari hududiy ekotizim doirasida hal qilinadi.

Yashil xizmatlar klasteri investitsion jozibadorlikni ham oshiradi. Investor yoki tadbirkor hududda sifatli transport, toza jamoat muhiti, raqamli davlat xizmatlari, malakali kadrlar, ochiq ma’lumotlar va ekologik talablarning barqarorligini ko‘rsa, uzoq muddatli loyiha boshlashga ko‘proq moyil bo‘ladi. Ekologik barqarorlik iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiruvchi cheklov emas; aksincha, xizmatlar sifati va hudud imijini yaxshilovchi raqobat ustunligidir.

Hududiy xizmatlar samaradorligini baholashda to‘rtta indikator guruhi muhimdir. Birinchi guruh iqtisodiy ko‘rsatkichlar: xizmatlar hajmi, korxonalar soni, bandlik va tadbirkorlik faolligi. Ikkinchi guruh ekologik ko‘rsatkichlar: energiya, suv, chiqindi, transport va yashil hududlar. Uchinchi guruh raqamli ko‘rsatkichlar: elektron xizmat ulushi, masofaviy to‘lovlar, raqamli murojaatlar va ochiq ma’lumotlar. To‘rtinchi guruh ijtimoiy ko‘rsatkichlar: xizmatlardan foydalanish qulayligi, narx va sifat muvozanati, iste’molchi qoniqishi, inklyuzivlik. Ushbu indikatorlar birgalikda hududiy rivojlanishning sifatini ko‘rsatadi.

1-jadval. Hududiy rivojlanishda yashil-raqamli xizmatlar integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Hududiy mazmuni	Kutiladigan ta’sir
Transport va logistika	jamoat transporti, kuryerlik, turizm tashuvlari va savdo yetkazib berish yo‘nalishlarini raqamli rejalashtirish	yoqilg‘i sarfi, vaqt yo‘qotish va ekologik bosimning kamayishi
Kommunal va maishiy xizmatlar	chiqindi yig‘ish, suv, energiya, obodonlashtirish va sanitariya jarayonlarini elektron kuzatish	hududiy tozalik, resurs tejamkorlik va xizmat intizomining oshishi
Turizm va savdo xizmatlari	mehmonxona, ovqatlanish, savdo obyektlari va madaniy xizmatlarda yashil standartlar	hudud brendi, mijoz qoniqishi va investitsion jozibadorlikning kuchayishi
Raqamli davlat xizmatlari	qog‘ozsiz hujjat, elektron murojaat, masofaviy ruxsatnoma va ochiq ma’lumotlar	aholi va biznes xarajatlarining qisqarishi, boshqaruv shaffofligi

Mazkur yo‘nalishlar xizmatlar sohasini hududiy rivojlanishning passiv elementi emas, ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan amaliy mexanizm sifatida ko‘rsatadi. Integratsion yondashuv xizmatlar sifatini, resurslardan foydalanish intizomini va mahalliy boshqaruv natijadorligini bir tizimga birlashtiradi.

Xulosa va takliflar

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot xizmatlar sohasi orqali real mazmunga ega bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar esa mazkur jarayonning o‘lchov, monitoring va muvofiqlashtirish asosini shakllantiradi. Hududiy xizmatlar ekologik talablarga moslashsa, iqtisodiy o‘sish aholining turmush sifati, ekologik xavfsizlik va tadbirkorlik qulayligi bilan uyg‘unlashadi.

Taklif sifatida hududlar kesimida yashil-raqamli xizmatlar indikatorlarini yuritish, tuman va shaharlar uchun xizmatlar ekologik pasportini shakllantirish, transport va chiqindi boshqaruvini raqamli tizimlar bilan bog‘lash, turizm va savdo obyektlari uchun yashil standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy klasterlar asosida xususiy sektor va hokimiyat hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv hududiy siyosatni umumiy rejadan amaliy natijadorlikka olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qarori. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son Qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son Qarori. Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik axborotlar va tahliliy ma’lumotlar. Toshkent, 2024–2025.
7. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J., Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2014.
8. Porter M., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Journal of Economic Perspectives, 1995.

«УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И «ЗЕЛЕНАЯ» ТРАНСФОРМАЦИЯ: НА ПУТИ К РЕШЕНИЮ ПРАКТИЧЕСКИХ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ»

СамИЭС,
кафедра «Реальная экономика»
И.О.Доцента **Рузиева Н.Б.**

Аннотация. В статье рассматривается переход к устойчивому развитию и «зеленой» экономике, что является не просто глобальным трендом, а жизненной необходимостью. Однако, реализация этих амбициозных целей сопряжена со значительными практическими и методологическими проблемами, преодоление которых требует глубокого анализа и выработки комплексных решений.

Ключевые слова: *государство, зелёная экономика, ресурсы, трансформация, стимулирование, законодательство, развитие, механизмы.*

Практические проблемы «зеленой» трансформации:

1. **Высокая стоимость «зеленых» технологий и перехода:**

- **Первоначальные затраты:** Внедрение новых, более экологичных технологий часто требует значительных начальных инвестиций, которые могут быть неподъемными для многих предприятий, особенно малого и среднего бизнеса, а также для развивающихся стран.
- **Старая инфраструктура:** Существующая инфраструктура (энергетическая, транспортная, промышленная), построенная на основе невозобновляемых ресурсов, требует дорогостоящей модернизации или замены.
- **Проблема «застрявших активов»:** Существующие активы, связанные с ископаемым топливом (шахты, электростанции), могут стать нерентабельными, что создает социально-экономические проблемы в регионах, зависимых от этих отраслей.

2. **Сопротивление изменениям и лоббирование интересов:**

- **Консервативность бизнеса:** Традиционные отрасли, основанные на экстенсивном использовании ресурсов, могут сопротивляться переходу к «зеленой» экономике из-за опасения потери конкурентоспособности или необходимости изменения устоявшихся бизнес-моделей.
- **Влияние лоббистов:** Мощные отрасли, связанные с добычей и переработкой ископаемого топлива, часто оказывают давление на правительства, замедляя принятие «зеленой» политики.
- **Социальные последствия:** «Зеленый» переход может привести к сокращению рабочих мест в традиционных отраслях, требуя программ переквалификации и поддержки для пострадавших работников и сообществ.

3. **Недостаток квалифицированных кадров:**

- **Новые профессии:** Развитие «зеленой» экономики создает спрос на новые специальности (специалисты по возобновляемой энергетике, эко-инженеры, специалисты по переработке отходов), для подготовки которых требуется время и инвестиции в образование.
- **Переквалификация:** Работникам традиционных отраслей требуется переобучение, чтобы адаптироваться к новым условиям.

4.Проблемы с ресурсной базой «зеленых» технологий:

- **Критические минералы:** Производство солнечных панелей, ветряных турбин и аккумуляторов требует добычи редких и редкоземельных металлов, что может порождать новые экологические и геополитические проблемы (истощение ресурсов, загрязнение при добыче, зависимость от стран-поставщиков).
- **Эффективность утилизации:** Технологии переработки отслуживших «зеленых» устройств (например, старых солнечных панелей или аккумуляторов) пока находятся на стадии развития и требуют дальнейшего совершенствования.

5.Международное неравенство и климатическая справедливость:

- **Разрыв между развитыми и развивающимися странами:** Развитые страны, несущие основную историческую ответственность за глобальные выбросы, должны играть ведущую роль в финансировании и передаче технологий развивающимся странам, которые часто наиболее уязвимы к последствиям изменения климата.
- **Справедливое распределение ресурсов:** Вопросы справедливого доступа к «зеленым» технологиям и ресурсам, а также учета интересов наиболее уязвимых стран и сообществ.

Методологические проблемы «зеленой» трансформации:

1. **Измерение и оценка устойчивости:**

- **Сложность индикаторов:** Разработка универсальных и однозначных индикаторов для измерения устойчивости развития и «зелености» экономики остается вызовом. Как учесть все аспекты — экологический, социальный, экономический?
- **«Гринвошинг» (Greenwashing):** Компании могут искусственно создавать впечатление своей экологичности, не предпринимая реальных системных изменений. Разработка точных методологий оценки и верификации является ключевой.
- **Долгосрочный горизонт:** Устойчивое развитие — это долгосрочный процесс, что затрудняет оценку эффективности принимаемых мер в краткосрочной перспективе.

2. **Интеграция экологических и экономических моделей:**

- **Внешние эффекты:** Большинство экологических проблем (загрязнение, изменение климата) являются внешними эффектами, которые не отражаются в рыночных ценах. Моделирование и учет этих экстерналий — сложная задача.

- **Стоимость природы:** Как оценить «стоимость» экосистемных услуг (чистая вода, здоровый воздух, биоразнообразие) и интегрировать ее в экономические расчеты?
- **Динамика перехода:** Моделирование и прогнозирование последствий «зеленого» перехода на экономику, занятость и социальную сферу требует сложных эконометрических и системных подходов.

3. **Разработка комплексных стратегий:**
- **Межсекторальный подход:** «Зеленая» трансформация требует координации усилий между различными секторами экономики и уровнями управления. Разработка целостных, а не фрагментарных стратегий — сложная задача.
- **Адаптивность и гибкость:** Стратегии должны быть достаточно гибкими, чтобы адаптироваться к быстро меняющимся технологиям, рыночным условиям и научным открытиям.
- **Учет региональной специфики:** Универсальные решения не всегда работают. Необходимо разрабатывать методологии, позволяющие адаптировать «зеленые» стратегии к уникальным условиям каждого региона.

4. **Управление рисками и неопределенностью:**
- **Технологические риски:** Не все новые «зеленые» технологии могут оказаться успешными или экономически оправданными.
- **Политические и рыночные риски:** Изменения в государственной политике, колебания цен на сырье и потребительский спрос могут влиять на реализацию «зеленых» проектов.
- **Климатические риски:** Неопределенность в прогнозах изменения климата усложняет планирование и оценку долгосрочных последствий.

Ключ к успеху. Преодоление этих проблем требует:
- **Долгосрочного видения и политической воли:** Государства должны последовательно поддерживать «зеленую» повестку, несмотря на краткосрочные трудности.
- **Инноваций и инвестиций:** Целенаправленная поддержка исследований, разработок и привлечение «зеленых» инвестиций.
- **Открытого диалога и сотрудничества:** Вовлечение всех заинтересованных сторон – бизнеса, науки, гражданского общества, международных партнеров.
- **Гибких и адаптивных методологий:** Постоянное совершенствование инструментов измерения, оценки и планирования.
- **Образования и просвещения:** Повышение осведомленности и формирование нового поколения специалистов и граждан, готовых к «зеленой» трансформации.

Заключение. «Зеленый» переход — это сложный, но неизбежный путь. Осознание и планомерное решение практических и методологических

проблем являются залогом его успешной реализации и построения действительно устойчивого будущего.

YASHIL BANKCHILIK VA EKOLOGIK MOLIYALASHTIRISHNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI

Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti mustaqil izlanuvchisi
University of innovation technology
Moliya va iqtisodiyot kafedrasi assistent-o’qituvchisi
+998932616661
dildorahaydarjonovna@gmail.com
Ruziyev Jonibek
University of innovatision technology talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda yashil bankchilik va ekologik moliyalashtirishning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, O‘zbekiston bank tizimida yashil kreditlashning rivojlanish tendensiyalari hamda xalqaro tajribalar asosida ekologik investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: yashil bankchilik, ekologik moliyalashtirish, yashil kredit, barqaror rivojlanish, ekologik investitsiyalar, bank tizimi.

Аннотация: В данной статье анализируются роль зелёного банкинга и экологического финансирования в устойчивом экономическом развитии, тенденции развития зелёного кредитования в банковской системе Узбекистана, а также влияние экологических инвестиций на экономическую эффективность на основе международного опыта.
Ключевые слова: зелёный банкинг, экологическое финансирование, зелёное кредитование, устойчивое развитие, экологические инвестиции, банковская система.

Abstract: This thesis analyzes the role of green banking and environmental financing in sustainable economic development, the development trends of green lending in the banking system of Uzbekistan, and the impact of ecological investments on economic efficiency based on international experience.
Keywords: green banking, environmental financing, green lending, sustainable development, ecological investments, banking system.

Bugungi kunda ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari jahon iqtisodiyotining eng dolzarb yo‘nalishlariga aylandi. Shu sababli, global bank-moliya tizimida “yashil bankchilik” (Green Banking) konsepsiyasi keng rivojlanmoqda. Yashil bankchilik ekologik toza, energiya tejamkor va kam uglerodli loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o‘sish hamda ekologik barqarorlikni parallel ravishda ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM), ekologik transport hamda energiya samaradorligini oshirish loyihalarini moliyalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mahalliy tijorat banklari tomonidan yashil kreditlash hajmining ortib borayotgani mamlakat iqtisodiyotida ekologik moliyalashtirishning o‘rni va ahamiyati tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Asosiy qism: Yashil bankchilik iqtisodiyotning ekologik xavfsiz rivojlanishida eng muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda yetakchi tijorat banklari va xalqaro moliya institutlari yashil obligatsiyalar (Green Bonds), ekologik kreditlar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yashil investitsiyalar orqali yirik ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Bunday zamonaviy moliyaviy instrumentlar atmosferaga chiqarilayotgan uglerod chiqindilarini kamaytirish, sanoatda energiya samaradorligini oshirish va muqobil energetika tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy drayveridir.

O‘zbekiston moliya bozorida ham 2023–2026-yillar davomida yashil moliyalashtirish hajmining sezilarli darajada o‘sishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, xonadonlar va tadbirkorlik subyektlarida quyosh panellari, shamol elektr stansiyalari hamda ekologik transport vositalarini (elektromobillarni) moliyalashtirish bo‘yicha bank xizmatlari ko‘lami kengaymoqda. Bu jarayonlar iqtisodiyotning barqaror va diversifikatsiyalangan holda o‘sishiga hamda milliy ekologik xavfsizlikni ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro manbalar asosidagi statistik ma’lumotlar tahlili (2023–2026).



Xalqaro manbalar asosidagi statistik ma’lumotlar tahlili (2023–2026)

Xalqaro moliya institutlarining hisobotlariga ko‘ra, yashil moliyalashtirish hajmi jahon miqyosida jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda:

Jahon banki (World Bank) ma’lumotlariga ko‘ra, global yashil investitsiyalar hajmi 2023-yilda 1,8 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yil yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkichning 3,2 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu holat ekologik loyihalarga yo‘naltirilayotgan xususiy va davlat kapitallari oqimining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) statistikalariga ko‘ra, global yashil obligatsiyalar bozori hajmi 2023-yilda 600 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, 2026-yil oxiriga borib u 1 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Bu esa xalqaro kapital bozorlarida ekologik loyihalarni moliyalashtirishning qimmatli qog‘ozlar mexanizmi kengayayotganini anglatadi.

Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hisobotlariga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar 2023-yildagi 500 milliard dollardan 2026-yilda 900 milliard dollargacha oshishi prognoz qilingan. Ayniqsa, quyosh va shamol energetikasiga ajratilayotgan mablag‘lar Osiyo mamlakatlarida energiya xavfsizligi va iqlimiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

BMT Atrof-muhit dasturining Moliya tashabbusi (UNEP Finance Initiative) hisobotlariga ko‘ra, an’anaviy banklar orqali ajratilayotgan yashil kreditlar hajmi muntazam ravishda oshmoqda. 2023-yilda yashil kreditlar hajmi 1,2 trillion dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2026-yil yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkich 2,2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Bu banklarning kredit portfelida "ekologik mas’uliyat" omili kuchayayotganidan dalolat beradi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) ma’lumotlarida ham yashil iqtisodiyot (Green Economy Transition) loyihalariga ajratilayotgan investitsiyalar ulushi geyometrik progressiyada o‘sayotgani qayd etilgan. Uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan transmilliy dasturlar bugungi kunda xalqaro iqtisodiy siyosatning eng ustuvor qismiga aylandi.

Umuman olganda, xalqaro statistik ko‘rsatkichlar yashil bankchilik va ekologik moliyalashtirishning istiqbolda ham jadal rivojlanishini ko‘rsatmoqda. Ushbu global tendensiya nafaqat sof ekologik muammolarni bartaraf etishga, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, sanoatda energiya sarfini kamaytirish, yangi "yashil" ish o‘rinlarini yaratish hamda mamlakatlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston moliya-bank tizimi uchun ham ushbu xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish va mahalliy sharoitga adaptatsiya qilish muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Yashil bankchilik va ekologik moliyalashtirish tizimi O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Bank tizimida yashil kreditlash instrumentlarining faol joriy etilishi va ular hajmining ortishi mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlash, energiya taqchilligini kamaytirish hamda xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini oshirishga imkon beradi.

Kelgusida yashil bankchilik infratuzilmasini yanada takomillashtirish, yashil obligatsiyalar emissiyasini yo‘lga qo‘yish orqali O‘zbekistonning xalqaro moliya

bozorlaridagi reytingi va raqobatbardoshligini oshirish, ekologik barqaror iqtisodiyotni shakllantirish hamda pirovardida aholi farovonligini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Bank. *Green Finance Development Report*. – Washington D.C., 2023.
2. OECD. *Green Finance and Sustainable Economy: Trends and Challenges*. – Paris, 2024.
3. Asian Development Bank. *Sustainable Banking and Investment Report in Asia*. – Manila, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari va tahliliy hisobotlari. – Toshkent, 2024.
5. UNEP Finance Initiative. *Green Banking Framework and Principles for Responsible Banking*. – Geneva, 2023.
6. EBRD. *Green Economy Transition (GET) Report*. – London, 2024.
7. IMF. *Climate Finance and Sustainable Development Report*. – Washington D.C., 2024.
8. International Energy Agency (IEA). *World Energy Investment Report*. – Paris, 2024.
9. UNDP. *Green Economy and Sustainable Growth Framework*. – New York, 2023.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlari.

AGROTURIZM XIZMATLARINI BOSHQARISHNI INNOVATSION YO‘LLARI

Jurakulova Sarvinoz Baxtiyor qizi
Zarmed universiteti Iqtisodiyot
va moliya kafedrasi o‘qtuvchisi
Email: sarvinozjurakulova@gmail.com
Tel: +998 97 916 51 56

Annotatsiya. Ushbu maqolada agroturizm xizmatlarini boshqarishda zamonaviy innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, marketing strategiyalari hamda hududiy resurslardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Agroturizm nafaqat qishloq hududlari iqtisodiyotini rivojlantiruvchi omil, balki ekologik muhitni yaratish, milliy madaniyatni targ‘ib qilish va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Ilmiy ishimizda xizmatlar sifatini oshirish, turistlar ehtiyojini chuqur o‘rganish, onlayn xizmatlarni boshqarish tizimlari va innovatsion servislar orqali agroturizm samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: agroturizm, innovatsion boshqaruv, raqamli marketing, qishloq turizmi, aqlli texnologiyalar, xizmat sifati.

Аннотация. В данной статье анализируются современные инновационные подходы, цифровые технологии, маркетинговые стратегии, а также вопросы эффективного использования региональных ресурсов в управлении услугами агротуризма. Агротуризм является не только фактором развития экономики сельских территорий, но и важным инструментом создания экологической среды, продвижения национальной культуры и создания новых рабочих мест. В научной работе освещаются пути повышения эффективности агротуризма посредством улучшения качества услуг, глубокого изучения потребностей туристов, внедрения систем онлайн-управления услугами и инновационных сервисов.

Ключевые слова: агротуризм, инновационное управление, цифровой маркетинг, сельский туризм, умные технологии, качество услуг.

Annotation. This article analyzes modern innovative approaches, digital technologies, marketing strategies, and the effective use of regional resources in the management of agritourism services. Agritourism is not only a factor that contributes to the economic development of rural areas, but also an important tool for creating an ecological environment, promoting national culture, and generating new employment opportunities. The study highlights ways to improve agritourism efficiency through enhancing service quality, deeply understanding tourists’ needs, online service management systems, and innovative services.

Keywords: agritourism, innovative management, digital marketing, rural tourism, smart technologies, service quality.

Bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, agroturizm qishloq hududlarining tabiiy, madaniy va ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanib, turistlarga ekologik toza dam olish va milliy qadriyatlar bilan tanishish imkonini beradi. O‘zbekistonning boy qishloq xo‘jaligi salohiyati, milliy urf-odatlari va tabiiy resurslari agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda O‘zbekiston iqtisodiyoti bosqichma-bosqich innovatsion yo‘lga o‘tmoqda. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi nafaqat sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini, balki turizm tizimini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Turizm tarmog‘i respublika iqtisodiyotida yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli agroturizm xizmatlarini boshqarishda innovatsion usullarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lib, mezo va makro darajadagi turistik hududlar o‘rtasidagi keskin raqobat sharoitida barqaror raqobatbardoshlikka erishish uchun innovatsion xizmat ko’rsatish sohalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi turistik hududlarning barqaror raqobatbardoshligini ta’minlash hamda ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini

oshirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda Prezident farmonlari, hukumat qarorlari hamda “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida turizmni innovatsion rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, raqamli turizm tizimlari, aqlli shahar (Smart City) va Smart Tourism platformalari orqali turistlarga qulay xizmatlar yaratish, mobil ilovalar va virtual gid tizimlari orqali turistik axborotni tezkor yetkazish amaliyoti kengaymoqda.

2024 yil yakunlariga ko‘ra, turizm sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar global yalpi ichki mahsulotning 10,0 foizini tashkil etib, ularning umumiy qiymati 9,2 trillion AQSh dollariga yetgan. Shu bilan birga, mazkur sohada to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita tarzda 357 milliondan ortiq inson band bo‘lib, har o‘nta ish o‘rnidan biri turizm sohasi bilan bog‘liqdir. Shunday ekan, turizm sohasini global miqyosda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlagan holda strategik rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa turistik hududlarni barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida istiqbolga yo‘naltirilgan boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Agroturizm - qishloq joylarining tabiiy, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va boshqa resurslaridan foydalangan holda kompleks turizm mahsulotini yaratuvchi turizm industriyasining tarmog‘idir. Uning tarkibiy qismlari qishloq joylarida dam olish faoliyatining barcha turlari hisoblanadi. Turizmning ushbu turining majburiy sharti quyidagilardan iborat: turistlar qishloq uylarida yoki mulklarida yashashlari kerak. Uning boshqaruvi quyidagi yo‘nalishlarda: xizmatlar sifati nazorati; turistlar oqimini boshqarish; infratuzilmani rivojlantirish; marketing va reklama faoliyati; ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va boshqalarni misol qilsak bo’ladi. Ammo bugungi raqobat muhitida ushbu an’anaviy boshqaruv usullari yetarli emas. Shu bois agroturizmda innovatsion boshqaruv tizimlari zarur.

Agroturizm boshqaruvida innovatsion yo‘llardan biri bu raqamli platformalar va onlayn boshqaruv tizimlari hisoblanadi. Agroturizm obyektlarini boshqarishda mobil ilovalar, mehmonxonalarni bron qilish platformalari, korxona yoki xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotning mijozlar haqidagi ma’lumotlarini yig‘ish, saqlash, tahlil qilish va ular bilan samarali ishlashga yordam beradi va ushbu tizimlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Ekologik va edukatsion xizmatlarni integratsiya qilish. Zamonaviy turist nafaqat dam olishni, balki yangi bilim olishni ham xohlaydi. Shu sababli: organik dehqonchilik master-klasslar yaratish, milliy taom tayyorlash, chorvachilik jarayonlarida ishtirok, ekologik treninglar o’tkazish kabi xizmatlar innovatsion mahsulot sifatida taklif etilishi mumkin.

Klaster yondashuvi Fermer xo‘jaliklari, hunarmandlar, transport xizmatlari, oziq-ovqat ishlab chiqarish, mehmonxona xizmatlari va mahalliy hokimiyat o‘rtasidagi hamkorlik orqali yagona tizimda boshqarish mumkin va bu agroturizm klasterini yaratadi. Bu model iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, yangi ish o’rinlarini yaratadi, kompleks xizmat ko’rsatish va eksportbop turistik mahsulot yaratish imkonini beradi. Bu orqali hududiy brend yaratilib, investitsiya jalb qilish mumkin.

O‘zbekistonda Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg‘ona vodiysi kabi hududlar agroturizm uchun katta salohiyatga ega. Xozirda mavjud muammolar ya’ni infratuzilma yetishmasligi, raqamli savodxonlikning pastligi, investitsiya kamligi, xalqaro reklama sustligi kabi kamchiliklar bartaraf etilsa, Innovatsion boshqaruv orqali yuqori natijalarga erishiladi. Bu orqali aholi turmush darajasi oshishiga, yangi ish o‘rinlar yaratilishi, mahalliy aholi daromadi oshishi, qishloq infratuzilmasi rivoji, milliy brend shakllanishi, ekologik turizm kengayishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida agroturizm xizmatlarini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish O‘zbekiston uchun muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Agroturizm nafaqat qishloq hududlarining tabiiy va madaniy salohiyatidan samarali foydalanish, balki aholi bandligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy daromad manbalarini kengaytirish hamda hududiy infratuzilmani yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli savodxonlikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro marketingni kuchaytirish orqali agroturizmni innovatsion boshqarish mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqaror rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2019–2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari va statistik hisobotlari. – Toshkent, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Turizm va xizmatlar sohasi bo‘yicha yillik statistik to‘plam*. – Toshkent, 2024.
4. Qishloq xo‘jaligi vazirligi. *Qishloq hududlarini rivojlantirish va agroturizm salohiyati bo‘yicha tahliliy hisobot*. – Toshkent, 2023.
5. Hasanov, S., Karimov, B. *O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish istiqbollari*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.
6. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiya hujjatlari. – Toshkent, 2022.

SUN’IY INTELEKTNING INSONIYAT VA MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI

Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti mustaqil izlanuvchisi
University of innovation technology
Moliya va iqtisodiyot kafedrasi assistent-o’qituvchisi
+998932616661
dildorahaydarjonovna@gmail.com
Maxmayoquboy Dadajon
University of innovation technologies talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining insoniyat ijtimoiy hayoti va global mehnat bozoriga ko‘rsatayotgan tizimli ta’siri makroiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Sun’iy intellektning turli iqtisodiy sohalarda qo‘llanilishi, uning samaradorlikni oshirishdagi ijobiy oqibatlari va ishsizlik xavfi bilan bog‘liq salbiy jihatlari ilmiy asoslangan. Shuningdek, avtomatlashtirish jarayonining mehnat bozoriga ta’siri, an’anaviy kasblarning qisqarishi hamda raqamli iqtisodiyot talablariga mos yangi kasb turlarining paydo bo‘lish dinamikasi tadqiq etilgan. Zamonaviy texnologiyalar sharoitida inson kapitalini rivojlantirish hamda yangi kompetensiya va ko‘nikmalarni (Lifelong Learning) egallash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mehnat bozori, avtomatlashtirish, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, robototexnika, mashinali o‘qitish, inson kapitali, tarkibiy ishsizlik**.**

Аннотация. В данной статье анализируется системное влияние технологий искусственного интеллекта на социальную жизнь человечества и глобальный рынок труда с макроэкономической точки зрения. Научно обоснованы применение искусственного интеллекта в различных сферах экономики, его положительные последствия в повышении эффективности и негативные аспекты, связанные с риском безработицы. Также исследовано влияние автоматизации на рынок труда, сокращение традиционных профессий и динамика появления новых видов занятости, отвечающих требованиям цифровой экономики. Обоснована необходимость развития человеческого капитала в условиях современных технологий и приобретения новых компетенций.

Ключевые слова: искусственный интеллект, рынок труда, автоматизация, инновации, цифровая экономика, робототехника, машинное обучение, человеческий капитал.

Abstract. This article analyzes the systemic impact of artificial intelligence technologies on human social life and the global labor market from a macroeconomic perspective. The application of artificial intelligence in various

economic sectors, its positive outcomes in increasing productivity, and negative aspects associated with unemployment risks are scientifically substantiated. Furthermore, the impact of automation on the labor market, the reduction of traditional occupations, and the dynamics of the emergence of new professions meeting the requirements of the digital economy are investigated. The necessity of developing human capital and acquiring new competencies under modern technological conditions is comprehensively justified.

Keywords: artificial intelligence, labor market, automation, innovation, digital economy, robotics, machine learning, human capital, structural unemployment.

KIRISH

XXI asr — yuqori texnologiyalar va global raqamlashtirish davri bo‘lib, bu bosqichda sun’iy intellekt (SI) insoniyat faoliyatining deyarli barcha sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Sun’iy intellekt tizimlari ulkan hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) soniyalar ichida tahlil qilish, optimallashtirilgan qarorlar qabul qilish va murakkab algoritmlarga asoslangan vazifalarni yuqori aniqlikda bajarish orqali an’anaviy iqtisodiy modellarni tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda SI tizimlari tibbiyot, ta’lim, sanoat, logistika va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida iqtisodiy drayver rolini o‘ynamoqda.

Muammoning qo‘yilishi. Sun’iy intellekt va robototexnikaning ishlab chiqarishga keng miqyosda tatbiq etilishi (Sanoat 4.0) mehnat bozorida jiddiy tarkibiy o‘zgarishlarni (structural shifts) yuzaga keltirmoqda. Avtomatlashtirish jarayoni an’anaviy, takrorlanuvchi va mexanik mehnatga asoslangan ko‘plab kasb turlarining qisqarishiga va tarkibiy ishsizlikning ortishiga zamin yaratmoqda [2: 45]. Shuning bilan bir vaqtda, yuqori intellektual va texnologik kompetensiyalarni talab etuvchi mutaxassisliklarga bo‘lgan global talab keskin ortmoqda [1: 12]. Masalaning ilmiy hamda amaliy jihatdan yechim kutayotgan eng muhim qismi — inson mehnatining intellektual salohiyati bilan sun’iy intellekt imkoniyatlarini optimal uyg‘unlashtiruvchi muvozanat modelini shakllantirish hamda ta’lim tizimini ushbu talablarga mos ravishda transformatsiya qilish hisoblanadi.

METODOLOGIYA VA ASOSIY QISM

Sun’iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan kognitiv funksiyalarni, ya’ni o‘rganish, mantiqiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal qilish va adaptatsiya jarayonlarini imitatsiya qilish qobiliyatidir. Olib borilgan tadqiqotlar va xalqaro tajriba tahlillari shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari iqtisodiyot tarmoqlarida ijtimoiy-iqtisodiy multiplikativ effekt hosil qilmoqda:

1. **Tibbiyot sohasida:** Kasalliklarni onkologik va kardiologik mikrodarajada erta aniqlash, murakkab rentgenogramma hamda MRT ma’lumotlarini tahlil qilish va differensial tashxis qo‘yish tezligini oshirmoqda.
2. **Ta’lim sohasida:** Har bir o‘quvchi va talabaning shaxsiy o‘zlashtirish tezligiga moslashtirilgan individual ta’lim traektoriyalarini (adaptive learning) yaratish imkonini bermoqda.

3. **Sanoat va servisda:** Ishlab chiqarish liniyalarida inson ishtirokini kamaytirgan holda nuqsonli mahsulotlar ulushini minimallashtirmoqda, moliya va bank sohasida esa mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimlarini (chat-botlar, skoring tizimlari) to‘liq avtomatlashtirmoqda [4: 34].

Mehnat bozoriga ta’sir nuqtai nazaridan yondashilganda, sun’iy intellekt ishchi kuchini butunlay yo‘q qiluvchi kuch emas, balki mehnat tarkibini qayta shakllantiruvchi katalizator hisoblanadi. Ushbu jarayonning mantiqiy-struktura modeli quyidagi ko‘rinishga ega:



1-rasm. Sun’iy intellekt ta’sirida mehnat bozorining transformatsiyalashuv modeli

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan makroiqtisodiy tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari mehnat unumdorligini global miqyosda o‘rtacha 30-40 foizga oshirish salohiyatiga ega. Biroq bu jarayon mehnat resurslarining asimmetrik taqsimlanishiga olib keladi. Ya’ni, intellektual bo‘lmagan kasb egalari o‘rtasida raqobat kuchayib, ularning daromad darajasi pasayishi mumkin, intellektual mehnat vakillarining (high-skilled labor) esa iqtisodiy qiymati keskin ortadi.

Muhokama jarayonida aniqlandiki, SI inson aqlini to‘liq almashtira olmaydi. Tizim mantiqiy va matematik algoritmlarni mukammal bajarsa-da, insonga xos bo‘lgan tanqidiy fikrlash (critical thinking), ijodkorlik (creativity), hissiy intellekt (emotional intelligence) hamda nostandart vaziyatlarda strategik qaror qabul qilish qobiliyatlariga ega emas. Shu sababli, yaqin kelajakda mehnat bozoridagi eng muvaffaqiyatli tendensiya — inson va sun’iy intellektning simbioz hamkorligi (*Augmented Intelligence*) bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasi va iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichidir. U ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va global muammolarga optimal yechim topishda eng samarali yordamchi vositadir.

Mehnat bozoridagi tarkibiy muammolarning (ishsizlik, kasblar qisqarishi) oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

- Milliy ta’lim tizimini raqamli iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili yo‘nalishlarini tubdan kengaytirish;
- Qisqarish xavfi ostida bo‘lgan kasb egalari uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida qayta tayyorlash (*Reskilling*) va malaka oshirish (*Upskilling*) tizimli kurslarini tashkil etish;
- Jamiyatda raqamli savodxonlik hamda texnologik bilimlarni doimiy rivojlantirish madaniyatini (*Lifelong Learning*) shakllantirish**.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurazaqova S. R. *Sun’iy intellekt va inson faoliyatining mehnat bozoridagi o‘rni: ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlar*. // International Journal of Science and Technology. – 2025. – B. 12-18.
2. Ergashev B. Q. *Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri*. // “Vatanga sodiq inson” ilmiy jurnali. – 2025. №1. – B. 44-50.
3. Otabek Eshquvvatov. *Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri*. // Science Shine International Scientific Journal. – 2024. Vol. 3. – B. 85-91.
4. Muhammadiyev D. Y. *Sun’iy intellektning iqtisodiyotga ta’siri: yangi imkoniyatlar va muammolar*. // “Nauka va innovatsiya” jurnali. – 2024. №4. – B. 32-39.

SAVDO KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA FORSAYT (FORESIGHT) AMALIYOTINI QO‘LLANILISHI

Toxirova Gullola Mirkamolovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Menejment” kafedrasi o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi
mraxmatovd@gmail.com
+998 99 449 40 09

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sharoitida savdo korxonalarining faoliyatini ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida transformatsiya qilish masalalari tadqiq etilgan. Savdo sohasida strategik rejalashtirish va kelajakni modellashtirishning zamonaviy vositasi sifatida forsayt (foresight) amaliyotini qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, sohada "yashil" texnologiyalarni joriy etishning amaliy

yechimlari, xalqaro statistik ma’lumotlar hamda hududiy rivojlanishga ta’siri bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, forsayt amaliyoti, savdo korxonalari, strategik prognozlash, hududiy rivojlanish, "yashil" logistika, uglerod neytralligi.

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы трансформации деятельности торговых предприятий на основе принципов экологической устойчивости и «зеленой» экономики в контексте социально-экономического развития регионов. Подробно анализируются возможности применения практики форсайта (foresight) как современного и эффективного инструмента стратегического планирования, а также моделирования долгосрочных сценариев будущего в сфере торговли. Наряду с этим, предложены конкретные практические решения по внедрению ресурсосберегающих технологий в отрасль и выдвинуты научно обоснованные рекомендации, направленные на повышение экологической стабильности регионов.

Ключевые слова: зеленая экономика, экологическая устойчивость, практика форсайта, торговые предприятия, стратегическое прогнозирование, региональное развитие, «зеленая» логистика, углеродная нейтральность, устойчивое потребление.

Abstract. This article examines the issues of transforming the operations of trade enterprises based on the principles of environmental sustainability and the "green" economy within the context of regional socio-economic development. It analyzes the feasibility of applying foresight practice as a modern and effective tool for strategic planning and modeling long-term future scenarios in the retail and commercial sectors. Furthermore, concrete practical solutions for integrating resource-saving technologies into the industry are proposed, alongside scientifically grounded recommendations aimed at enhancing regional environmental stability.

Keywords: green economy, environmental sustainability, foresight practice, trade enterprises, strategic forecasting, regional development, green logistics, carbon neutrality, sustainable consumption.

Kirish

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishlari va resurslarning cheklanganligi sharoitida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish modeli tubdan o‘zgarmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) hisobotlariga ko‘ra, global miqyosda savdo va logistika tarmoqlari umumiy issiqxona gazlari emissiyasining qariyb 15-18 foiziga javobgardir. Shu sababli, hududiy infratuzilmaning asosi bo‘lgan savdo korxonalarini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida qayta qurish o‘ta dolzarb vazifadir.

O‘zbekiston Respublikasida ham 2030-yilgacha bo‘lgan davrda yashil iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish strategiyasi doirasida energiya samaradorligini 2 barobarga oshirish va havoga ajraladigan zararli gazlarni 35 foizga kamaytirish maqsad qilingan. Hududlarni rivojlantirishda savdo

korxonalarini uzoq muddatli ekologik strategiya asosida boshqarish uchun an’anaviy va faqat qisqa muddatli prognozlarga tayanuvchi modellar yetarli emas. Bu borada kelajakni tizimli modellashtirish, xavf-xatarlarni oldindan ko‘rish va uzoq muddatli yechimlarni shakllantirish imkonini beruvchi forsayt amaliyotini qo‘llash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Forsayt metodologiyasi kelajakni shunchaki passiv bashorat qilish emas, balki uni faol tarzda modellashtirish san’atidir. Bu borada taniqli olim B.Martin o‘zining tadqiqotlarida forsaytga quyidagicha ta’rif beradi: *"Forsayt — bu uzoq muddatli istiqbolda fan, texnologiya, iqtisodiyot va jamiyatning kelajagini tizimli ravishda o‘rganish bo‘lib, undan maqsad eng katta iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradigan strategik tadqiqotlar va strategik texnologiyalarni aniqlashdir"* [1].

Yashil iqtisodiyot zanjirida savdo va iste’mol muvozanatini tadqiq etgan iqtisodchi P.Hawken esa shuni ta’kidlaydi: *"Biz biznesning tabiatini o‘zgartirishimiz kerak, u resurslarni faqat yutuvchi emas, balki ularni qayta tiklovchi ekotizimga aylanishi shart"* [2].

O‘zbekistonlik olimlardan Sh.Mustafakulov o‘z ilmiy ishlarida hududlarning investitsiyaviy va iqtisodiy jozibadorligini oshirishda infratuzilma tarmoqlarining ekologik barqarorligi eng muhim mezonlardan biriga aylanib borayotganini isbotlagan [3]. Biroq, savdo korxonalarida "yashil" konsepsiyalarni forsayt texnologiyalari orqali hududiy miqyosda modellashtirish masalalari kompleks ravishda yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi va statistik tahlil

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, ekspert so‘rovnomalari (Delphi usuli) va ssenariylar rejalashtirish (Scenario Planning) metodlaridan foydalanildi.

Xalqaro ekspertiza va McKinsey & Company konsalting kompaniyasining global tahliliy ma’lumotlariga ko‘ra, iste’molchilarning ekologik mas’uliyati keskin ortib bormoqda. 2024–2025-yillardagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iste’molchilarning 66 foizi (yoshlar o‘rtasida esa 75 foizi) agar mahsulot yoki uni sotayotgan korxona ekologik barqarorlik qoidalariga (yashil qadoq, qayta tiklanuvchi energiya) rioya qilsa, ushbu mahsulot uchun ko‘proq haq to‘lashga tayyor [4].

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida savdo sohasining ulushi 10-12 foiz atrofida tebranib turadi [5]. Ushbu ulkan tarmoqning energiya iste’moli va chiqindi hosil qilish hajmi ham hududiy ekologiyaga katta yuklama beradi. Chaqana va ulgurji savdo korxonalarida energiya sarfini optimallashtirish forsayt strategiyasining bosh maqsadi hisoblanadi.

Forsayt amaliyotining ssenariylar usuli yordamida hududiy savdo korxonalarining 2035-yilgacha bo‘lgan rivojlanish tendensiyalari modellashtirildi va quyidagi natijalar olindi (1-jadval).

1-jadval.

Savdo korxonalarida an’anaviy boshqaruv va "Yashil forsayt" modelining qiyosiy ko‘rsatkichlari (2026–2035-yy. istiqboli)

Tahlil mezonlari	An’anaviy model (Inersiyaviy rivojlanish)	Yashil forsayt modeli (Progressiv strategiya)	Hududiy va iqtisodiy samaradorlik (Kutilayotgan natija)
Energiya resurslaridan foydalanish	Standart tarmoq, an’anaviy energiya sarfi yuqori.	Muqobil energiya (quyosh panellari) va aqlli LED tizimlari.	Energiya xarajatlarining **35-40% gacha** qisqarishi.
Logistika va CO_2 emissiyasi	Yoqilg‘i sarfi yuqori, marshrutlar optimallashtirilmagan.	Elektromobillar va sun’iy intellektli "Yashil logistika".	Havoga ajraladigan uglerod hajmining **25% ga** kamayishi.
Chiqindilarni boshqarish	Saralanmagan qattiq maishiy chiqindilar (polietilen).	"Zero Waste" — 90% qayta ishlanadigan bio-qadoqlar.	Utilizatsiya xarajatlarining **50% ga** tejalishi.
Mijozlar sadoqati va savdo hajmi	Barqaror, o‘zgarishsiz.	"Eco-friendly" brend maqomi, yuqori jozibadorlik.	Hududiy xaridorlar oqimining **18-22% ga** ortishi.

[5] United Nations Framework Convention on Climate Change. Uzbekistan Third Nationally Determined Contribution, 2025.
[6] World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC: World Bank, 2023.
[7] OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025.
[8] Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: darslik. Toshkent: Universitet, 2020.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ ЗЕЛЕНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi, PhD
Email: erdonovmuhammad@gmail.com

Abstract. The thesis considers improvement of state and regional strategies for green transformation. It argues that strategic documents should contain not only general environmental goals but also a clear system of indicators, financing sources, responsible executors and monitoring procedures. The study emphasizes the coordination of national priorities with regional development needs and the practical implementation of green transformation at the local level.

Keywords: state strategy, regional development, green indicators, governance, monitoring, sustainable development

Аннотация. В тезисе рассматриваются вопросы совершенствования государственных и региональных стратегий зеленой трансформации. Обосновано, что стратегические документы должны включать не только общие экологические цели, но и четкую систему показателей, источников финансирования, ответственных исполнителей и процедур мониторинга. Подчеркнута необходимость согласования национальных приоритетов с потребностями регионального развития.

Ключевые слова: государственная стратегия, региональное развитие, зеленые индикаторы, управление, мониторинг, устойчивое развитие

Annotatsiya. Tezisda yashil transformatsiya bo‘yicha davlat va hududiy strategiyalarni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Strategik hujjatlar

umumiy ekologik maqsadlargina emas, aniq indikatorlar tizimi, moliyalashtirish manbalari, mas’ul ijrochilar va monitoring tartiblarini ham qamrab olishi zarurligi asoslanadi. Milliy ustuvorliklarni hududiy rivojlanish ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish va mahalliy darajada amaliy ijroni kuchaytirish yo‘nalishlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: davlat strategiyasi, hududiy rivojlanish, yashil indikatorlar, boshqaruv, monitoring, barqaror rivojlanish

Введение

Государственные стратегии играют ключевую роль в зеленой трансформации, поскольку именно они задают долгосрочные ориентиры для отраслей, регионов, бизнеса и финансовых институтов. Однако стратегический документ становится эффективным только тогда, когда его цели переведены в измеримые показатели, обеспечены финансовыми ресурсами и включены в систему ответственности. Без этого зеленая повестка может оставаться набором отдельных инициатив.

Узбекистан последовательно формирует нормативную основу зеленого развития: стратегия перехода к зеленой экономике на 2019-2030 годы, меры 2022 года по повышению эффективности реформ, Стратегия “Узбекистан — 2030” и государственная программа 2025 года создают взаимосвязанную правовую базу [1; 2; 3; 4]. Следующий этап заключается в повышении управленческой согласованности и практической измеримости стратегий.

Методология

Методология тезиса основана на анализе стратегического управления, институционального подхода, изучении нормативных документов и принципах управления по результатам. Совершенствование стратегий рассмотрено через четыре элемента: целевая иерархия, система индикаторов, финансовое обеспечение и мониторинг исполнения. Эти элементы должны формировать единый управленческий цикл.

Анализ и результаты

Первый элемент — целевая иерархия. Национальные цели по снижению углеродоемкости, развитию возобновляемой энергетики, повышению энергоэффективности и экологической устойчивости должны быть разложены на отраслевые и региональные задачи. Если региональные программы не отражают национальные зеленые цели, возникает разрыв между стратегическим планированием и практикой. Поэтому требуется вертикальная согласованность документов: от национальной стратегии до районных программ.

Второй элемент — показатели. Для зеленой трансформации недостаточно учитывать количество проведенных мероприятий или объем освоенных средств. Необходимы индикаторы результата: снижение энергоемкости, уменьшение потерь воды, рост переработки отходов,

увеличение зеленых рабочих мест, развитие устойчивого транспорта и сокращение экологических рисков. Такие показатели позволяют оценивать не активность органов управления, а реальное изменение качества развития.

Третий элемент — финансовое обеспечение. Зеленая стратегия требует сочетания бюджетных средств, международного финансирования, частных инвестиций и механизмов государственно-частного партнерства. Перспективными инструментами являются зеленые облигации, льготные кредиты, гарантии, субсидии на ресурсосберегающие технологии и подготовка к участию в углеродных рынках. Важное условие — связь финансирования с подтверждаемым экологическим эффектом.

Четвертый элемент — мониторинг и открытость. Регулярная публикация зеленых показателей по регионам и отраслям повышает прозрачность политики, улучшает общественный контроль и создает информационную базу для науки и бизнеса. Цифровая платформа мониторинга могла бы объединить данные по энергетике, воде, отходам, транспорту, зеленым инвестициям и климатическим рискам. Это особенно важно для регионов, где экологические вызовы имеют различный характер.

Заключение и предложения

В заключение следует отметить, что совершенствование стратегий зеленой трансформации требует перехода от программного описания к управлению по результатам. Стратегии должны быть согласованы по вертикали, подкреплены ресурсами и основаны на измеримых индикаторах. Только в этом случае зеленая трансформация станет устойчивой частью экономической политики.

Практические предложения включают разработку национальной панели зеленых индикаторов, введение региональных паспортов зеленого развития, привязку финансирования к экологическому эффекту, усиление межведомственной координации и создание открытой цифровой системы мониторинга. Такой подход позволит повысить эффективность государственных и региональных стратегий.

Литература

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года № ПП-4477 «Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан к зеленой экономике на период 2019-2030 годов».

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года № ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к зеленой экономике до 2030 года».

[3] Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии “Узбекистан — 2030”».

[4] Указ Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан — 2030” в Год охраны окружающей среды и зеленой экономики».
[5] United Nations Framework Convention on Climate Change. Uzbekistan Third Nationally Determined Contribution, 2025.
[6] World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC: World Bank, 2023.
[7] OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025.
[8] Вахабов А.В., Хаджибакиев Ш.Х. и др. Зеленая экономика: учебник. Ташкент: Университет, 2020.

BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL RANSFORMATSIYANINNG NAZARIY, AMALIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI

Shermatov Ahror Abdihakimovich –
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning nazariy asoslari, amaliy muammolari hamda metodologik yondashuvlari keng ko`lamda tahlil etilgan. Tadqiqotda yashil iqtisodiyotga o`tishning ob`ektiv zaruriyati, milliy iqtisodiyotni iqlim o`zgarishlari bilan moslashtirishning ustuvor yo`nalishlari, shuningdek, yashil texnologiyalar joriy etishning moliyaviy va institutsional mexanizmlari o`rganilgan. Muallif xalqaro tajribani O`zbekiston kontekstida qiyosiy tahlil qilgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.

**Kalit so`zlar:** barqaror rivojlanish, yashil transformatsiya, yashil iqtisodiyot, iqlim o`zgarishi, ekologik siyosat, yashil moliya, ESG standartlari, past karbon iqtisodiyoti, energiya tejamkorligi, O`zbekiston.

Аннотатция: В данной статье проведён комплексный анализ теоретических основ, практических проблем и методологических подходов к устойчивому развитию и зелёной трансформации. В ходе исследования рассмотрены объективная необходимость перехода к зелёной экономике, приоритетные направления адаптации национальной экономики к изменению климата, а также финансовые и институциональные механизмы внедрения зелёных технологий. Автором выработаны практические рекомендации на основе сравнительного анализа международного опыта в контексте Узбекистана.

Ключевые слова: устойчивое развитие, зелёная трансформация, зелёная экономика, изменение климата, экологическая политика, зелёные финансы, стандарты ESG, низкоуглеродная экономика, энергоэффективность, Узбекистан.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations, practical challenges, and methodological approaches to sustainable development and green transformation. The study examines the objective necessity of transitioning to a green economy, the priority directions for adapting the national economy to climate change, as well as the financial and institutional mechanisms for introducing green technologies. The author has developed practical recommendations based on a comparative analysis of international experience in the context of Uzbekistan.

Keywords: sustainable development, green transformation, green economy, climate change, environmental policy, green finance, ESG standards, low-carbon economy, energy efficiency, Uzbekistan.

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiy munosabatlar tizimida barqaror rivojlanish kontseptsiyasi tobora markaziy o`rinni egallayotgani kuzatilmoqda. 1987-yilda BMTning Brundtland komissiyasi tomonidan belgilangan ta`rifga ko`ra, barqaror rivojlanish - bu hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlar o`z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga zarar yetkazmagan holda qondirish qobiliyatidir. Ushbu qoida bugungi kunda energetika, sanoat, qishloq xo`jaligi, moliya va ijtimoiy soha kabi barcha tarmoqlarda siyosatni belgilovchi asosiy mezon bo`lib xizmat qilmoqda.

Yashil transformatsiya deganda iqtisodiyotni an`anaviy, ko`pincha ifloslantiruvchi va resurs ko`p talab etadigan ishlab chiqarish modellaridan ekologik toza, energiya tejamkor va past karbon texnologiyalariga yo`naltirilgan yangi modelga o`tkazish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon davlat siyosati, xususiy sektor investitsiyalari va fuqarolik jamiyatining uyg`un hamkorligi asosida amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi ham 2030-yilgacha bo`lgan davrga mo`ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi doirasida bu yo`lda faol qadam tashlayotir. 2022-2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasida ekologik barqarorlik va energiya tejamkorligini oshirish ustuvor yo`nalish sifatida belgilangan. Shu bois, barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning nazariy, amaliy va metodologik muammolarini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.[38]

[38]O`zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaga oid mavjud nazariy qarashlarni tizimlashtirish, ularning amaliy tatbiqidagi to`siqlarni aniqlash hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Yashil iqtisodiyot nazariyasi bo`yicha UNEP ning 2011-yildagi "Yashil iqtisodiyot yo`li" hisoboti asosiy referans manba bo`lib, unda yashil investitsiyalarni YaIM ning 2 foiziga oshirish orqali ham iqtisodiy o`sishni, ham ekologik barqarorlikni bir vaqtda ta`minlash mumkinligi isbotlangan. Xalqaro energetika agentligi esa "Net Zero by 2050" stsenariysida barcha mamlakatlar 2050-yilga kelib uglerod emissiyasini nolga tushirishi zarurligini asoslab bergan.[39]

Metodologiya sohasida E. Daly tomonidan ishlab chiqilgan "barqaror milliy daromad" kontseptsiyasi an`anaviy YaIM ko`rsatkichi o`rniga ekologik yo`qotishlarni hisobga oladigan ko`rsatkichlardan foydalanishni tavsiya etadi (Daly, 1996). D. Rockstrom va boshqalar tomonidan taklif qilingan "Sayyora chegaralari" modeli esa barqarorlik chegaralarini aniq miqdoriy ko`rsatkichlarda ifodalash imkonini berdi (Rockstrom et al., 2009).[40]

O`zbek va Markaziy Osiyo kontekstida M. Mirzayev, A. Tursunov va boshqa mahalliy tadqiqotchilar barqaror rivojlanishning mintaqaviy xususiyatlarini, suv tanqisligi va cho`llanish muammolarini milliy iqtisodiy siyosat bilan bog`liq holda o`rganib kelgan (Mirzayev, 2019; Tursunov, 2021). Biroq bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar hali ham etarli darajada rivojlanmagan bo`lib, metodologik jihatdan bir nechta bo`shliqlar mavjud ekanligini ta`kidlash lozim.[41]

Tatqiqod metodologiyasi. Ushbu tadqiqot quyidagi metodologik tamoyillarga asoslanadi:

Birinchidan, tizimli tahlil metodi qo`llanilgan bo`lib, u barqaror rivojlanish va yashil transformatsiya masalalarini iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy o`lchamlar yaxlitligida ko`rib chiqish imkonini berdi. Ikkinchidan, qiyosiy-tarixiy tahlil metodi orqali rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning yashil o`tish tajribasi O`zbekiston sharoitiga nisbatan baholandi. Uchinchidan, miqdoriy va sifatiy tadqiqot metodlari birgalikda qo`llanildi.

Tahlil va natijalar. Barqaror rivojlanish nazariyasining asosiy muammolaridan biri - iqtisodiy o`sish bilan ekologik barqarorlik o`rtasidagi doimiy

[39]UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme, Nairobi.

[40]Daly, H.E. (1996). Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development. Beacon Press, Boston.

[41]Mirzayev, M. (2019). O`zbekistonda barqaror rivojlanishning ekologik-iqtisodiy jihatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4, 45–58.

ziddiyatdir. An`anaviy neoklassik iqtisodiyot nazariyasi cheksiz iqtisodiy o`sishni maqsad deb bilsa, ekologik iqtisodiyot ushbu qarash noto`g`ri ekanligini, chunki yer yuzidagi tabiiy resurslar cheklangan ekanligini dalillar orqali isbotlaydi. Bu ziddiyatni hal etish uchun "dekarbonizatsiya" - ya`ni iqtisodiy o`sishni uglerod emissiyasidan "ajratish" kontseptsiyasi taklif etilmoqda.[42]

Ikkinchi nazariy muammo - tashqi salbiy ta`sirlarni (externalities) bozor mexanizmiga kiritish masalasidir. Ifloslantiruvchi sanoat tarmoqlari atrof-muhitga yetkazgan zararni o`z narxlariga qo`shmaydi, bu esa bozor muvozanatini buzadi. A. Pigou tomonidan taklif etilgan "ekologik soliq" va yanada zamonaviy "uglerod savdosi" mexanizmlari ushbu muammoni qisman hal etishga xizmat qiladi.[43]

Uchinchi muammo - baynalmilal adolat va avlodlararo tengsizlik masalasidir. Rivojlangan mamlakatlar tarixan ko`proq uglerod chiqarishgan bo`lsa-da, iqlim o`zgarishining oqibatlarini ko`proq rivojlanayotgan mamlakatlar boshdan kechirmoqda. Bu holat xalqaro muzokaralar va moliyaviy mexanizmlar (masalan, Yashil iqlim fondi) shakllanishiga zamin yaratmoqda.[44]

Amaliy jihatdan yashil transformatsiya bir qancha muhim to`siqlarga duch kelmoqda. Birinchisi - moliyalash muammosi. Qoida tariqasida, yashil texnologiyalar boshlang`ich kapital xarajatlari yuqori bo`lib, amortizatsiya muddati uzoq bo`ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yashil infratuzilmaga investitsiya jalb etish qiyin, chunki kredit risklari yuqori, foiz stavkalari baland va mahalliy kapital bozori rivojlanmagan.

Ikkinchi amaliy to`siq - texnologik va kadrlar tayyorlash muammolari. Yashil iqtisodiyot yangi kompetentsiyalar, muhandislik bilimlari va boshqaruv ko`nikmalarini talab etadi. Ko`plab mamlakatlarda, jumladan O`zbekistonda ham yashil texnologiyalar mutaxassislari etishmasligi sezilmoqda.

O`zbekiston miqyosida qo`shimcha muammolar sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin: mamlakatimiz iqtisodiyotining hali ham ko`p hollarda uglevodorodlarga bog`liq ekanligi; suv resurslarining tanqisligi (Orol dengizi muammosi); katta tarqoq aholi punktlari tarmoqli energiya infratuzilmasini rivojlantirish xarajatlarini oshirishi; shuningdek, an`anaviy tarmoqlarda

[42]Meadows, D.H., Meadows, D.L., Randers, J., & Behrens, W.W. (1972). The Limits to Growth. Universe Books, New York.
[43]World Commission on Environment and Development (WCED). (1987). Our Common Future (The Brundtland Report). Oxford University Press, Oxford.

[44]Costanza, R., d`Arge, R., de Groot, R. et al. (1997). The value of the world`s ecosystem services and natural capital. Nature, 387, 253–260.

bandlikning yuqoriligi “yashil o`tish”ni ijtimoiy jihatdan murakkab qilishi mumkin.[45]

Xalqaro standartlashtirish yo`nalishida ESG (Ekologiya, Ijtimoiy mas`uliyat va Boshqaruv) mezonlari korporativ hisobotlarda muhim o`rin egallaydi. EU Taksonomiyas kabi me`yoriy hujjatlar investitsiyalarni “yashil” yoki “yashil emas” deb tasniflashning aniq mezonlarini belgilab bermoqda. Bu yo`nalishlarga O`zbekiston ham integratsiyalashishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Ushbu tadqiqot shuni ko`rsatdiki, barqaror rivojlanish va yashil transformatsiya ko`p o`lchamli muammo bo`lib, uni hal etish nazariy, amaliy va metodologik yondashuvlarning uyg`un kombinatsiyasini talab etadi. Nazariy jihatdan iqtisodiy o`sish va ekologik barqarorlik o`rtasidagi ziddiyat «yashil o`sish» modeli orqali qisman hal etilishi mumkin. Amaliy jihatdan esa moliyalash mexanizmlarini takomillashtirish, institutsional islohotlar va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor yo`nalish bo`lib qolmoqda.

O`zbekiston uchun barqaror rivojlanish va yashil transformatsiya nafaqat ekologik zaruriyat, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o`rinlari yaratish va xalqaro investitsiyalar jalb etishning strategik instrumenti bo`lishi mumkin. Mamlakatimiz quyosh va shamol energetikasida ulkan salohiyatga ega bo`lib, ushbu imkoniyatlardan to`liq foydalanish iqtisodiyotimizni uglevodorodlardan asta-sekin ozod qilishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.
2. Meadows, D.H., Meadows, D.L., Randers, J., & Behrens, W.W. (1972). The Limits to Growth. Universe Books, New York.
3. World Commission on Environment and Development (WCED). (1987). Our Common Future (The Brundtland Report). Oxford University Press, Oxford.
4. Costanza, R., d`Arge, R., de Groot, R. et al. (1997). The value of the world`s ecosystem services and natural capital. Nature, 387, 253–260.
5. Daly, H.E. (1996). Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development. Beacon Press, Boston.
6. UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme, Nairobi.

[45]Tursunov, A. (2021). Yashil iqtisodiyotga o`tishning moliyaviy mexanizmlari: xalqaro tajriba va O`zbekiston imkoniyatlari. O`zbekiston iqtisodiy tahlili, 2(12), 67–82.

7. Mirzayev, M. (2019). O`zbekistonda barqaror rivojlanishning ekologik-iqtisodiy jihatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4, 45–58.
8. Tursunov, A. (2021). Yashil iqtisodiyotga o`tishning moliyaviy mexanizmlari: xalqaro tajriba va O`zbekiston imkoniyatlari. O`zbekiston iqtisodiy tahlili, 2(12), 67–82.

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI VA STRATEGIK ISTIQBOLLARI

Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti mustaqil izlanuvchisi
University of innovation technology
Moliya va iqtisodiyot kafedrasi assistent-o'qituvchisi
+998932616661
dildorahaydarjonovna@gmail.com
Esanboyev Behruz

University of innovatision technology talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning (FinTech) milliy iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri va ularning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli moliya ekotizimlari, an'anaviy bank xizmatlarining transformatsiyasi hamda moliyaviy ommaboplikni (inklyuzivlikni) oshirish masalalari o'rganilib, raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha tahliliy ko'rsatkichlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy texnologiyalar, FinTech, raqamli moliya, to'lov tizimlari, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy ommaboplik.

Аннотация: В данных тезисах анализируется влияние современных финансовых технологий (FinTech) на отрасли национальной экономики и их значение в обеспечении макроэкономической стабильности. В исследовании изучены экосистемы цифровых финансов, трансформация традиционных банковских услуг и вопросы повышения финансовой доступности, а также приведены аналитические показатели экономической эффективности цифровых платежных систем.

Ключевые слова: финансовые технологии, FinTech, цифровые финансы, платежные системы, экономическая эффективность, финансовая доступность.

Abstract: This thesis analyzes the impact of modern financial technologies (FinTech) on the sectors of the national economy and their significance in ensuring macroeconomic stability. The study examines digital financial ecosystems, the transformation of traditional banking services, and financial inclusion issues,

providing analytical indicators of the economic efficiency of digital payment systems.

Keywords: financial technologies, FinTech, digital finance, payment systems, economic efficiency, financial inclusion.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida an’anaviy moliya institutlarining faoliyatini tubdan o‘zgartirayotgan moliyaviy texnologiyalar (FinTech) iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylandi. Bugungi kunda moliya bozorlarida operatsion xarajatlarni kamaytirish, tranzaksiyalar tezligini oshirish va aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini (ommaboplikni) yaratish eng dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston moliya-bank tizimida ham raqamli platformalar, neobanklar va kontaktsiz to‘lov texnologiyalarini joriy etish iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni jalb qilishni tezlashtiradi. Zero, raqamli moliya infratuzilmasining rivojlanishi xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq tushumlari bazasini kengaytirishga bevosita xizmat qiladi.

Amaliyotda moliyaviy texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga keng miqyosda integratsiya qilishda qator qarama-qarshiliklar va yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Nazariy jihatdan FinTech platformalari xizmatlar tannorxini pasaytirishi va banklararo raqobatni kuchaytirishi lozim bo‘lsa-da, amaliyotda kiberxavfsizlik risklarining yuqoriligi hamda hududlarda aholining raqamli moliyaviy savodxonligi darajasi pastligi to‘liq samara olishga to‘sqinlik qilmoqda. Masalaning ilgari o‘rganilmagan va ilmiy yechim talab qiladigan jihati — FinTech startaplari bilan an’anaviy tijorat banklari o‘rtasidagi raqamli ekotizim hamkorligining optimal iqtisodiy modelini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning bosh maqsadi — moliyaviy texnologiyalarning iqtisodiyotdagi rolini baholash orqali bank-moliya sohasida tranzaksion xarajatlarni optimallashtirish, kiber-tahlika sharoitida moliyaviy barqarorlikni saqlash va FinTech yordamida erishiladigan iqtisodiy samaradorlikni ilmiy asoslab berishdan iborat.

ASOSIY QISM

O‘tkazilgan ekonometrik tahlillar va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish natijasida milliy iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali erishiladigan quyidagi iqtisodiy natijalar asoslandi:

- Tijorat banklarida mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini (*front-ofis*) raqamlashtirish va sun’iy intellekt skoringini joriy etish operatsion xarajatlarni o‘rtacha **20 foizdan 30 foizgacha** qisqartirishi aniqlandi.
- QR-kod va tezkor to‘lov tizimlarining ulushini kengaytirish orqali chakana savdo aylanmasida naqd pulsiz hisob-kitoblar tezligini **4 barobarga** oshirish va naqd pul emissiyasi xarajatlarini sezilarli tejash imkoniyati hisoblab chiqildi.
- Raqamli investitsion platformalar va mikromoliya FinTech ilovalari orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy resurslarga erishish imkoniyati **35 foizga** yaxshilanishi ilmiy isbotlandi.

FinTech yechimlarini moliya tizimiga joriy etish samaradorligi 1-jadval ko‘rsatkichlarida umumlashtirildi:

1-jadval: FinTech vositalari samaradorligi

№	FinTech vositalari va yo'nalishlari	Amaldagi an'anaviy holat	Raqamli transformatsiyadan keyingi ko'rsatkich	Kutilayotgan iqtisodiy va tizimli samara
1	Bank operatsiyalari va skoring	Qo'lda tahlil qilish (uzoq vaqt)	AI-skoring va avtomatlashtirish	Operatsion xarajatlarning 25% gacha tejalishi
2	Chakana to'lovlar infratuzilmasi	Naqd pul va qog'ozbozlik	QR-kod va P2P to'lovlar tizimi	Tranzaksiya tezligining 4 barobarga oshishi
3	Biznesni muqobil moliyalashtirish	Kredit olishdagi yuqori talablar	Kraudfanding va raqamli mikrokredit	Moliyaviy resurslar ommabopligining 35% ga o'sishi

Keltirilgan tahlillar asosida an’anaviy moliya tizimining tarkibiy va funksional transformatsiyalashuv bosqichlari hamda kutilayotgan strategik natijalar quyidagi diagrammada mantiqiy ketma-ketlikda aks ettirilgan:



1-rasm. Moliya tizimining mantiqiy transformatsiya diagrammasi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy texnologiyalar shunchaki bank xizmatlarini masofaviylashtirish vositasi emas, balki butun boshli iqtisodiy tizimning shaffofligi va samaradorligini ta’minlovchi global mexanizmdir. Tadqiqot o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishdi, ya’ni an’anaviy bank-moliya tizimi bilan zamonaviy FinTech startaplarining integratsiyalashuv modeli ko‘rsatib berildi. Kelajakda raqamli moliya vositalarini huquqiy tartibga solish (*RegTech*) va kiberxavfsizlikni kuchaytirish orqali mamlakatimizning xalqaro moliyaviy innovatsiyalar indeksidagi o‘rnini keskin yuqoriga ko‘tarish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vahobov A., Malikov T. *Moliya va moliyaviy texnologiyalar*. – T.: "Iqtisod-moliya", 2023. – B. 340.
2. Alimov I. Raqamli bank ishi va FinTech bozorlar tahlili // *Moliya va bank tizimi jurnali*. – 2025. №2. – B. 38–45.
3. Mullajonov Sh. *Raqamli iqtisodiyotda to‘lov tizimlari transformatsiyasi*. – T.: "Fan va texnologiya", 2024. – B. 180.
4. Tursunov D. *Moliya bozorlarida kiber-xavfsizlik va risklar menejmenti*. – Samarqand: "Zarafshon", 2022. – B. 142.
5. Eshmatov O. Kichik biznesni moliyalashtirishda raqamli innovatsiyalar // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2024. №1. – B. 70–78.

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KARBON CHIQINDILARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

Ro‘ziyeva Dilobar Isomjonovna
TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasi, DSc., professor
Jo‘ramurodova Feruza Mardon qizi
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali karbon chiqindilarini kamaytirish masalalari tahlil qilinadi. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida an’anaviy energiya manbalaridan foydalanish natijasida atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori ortib bormoqda. Tadqiqot davomida quyosh va shamol energiyasidan foydalanishning ekologik samaradorligi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish karbon chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar. qayta tiklanuvchi energiya, karbon chiqindilari, iqlim o‘zgarishi, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, yashil energetika.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматриваются вопросы снижения выбросов углерода посредством развития возобновляемых

источников энергии. В условиях глобального изменения климата увеличивается объем вредных газов, выбрасываемых в атмосферу в результате использования традиционных источников энергии. В ходе исследования была изучена экологическая эффективность использования солнечной и ветровой энергии. Результаты показывают, что широкое внедрение возобновляемых источников энергии позволяет значительно сократить выбросы углерода.
Ключевые слова: возобновляемая энергия, выбросы углерода, изменение климата, солнечная энергия, ветровая энергия, зелёная энергетика.

Abstract. This thesis analyzes the issues of reducing carbon emissions through the development of renewable energy sources. In the context of global climate change, the amount of harmful gases released into the atmosphere as a result of the use of traditional energy sources is increasing. During the research, the environmental efficiency of using solar and wind energy was studied. The results show that the widespread implementation of renewable energy sources can significantly reduce carbon emissions.
Keywords: renewable energy, carbon emissions, climate change, solar energy, wind energy, green energy.

Hozirgi kunda global iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolarning kuchayib borishi energetika sohasida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan karbon chiqindilarining asosiy qismi an’anaviy energiya manbalari — neft, gaz va ko‘mir hisobiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ularning ulushini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va karbon chiqindilarini kamaytirish masalalari xalqaro va milliy darajada keng o‘rganilmoqda. Xususan, Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) hisobotlarida quyosh fotoelektr (PV) tizimlari, shamol energetikasi, yadro energetikasi, elektromobillar va issiqlik nasoslari 2025 yilda taxminan 3 gigatonna (Gt) CO_2 chiqindilarining oldi olinganini, bu esa yiliga global energiya bilan bog‘liq CO_2 chiqindilarining qariyb 8 foiziga tengligi, energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushining ortib borayotgani va bu jarayon issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi[1]. Mamlakatimizdada ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha muhim normativ-huquqiy baza shakllantirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonuni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ularni rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini belgilaydi[2].

Shuningdek, O‘zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalarini jadal rivojlantirish va uglerodsiz energiya sektoriga o‘tishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Qabul qilingan hujjatlarga ko‘ra, 2030-yilga borib, issiqxona gazlari

miqdorini 2010-yildagiga nisbatan 35 foizga qisqartirish, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 30 foizdan ortiqroqqa yetkazish, sanoatda energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish rejalashtirilgan[3]. Aynan qayta tiklanadigan manbalarni jadal joriy etish orqali energiya tizimiga tushadigan yukni kamaytirish va chiqindilar o‘sishini cheklash mumkin bo‘ladi.

O‘zbekistonda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Mamlakatdagi asosiy chiqindi manbalari energetika sektori (76%), qishloq xo‘jaligi (18%), sanoat (5%) va chiqindilar (1%) hisoblanadi. Ular ichida eng katta ulush neft va gazdan chiqadigan metan (35%), elektr va issiqlik energetikasiga oid CO_2 (21%), sanoat va qurilish (16%), chorvachilik (15%) hamda uy-joy sektori (13%) hissasiga to‘g‘ri keladi[3].

O‘zbekistonning qazilma karbonat angidrid (CO_2) chiqindilari[46]

	Qazilma CO_2 chiqindilari (tonna)	**CO_2 chiqindilarining o‘zgarishi**	**Aholi jon boshiga CO_2 chiqindilari**	**Dunyo bo‘yicha CO_2 chiqindilarining ulushi**
2024	148,538,808	11.99%	4.27	0.37%
2023	132,630,633	2.89%	3.85	0.34%
2022	128,908,188	−4.06%	3.79	0.33%
2021	134,360,658	8.4%	3.99	0.35%
2020	123,945,134	7.67%	3.73	0.34%
2019	115,117,110	2.06%	3.51	0.30%
2018	112,794,893	−4.63%	3.49	0.30%
2017	118,265,828	3.73%	3.71	0.32%
2016	114,007,793	6%	3.63	0.31%

Jadvaldan ma’lumki, O‘zbekistonda qazilma CO_2 chiqindilari 2024-yilda 148 538 808 tonnani tashkil etdi.CO2 chiqindilari o‘tgan yilga nisbatan 11,99% ga oshdi, bu 2023-yilga nisbatan 15 908 175 tonnaga ko‘p deganidir, o‘shanda CO_2 chiqindilari 132 630 633 tonnani tashkil etgan edi. O‘zbekistonda aholi jon boshiga CO_2 chiqindilari har bir kishiga 4,27 tonnaga teng bo‘lib, 2023-yilda ro‘yxatga olingan har bir kishiga 3,85 CO_2 tonna ko‘rsatkichidan 0,42 ga ko‘p; bu aholi jon boshiga CO_2 chiqindilarining 10,8% ga o‘zgarishini anglatadi.

BMT prognoziga ko‘ra, 2060-yilga borib, O‘zbekiston aholisi 54 million kishini tashkil etadi. Bunday uzoq muddat qo‘shimcha talab uchun yanada yuqori shart-sharoitlar yaratadi: aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi 240 milliard kVt/soatgacha, mol go‘shti uchun - 1,6 million tonnagacha oshadi. Shaxsiy

[46] Uzbekistan CO2 Emissions - Worldometer

avtomobillar soni 13,5 million donani tashkil etadi, qurilish ishlari hajmi esa 2022-yildagiga nisbatan (2010-yilning qiyosiy narxlarida) 12 barobarga oshadi.

Yuqoridagi qo‘shimcha talab omillarini hisobga olgan holda, aholi jon boshiga CO_2 chiqindilari nisbatini saqlab qolgan holda, 2060-yilga borib, chiqindilar hajmi 189 million tonnagacha oshishi mumkin. Qo‘shimcha talab tufayli chiqindilarning o‘rtacha o‘sish sur'ati yiliga 1,73 million tonnani tashkil qiladi. Shunday qilib, 3,1 million tonnaga aniq qisqartirishga erishish uchun O‘zbekiston har yili chiqindilarni taxminan 4,8 million tonnaga kamaytirishi kerak bo‘ladi[5].

Xalqaro qayta tiklanuvchi energetika agentligi (IRENA) tomonidan ishlab chiqilgan “Avoided Emissions Calculator” vositasiga ko‘ra, mamlakatlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish natijasida issiqxona gazlari chiqindilarining sezilarli darajada kamayishi[47]



Mazkur rasmda O‘zbekiston misolida 2020-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish natijasida oldi olingan issiqxona gazlari hajmi aks ettirilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi an’anaviy yoqilg‘i manbalari (ko‘mir, tabiiy gaz, neft) o‘rnini bosgan.

Natijada umumiy hisobda 2,881 million tonna CO_2 ekvivalent (CO_2eq) miqdorida chiqindi atmosferaga chiqarilishining oldi olingan. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi energiya manbalari kesimida shakllangan:

- Tabiiy gaz hisobiga – 1,9055 mln tonna
- Ko‘mir hisobiga – 0,9540 mln tonna
- Neft hisobiga – 0,0421 mln tonna
- Yadro energiyasi – 0 mln tonna

[47] Avoided Emissions Calculator

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarishda tabiiy gazning ulushi yuqori bo‘lgani sababli, qayta tiklanuvchi energiya aynan shu manba o‘rnini ko‘proq bosib, eng katta emissiya qisqarishiga olib kelgan.

Umuman olganda, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish nafaqat energiya samaradorligini oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish karbon chiqindilarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi natijasida sezilarli miqdorda CO_2 emissiyalarining oldi olinmoqda va bu jarayon mamlakatning kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tishida muhim rol o‘ynamoqda.

Shuningdek, 2030 yilgacha belgilangan strategik maqsadlar, xususan qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va energiya samaradorligini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar, milliy energetika tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat ekologik muammolarni yumshatadi, balki energetik xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

Takliflar:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol va gidro) ulushini yanada oshirish va yangi quvvatlarni ishga tushirishni jadallashtirish;
- an’anaviy energiya manbalaridan bosqichma-bosqich chiqib ketish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- energiya samaradorligini oshiruvchi innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish;
- karbon chiqindilarini monitoring qilish va hisobga olish tizimlarini takomillashtirish;
- sohada xususiy sektor va xorijiy investitsiyalar ishtirokini kengaytirish;
- aholining ekologik madaniyatini oshirish va “yashil energiya”dan foydalanishni rag‘batlantirish.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda barqaror, ekologik toza va samarali energetika tizimini shakllantirishga hamda global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda muhim hissa qo‘shadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. IEA (2026), *Global Energy Review 2026*, IEA, Paris https://www.iea.org/reports/global-energy-review-2026 , Licence: CC BY 4.0

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni, 30.01.2025 yildagi PF-16-son
4. IEA, Greenhouse Gas Emissions from Energy, IEA, Paris https://www.iea.org/data-and-statistics/data-product/greenhouse-gas-emissions-from-energy, Licence: Terms of Use for Non-CC Material
5. O. Nazarov, M. Karimov va boshq. O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish ssenariylari. Tahliliy axborot. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, 2023

RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA AGROTURIZMNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Jurakulova Sarvinoz Baxtiyor qizi
Zarmed universiteti Iqtisodiyot
va moliya kafedrasi o‘qtuvchisi
Email: sarvinozjurakulova@gmail.com
Tel: +998 97 916 51 56

Anotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida agroturizm sohasini samarali boshqarishning konseptual asoslari tahlil qilingan. Unda raqamli texnologiyalarni boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish, xizmatlar samaradorligini oshirish, hududiy resurslardan oqilona foydalanish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, agroturizm boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, agroturizm, innovatsion boshqaruv, raqamli boshqaruv, raqamli platformalar, qishloq taraqqiyoti,“Aqlli” turizm, sun’iy intellect, samaradorlik, turizm infratuzilmasi.

Аннотация. В данной статье проанализированы концептуальные основы эффективного управления сферой агротуризма в условиях цифровой экономики. В ней освещены вопросы интеграции цифровых технологий в системы управления, повышения эффективности услуг, рационального использования территориальных ресурсов и усиления инвестиционной привлекательности. Также разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию управления агротуризмом.

Ключевые слова: цифровая экономика, агротуризм, инновационное управление, цифровое управление, цифровые платформы, развитие сельских территорий, «умный» туризм, искусственный интеллект, эффективность, туристическая инфраструктура.

Abstract. This article analyzes the conceptual foundations of effective agrotourism management in the context of the digital economy. It highlights the issues of integrating digital technologies into management systems, improving service efficiency, rational use of regional resources, and strengthening investment

attractiveness. In addition, scientific and practical recommendations for improving agrotourism management have been developed.

Keywords: digital economy, agrotourism, innovative management, digital management, digital platforms, rural development, smart tourism, artificial intelligence, efficiency, tourism infrastructure.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakatimizda agroturizmni samarali rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va unga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar hamda takliflarni tayyorlash bugungi kunda asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda, an’anaviy sohalarni transformatsiya qilish davr talabidir. Agroturizm — qishloq xo'jaligi va turizm chorrahasida joylashgan strategik yo'nalish bo'lib, uni raqamli texnologiyalar asosida boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy poydevoriga aylanmoqda. *Raqamli iqtisodiyot* — jamiyatning iqtisodiy rivojlanishidagi yangi bosqichdir. Bu xo‘jalik faoliyatini yuritishning zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning asosiy omili raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar hisoblanadi. Bu an’anaviy iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar (internet, sun’iy intellekt) bilan integratsiyalashuvidir.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish zarurati nafaqat nazariy, balki aniq statistik ko‘rsatkichlar bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, 2025-yilda mamlakat iqtisodiyoti 7,7% ga o‘sib, YAIM hajmi 148 milliard dollardan oshdi, bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi 2,7% ni tashkil etdi. Bu esa raqamli boshqaruv tizimlarini qishloq xo‘jaligi va turizmga integratsiya qilish uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Turizm sohasi ham jadal sur’atlarda rivojlanmoqda: 2025-yilning yanvar–avgust oylarida O‘zbekistonda turizm xizmatlari hajmi 2,2 trillion so‘mga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 44% ga oshgan. 2025-yilning dastlabki yarmida xorijiy turistlar soni 4,9 million nafarga yetib, 36% o‘sish qayd etilgan. Shuningdek, 2025-yilning oxirlarida mamlakatga 10,7 million xorijiy turist tashrif buyurgan, turizm eksporti esa 4,4 milliard AQSh dollariga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar qishloq hududlarida agroturizm infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli bronlash tizimlari, elektron boshqaruv platformalarini joriy etish orqali katta iqtisodiy samaraga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va turizm sohasining asosiy statistik ko‘rsatkichlari[48]

Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil	O‘zgarish (%)
YaIM (mlrd AQSh dollari)	122.0	135.5	148.0	+21.3%
Iqtisodiyotda AKT ulushi (%)	2.1%	2.4%	2.7%	+0.6 p.p

[48] Ushbu jadval O’zbekiston respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirildi

Turizm xizmatlari hajmi (trln so‘m)	1.2	1.5	2.2	+83%
Xorijiy turistlar soni (mln kishi)	3.6	3.9	4.9	+36%
Umumiy turistlar soni (mln kishi)	7.5	8.9	10.7	+42.6%
Turizm eksporti (mlrd AQSh dollari)	2.8	3.5	4.4	+57%
Raqamli platformalar orqali bron qilish ulushi (%)	28%	35%	47%	+19

Jadvaldagi ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda 2023–2025-yillar davomida raqamli iqtisodiyot va turizm sektorining barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rsatadi. YaIM hajmining oshishi iqtisodiy faollik kengayib borayotganini bildiradi, bunda xizmatlar sohasi, xususan turizm muhim o‘rin egallamoqda.

Iqtisodiyotda AKT ulushining 2,1 foizdan 2,7 foizgacha oshishi raqamli transformatsiya jarayonlari chuqurlashayotganini tasdiqlaydi. Bu holat agroturizmda raqamli boshqaruv, onlayn platformalar va elektron xizmatlarning kengayishi uchun asos yaratadi.

Turizm ko‘rsatkichlaridagi sezilarli o‘sish — turistlar soni va xizmatlar hajmining ortishi — sohaning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyati kuchayganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, raqamli bronlash ulushining oshishi iste’molchilarning raqamli xizmatlarga o‘tishi tezlashayotganini bildiradi.

Respublikamizda raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion muhitni shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Bu jarayon, avvalo, xizmatlar sektorini modernizatsiya qilish, zamonaviy ilmiy-texnik salohiyatni kuchaytirish hamda ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishni talab etadi. Shu bilan birga, servis yo‘nalishidagi innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda soha mutaxassislari, tadbirkorlar hamda rahbar xodimlarning faol ishtirokini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida agroturizm sohasini samarali boshqarish qishloq hududlarining turistik salohiyatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda iste’molchilarning o‘zgarib borayotgan ehtiyojlariga mos innovatsion xizmatlarni shakllantirishni talab etadi. Agroturizm tarmog‘ida raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, elektron marketing va aqlli boshqaruv tizimlarining rivojlanishi bozor talablariga mos raqobatbardosh xizmatlarni yaratishda muhim omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida agroturizm xizmatlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayoni bir necha izchil bosqichlarda amalga oshiriladi:

– hududning tabiiy, madaniy, qishloq xo‘jaligi va ekologik resurslarini o‘rganish asosida yangi agroturistik xizmatlar g‘oyalarini aniqlash, turistlar ehtiyojini tahlil qilish hamda raqamli imkoniyatlarni baholash;

– tanlangan g‘oyalarni innovatsion loyiha sifatida ishlab chiqish, agroturizm yo‘nalishlari bo‘yicha raqamli platformalar, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, virtual ekskursiyalar va elektron to‘lov xizmatlarini loyihalashtirish;

– yaratilgan yangi agroturizm xizmatlarini amaliyotga joriy etish, ichki va tashqi bozorlarda raqamli boshqaruv, ijtimoiy tarmoqlar, xizmatlar samaradorligi va sifat darajasini yuksaltirishga yo‘naltirilgan zamonaviy raqamli boshqaruv mexanizmlari, shuningdek, elektron tijorat platformalari yordamida iste’molchilarga taqdim etish;

– joriy etilgan agroturizm xizmatlarining bozordagi samaradorligini monitoring qilish, turistlar fikr-mulohazalarini o‘rganish, xizmat sifatini baholash va zaruratga ko‘ra boshqaruv tizimiga tegishli innovatsion o‘zgartirishlar kiritish.

Mazkur bosqichlar asosida agroturizmni boshqarishni optimallashtirish qishloq hududlarida iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va O‘zbekistonning turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada, raqamli iqtisodiyot sharoitida agroturizmni innovatsion boshqarish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik yo‘nalishiga aylanadi.

Shu bilan birga, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish orqali xizmat ko’rsatish sifatini oshirish va hududiy infratuzilmani muvofiqlashtirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5781-son Farmoni. Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**.** – Toshkent, 2019.
3. Q.J. Mirzaev, S.B. Bobokulov, B.K. Janzakov. “Raqamli iqtisodiyot” /O‘quv qo‘llanma/. – Samarqand: SamISI “STAP-SEL” MChJ, nashriyot-matbaa bo‘limi, 2022 y. – 288 bet.
4. Q.J. Mirzaev, S.B. Bobokulov. “Raqobat strategiyasi” /O‘quv qo‘llanma/. – Samarqand: SamISI “STAP-SEL” MChJ, nashriyot-matbaa bo‘limi, 2022 y. – 198 bet.
Yashil iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llaniladigan moliyaviy usullar moliyaviy munosabatlarni va ularning faoliyati yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish va biznes jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligini amalga oshirish shaklidir. Bizning fikrimizcha, yashil iqtisodiyotning moliyaviy mexanizmi klassik moliyaviy usullar bilan tavsiflanadi: moliyaviy tahlil, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy tartibga solish va moliyaviy nazorat.

Yashil iqtisodiyotning moliyaviy mexanizmining tarkibiy elementi moliyalashtirish tamoyillari bo‘lib, ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin: har qanday loyihani moliyalashtirish uchun odatiy bo‘lgan umumiy iqtisodiy (an'anaviy) tamoyillar va moliyalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan salbiy ta'sirlardan atrof-muhitni himoya qilishga asoslangan ekologik (yashil) tamoyillar.

Umumiy iqtisodiy (an'anaviy) tamoyillardan tashqari, yashil tashabbuslarni amalga oshirishning moliyaviy mexanizmida ekologik (yashil) tamoyillarni

ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizcha, asosiy yashil tamoyillar qatorida quyidagilarni ko‘rib chiqish kerak:

- ekologik javobgarlik tamoyillari. Ushbu tamoyil tabiiy resurslardan, shuningdek, barcha turdagi energiyadan oqilona foydalanishga asoslangan; issiqxona gazlari chiqindilarini minimallashtirishga;

- loyihaning atrof-muhitga ta’sirini doimiy monitoring qilishni ta’minlash tamoyiliga asoslangan;

- “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyili – ifloslantiruvchining loyihani amalga oshirishning salbiy atrof-muhitga ta’siri bilan bog‘liq atrof-muhitga qo‘shgan hissasini oshirish uchun javobgar bo‘lish majburiyati.

Yashil iqtisodiyot sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga moliyaviy dastaklar – moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos shakllari yordamida erishiladi, ularning harakati mikro va makro darajalarda an’anaviy va yashil fondlarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq. Shunday qilib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun an’anaviy moliyaviy vositalar bilan bir qatorda maxsus (yashil) moliyaviy dastaklar qo‘llanilmoqda, bu esa moliyaviy mexanizmga moslashuvchanlik va ko‘p qirralilikni qo‘shadi. Yashil iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni tartibga solish va rag‘batlantirish uchun moliyaviy usullar va texnikalar moliyaviy vositalar orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Yashillashtirish tamoyillarini va tabiatni oqilona boshqarishni amalga oshirish umuman global iqtisodiyotni va xususan, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot moliyaviy mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish mamlakatda yashil loyihalarni faol rivojlantirish shartlaridan biridir.

2. Yashil iqtisodiyot moliyaviy mexanizmini yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish orqali alohida mintaqalar va umuman davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy munosabatlarni boshqarish tizimi sifatida ta’riflash mumkin.

3. Yashil iqtisodiyot moliyaviy mexanizmining rasmiylashtirilishi bizga uning alohida komponentlaridagi to‘siqlarni aniqlash imkonini berdi, ularning yechimi O‘zbekiston Respublikasida yashil tashabbuslarni faollashtirish bilan bog‘liq. Bu muammolar muayyan me’yoriy xujjatlarni takomillashtirish zarurati, yashil loyihalarning samaradorligini o‘rganish uchun yetarli axborot va metodologik bazaning yo‘qligi va yashil moliyaviy dastaklar va moliyalashtirish manbalarini yanada o‘rganish zaruratidan kelib chiqadi.

Ushbu tadqiqot natijalari bizga yashil iqtisodiyot moliyaviy mexanizmining nazariy va metodologik asoslarini kengaytirish imkonini beradi va aniqlangan muammolar undan samarali foydalanishni yanada rivojlantirishni talab qiladi.

YASHIL IQTISODIYOT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI

Nizomov Murod Quvondiq o‘g‘li
- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Mustaqil izlanuvchisi, “Iqtisodiyot nazariyasi”
kafedrasi assistent-stajyori

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yashil iqtisodiyotning innovatsion, investitsion va institutsional mexanizmlarini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik investitsiyalarni jalb qilish va institutsional boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada xalqaro tajribalar va O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari ilmiy asosda tahlil etilgan hamda istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, innovatsion rivojlanish, yashil investitsiyalar, institutsional mexanizmlar, ekologik siyosat, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror taraqqiyot, ekologik boshqaruv, yashil texnologiyalar.

Аннотация: В данной научной статье анализируются теоретические и практические аспекты развития инновационных, инвестиционных и институциональных механизмов зеленой экономики. В исследовании рассматриваются вопросы обеспечения экологической устойчивости, эффективного использования ресурсов, развития возобновляемых источников энергии, привлечения экологических инвестиций и совершенствования институциональной системы управления. Также в статье на научной основе анализируются международный опыт и процессы перехода Узбекистана к зеленой экономике, а также разработаны предложения и рекомендации по перспективным направлениям развития.

Ключевые слова: зеленая экономика, экологическая устойчивость, инновационное развитие, зеленые инвестиции, институциональные механизмы, экологическая политика, возобновляемая энергия, устойчивое развитие, экологическое управление, зеленые технологии.

Abstract: This scientific article analyzes the theoretical and practical aspects of developing innovative, investment, and institutional mechanisms of the green economy. The study examines issues related to ensuring environmental sustainability, efficient use of resources, development of renewable energy sources,

attraction of green investments, and improvement of institutional governance systems. Furthermore, the article scientifically evaluates international experience and Uzbekistan's transition to a green economy, while also presenting recommendations and proposals for future priority directions.

Keywords: green economy, environmental sustainability, innovative development, green investments, institutional mechanisms, environmental policy, renewable energy, sustainable development, environmental governance, green technologies.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ekologik muammolarning keskinlashuvi va tabiiy resurslarning cheklanganligi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Atmosfera havosining ifloslanishi, global iqlim o‘zgarishi, suv resurslari tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va bioxilma-xillikning qisqarishi insoniyat oldidagi eng muhim global muammolardan biriga aylangan. Mazkur muammolarni bartaraf etishda iqtisodiy taraqqiyot bilan ekologik xavfsizlikni uyg‘unlashtiruvchi yashil iqtisodiyot konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot - bu iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash bilan bir qatorda ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Ushbu modelning asosiy maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida barqaror rivojlanishni ta’minlashdan iboratdir. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni inson farovonligini oshiruvchi hamda ekologik xavflarni kamaytiruvchi iqtisodiyot sifatida ta’riflaydi.

So‘nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlarida yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Skandinaviya davlatlari ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va yashil investitsiyalarni kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishmoqda. Ushbu davlatlarning tajribasi yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning ham muhim omili ekanligini ko‘rsatmoqda.

Yashil iqtisodiyotning samarali rivojlanishi innovatsion mexanizmlarga bevosita bog‘liqdir. Innovatsion texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ekologik zararlarni minimallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, energiya tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari hamda raqamli boshqaruv tizimlari yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt, “aqlli” energetika tizimlari, Internet of Things (IoT), Big Data va avtomatlashtirilgan monitoring texnologiyalarining rivojlanishi ekologik boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Masalan, “aqlli” elektr tarmoqlari energiya yo‘qotilishini kamaytirsa, raqamli monitoring tizimlari suv va energetika resurslaridan foydalanishni optimallashtirish imkonini bermoqda. Shuningdek, ekologik innovatsiyalar ishlab chiqarishda karbon

chiqindilarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy foyda keltirmoqda.

Innovatsion rivojlanishda ilmiy-tadqiqot institutlari, texnoparklar, startap markazlari va innovatsion infratuzilma muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ekologik texnologiyalarni rivojlantirish uchun ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish zarur. Shu sababli ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirish, ilmiy grantlar ajratish va ekologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida millionlab daraxt ko‘chatlari ekilishi ekologik muhitni yaxshilash va iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida qator muammolar ham mavjud. Jumladan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, ekologik texnologiyalar narxining yuqoriligi, innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va ekologik madaniyatning pastligi mazkur jarayonni sekinlashtiruvchi omillar hisoblanadi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotning innovatsion, investitsion va institutsional mexanizmlarini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va aholining turmush sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot yangi ish o‘rinlarini yaratish, energiya resurslarini tejash va xalqaro investitsiyalar oqimini kuchaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Yashil iqtisodiyotning innovatsion, investitsion va institutsional mexanizmlarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Shu sababli ekologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, yashil investitsiyalarni kengaytirish, institutsional boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kelgusidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations Environment Programme (UNEP) Reports.
2. World Bank. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*.
3. OECD Green Growth Studies.
4. United Nations Development Programme (UNDP) materials.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori.
6. Osiyo taraqqiyot banki hisobotlari.
7. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki materiallari.
8. Ekologik iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bo‘yicha ilmiy monografiyalar.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
10. “Barqaror rivojlanish maqsadlari” xalqaro dasturi materiallari.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Саламов Фаррух Фаттоевич
и.о.доцент кафедры “Экономическая теория”
Самаркандского института экономики и сервиса.
E-mail: farrux_sies@mail.ru
Аминджанова Румейса
Магистр группы МИ-225
Самаркандский институт экономики и сервиса
Тел: +998902719698
@amindjanovarumeysa@icloud.com

Аннотация. В статье рассмотрены современные тенденции развития туристических услуг в условиях цифровой трансформации экономики. Проанализированы ключевые факторы внедрения цифровых технологий в туристическую отрасль, а также предложены основные направления повышения качества и конкурентоспособности туристических услуг на основе цифровизации.
Ключевые слова: туризм, цифровая трансформация, туристические услуги, онлайн-платформы, цифровые технологии, маркетинг, инновации, Узбекистан.

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida turistik xizmatlarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari ko‘rib chiqilgan. Turizm sohasida qo‘llanilayotgan asosiy raqamli texnologiyalar, jumladan onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt va raqamli marketing tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, turistik xizmatlar, raqamlashtirish, onlayn bron qilish, sun’iy intellekt, raqamli marketing, turizm sanoati, innovatsiyalar, mobil ilovalar, elektron turizm.

Abstract. The article examines modern trends in the development of tourism services in the context of digital transformation of the economy. The main digital technologies used in the tourism sector, including online booking systems, mobile applications, artificial intelligence, and digital marketing, are analyzed. Special attention is paid to improving the quality of tourism services, increasing the competitiveness of tourism enterprises, and enhancing customer interaction through digital platforms. The article also presents promising directions for the development of tourism under conditions of digitalization.
Keywords: digital transformation, tourism services, digitalization, online booking, artificial intelligence, digital marketing, tourism industry, innovations, mobile applications, e-tourism.

Современный этап развития мировой экономики характеризуется активным внедрением цифровых технологий во все сферы деятельности, включая туризм. Цифровая трансформация существенно меняет подходы к

организации туристических услуг, повышает их доступность, качество и эффективность. Туристическая отрасль становится одной из наиболее чувствительных к инновациям сфер, поскольку современные потребители ориентированы на быстрый доступ к информации, онлайн-бронирование и персонализированные предложения. Использование цифровых платформ, мобильных приложений и систем электронных платежей позволяет значительно упростить процесс планирования путешествий. В Республике Узбекистан туризм является одним из приоритетных направлений развития экономики. В последние годы реализуются масштабные реформы, направленные на развитие инфраструктуры, упрощение визового режима и активное продвижение туристического потенциала страны. Однако в условиях цифровой экономики возникает необходимость дальнейшего совершенствования туристических услуг.

Одной из основных проблем остается недостаточный уровень цифровизации туристической инфраструктуры. Многие туристические компании не в полной мере используют возможности онлайн-продвижения, электронных сервисов и современных маркетинговых инструментов. Это снижает их конкурентоспособность как на внутреннем, так и на международном рынке. Важным направлением развития является внедрение онлайн-платформ и цифровых сервисов. Создание удобных сайтов, мобильных приложений, систем онлайн-бронирования и электронных гидов позволяет улучшить взаимодействие с клиентами и повысить уровень сервиса. Особое значение имеет использование технологий больших данных и искусственного интеллекта. Анализ предпочтений туристов позволяет формировать персонализированные предложения, прогнозировать спрос и оптимизировать туристические маршруты. Это способствует повышению эффективности бизнеса и удовлетворенности клиентов. Не менее важным является развитие цифрового маркетинга. Также следует отметить необходимость подготовки квалифицированных кадров. Специалисты туристической отрасли должны обладать не только профессиональными знаниями, но и цифровыми компетенциями, включая навыки работы с онлайн-сервисами, аналитическими инструментами и системами управления клиентским опытом.

Таким образом, цифровая трансформация открывает широкие возможности для развития туристических услуг и повышения их конкурентоспособности. Комплексное внедрение цифровых технологий, развитие инфраструктуры и подготовка квалифицированных кадров позволит обеспечить устойчивое развитие туристической отрасли Узбекистана и повысить ее привлекательность на международном рынке.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Закон Республики Узбекистан «О туризме».
2. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы.

3. Постановления Президента Республики Узбекистан в сфере развития туризма.
4. Котлер Ф. Маркетинг в туризме. – М.: Вильямс, 2019.
5. Иванов В.В. Цифровая экономика и туризм. – СПб.: Питер, 2021.

ИННОВАЦИОННЫЕ, ИНВЕСТИЦИОННЫЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi, PhD
Email: erdonovmuhammad@gmail.com

Abstract. The thesis investigates innovation, investment and institutional mechanisms for the development of the green economy. It argues that the transition to a green model requires technological modernization, new financial tools, clear standards and investor confidence. The study highlights green financing, ecological audit, institutional coordination and innovation infrastructure as key conditions for increasing resource productivity and long-term economic sustainability.
Keywords: green economy, innovations, investments, green financing, institutions, technological modernization

Аннотация. В тезисе исследуются инновационные, инвестиционные и институциональные механизмы развития зеленой экономики. Обосновано, что переход к зеленой модели требует технологической модернизации, новых финансовых инструментов, четких стандартов и доверия инвесторов. Выделены зеленое финансирование, экологический аудит, институциональная координация и инновационная инфраструктура как ключевые условия роста ресурсной продуктивности.
Ключевые слова: зеленая экономика, инновации, инвестиции, зеленое финансирование, институты, технологическая модернизация

Annotatsiya. Tezisda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion, investitsion va institutsional mexanizmlari o‘rganiladi. Yashil modelga o‘tish texnologik modernizatsiya, yangi moliyaviy vositalar, aniq standartlar va investorlar ishonchini talab qilishi asoslanadi. Yashil moliyalashtirish, ekologik audit, institutsional muvofiqlashtirish va innovatsion infratuzilma resurs unumdorligi hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni oshiruvchi shartlar sifatida yoritiladi.
Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, innovatsiyalar, investitsiyalar, yashil moliyalashtirish, institutlar, texnologik modernizatsiya

Введение

Зеленая экономика развивается не только за счет административных требований, но и благодаря инновациям, инвестициям и институциональному доверию. Энергоэффективные технологии, возобновляемая энергетика, устойчивый транспорт, водосбережение, переработка отходов и цифровой экологический мониторинг требуют капитала и компетенций. Поэтому ключевой вопрос заключается в создании механизма, при котором экологически эффективные решения становятся экономически выгодными для бизнеса.

В условиях Узбекистана зеленые инвестиции имеют двойное значение. С одной стороны, они снижают ресурсные издержки экономики и повышают устойчивость инфраструктуры. С другой стороны, они укрепляют международную конкурентоспособность, поскольку глобальные рынки все чаще учитывают экологические стандарты продукции и цепочек поставок. В этом контексте рекомендации Всемирного банка и ОЭСР по устойчивым инвестициям приобретают практическое значение [6; 7].

Методология

Методологическая основа тезиса включает институциональный анализ, инвестиционный подход, изучение стратегических документов и классификацию механизмов зеленого развития. Механизм зеленой экономики рассмотрен через четыре компонента: инновации и технологии, финансовые инструменты, рыночные стимулы и институциональная инфраструктура. Их взаимодействие определяет, сможет ли зеленая политика стать реальным экономическим процессом.

Анализ и результаты

Первый компонент — инновации и технологии. Научные разработки должны быть связаны с запросами бизнеса и регионов. Если университеты и исследовательские центры работают отдельно от предприятий, экологические решения остаются в виде пилотных идей. Необходимы технологические полигоны, инкубаторы зеленых стартапов, программы трансфера технологий и поддержка локализации оборудования. Особенно перспективны решения в области энергосбережения, водосбережения, переработки отходов и цифрового мониторинга.

Второй компонент — финансовые инструменты. Зеленые проекты часто имеют высокие первоначальные затраты, но дают долгосрочную экономию. Поэтому обычные кредитные схемы не всегда подходят. Нужны зеленые кредиты, субсидирование процентных ставок, гарантии, зеленые облигации, климатические фонды и механизмы финансирования, привязанные к результату. Финансовый сектор должен уметь оценивать не только денежный поток, но и экологический эффект проекта.

Третий компонент — рыночные стимулы. Бизнес будет активнее внедрять зеленые технологии, если экологическое поведение дает

конкурентное преимущество. Государственные закупки с зелеными критериями, налоговые стимулы, ускоренная амортизация, экологическая сертификация и требования к раскрытию информации формируют спрос на устойчивые решения. При этом важно избегать формального подхода, когда зеленый статус присваивается без измеримого результата.

Четвертый компонент — институциональная среда. Для инвестора важны ясные правила, стандарты, предсказуемость политики и независимая проверка экологических результатов. Национальная таксономия зеленых проектов, экологический аудит, система отчетности и цифровой мониторинг повышают доверие к рынку. Без таких институтов существует риск “зеленого камуфляжа”, когда проект называется зеленым, но не дает подтвержденного экологического эффекта.

Заключение и предложения

В заключение следует отметить, что инновационные, инвестиционные и институциональные механизмы образуют единый контур развития зеленой экономики. Инновации создают технологическое решение, инвестиции обеспечивают его масштабирование, институты формируют доверие и правила. Для Узбекистана их согласованное развитие является необходимым условием достижения стратегических целей зеленой трансформации.

Практические предложения включают развитие зеленой таксономии, поддержку зеленых стартапов, внедрение стандартов экологического аудита, расширение зеленого кредитования, запуск региональных демонстрационных проектов и интеграцию экологических критериев в государственные закупки. Такой подход позволит повысить экономическую эффективность зеленых инвестиций и ускорить технологическую модернизацию.

Литература

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года № ПП-4477 «Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан к зеленой экономике на период 2019-2030 годов».

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года № ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к зеленой экономике до 2030 года».

[3] Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии “Узбекистан — 2030”».

[4] Указ Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан — 2030” в Год охраны окружающей среды и зеленой экономики».

SAMARQAND VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING INNOVATSION, INVESTITSION VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Buranov Sherzod Axrorovich
Samarqand ilg‘or kasbiy mahorat
texnikumi o‘quv-metodik bo‘limi boshlig‘i
E-mail: buronovsherzod80@gmail.com
Tel: +998 (88) 914-36-56

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati misolida yashil iqtisodiyotga o‘tishning innovatsion, investitsion va institutsional mexanizmlarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Viloyat iqtisodiyotining o‘sish sur’atlarida energiya va suv resurslariga bo‘lgan ehtiyoj, ekologik barqarorlikni ta’minlashda agrar va sanoat korxonalarida "yashil" texnologiyalarni qo‘llash amaliyoti tahlil qilingan. Hududiy xususiyatlardan kelib chiqib, yashil investitsiyalarni jalb qilish hamda institutsional bazani takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand viloyati, yashil iqtisodiyot, eko-innovatsiyalar, yashil investitsiyalar, institutsional muhit, quyosh energetikasi, tomchilatib sug‘orish, barqaror turizm.

Аннотация: В данной статье на примере Самаркандской области исследуются вопросы развития инновационных, инвестиционных и институциональных механизмов перехода к зеленой экономике. Анализируются потребность в энергии и водных ресурсах в темпах роста экономики региона, а также практика применения «зеленых» технологий на аграрных и промышленных предприятиях для обеспечения экологической устойчивости. На основе региональных особенностей разработаны практические предложения по привлечению зеленых инвестиций и совершенствованию институциональной базы.

Ключевые слова: Самаркандская область, зеленая экономика, эко-инновации, зеленые инвестиции, институциональная среда, солнечная энергетика, капельное орошение, устойчивый туризм.

Abstract: This article examines the development of innovative, investment, and institutional mechanisms for transitioning to a green economy, using the Samarkand region as a case study. The region's energy and water resource demands relative to its economic growth rates are analyzed, alongside the implementation of "green" technologies in agricultural and industrial enterprises to ensure environmental sustainability. Based on regional characteristics, practical proposals have been developed to attract green investments and improve the institutional framework.

Keywords: Samarkand region, green economy, eco-innovations, green investments, institutional environment, solar energy, drip irrigation, sustainable tourism.

Samarqand viloyati nafaqat O‘zbekistonning yirik madaniy va turistik markazi, balki jadal rivojlanayotgan sanoat va agrar hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat aholisining o‘sishi, urbanizatsiya darajasi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi tabiiy resurslarga, ayniqsa suv va elektr energiyasiga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda.

Zarafshon daryosi havzasidagi suv resurslarining kamayishi va global iqlim o‘zgarishlari sharoitida an’anaviy ekstensiv iqtisodiy model hudud ehtiyojlarini qoplay olmaydi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatish va 'yashil' texnologiyalarni barcha sohalarga joriy etish mamlakat barqaror taraqqiyotining eng muhim shartidir" [1]. Shu sababli, Samarqand viloyatida yashil iqtisodiyotga o‘tishning innovatsion texnologiyalar, maqsadli investitsiyalar va mustahkam institutsional tizimga asoslangan mintaqaviy mexanizmlarini yaratish bugungi kunda o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Mintaqaviy darajada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmi uchta o‘zaro bog‘liq elementga tayanadi:

1. **Mintaqaviy innovatsion mexanizm.** Hududning iqlim va tabiiy sharoitiga mos keluvchi texnologiyalarni (Samarqand iqlimi uchun quyosh energetikasi va gidroponika tizimlari) joriy etish.
2. **Mintaqaviy investitsion mexanizm.** Mahalliy va xorijiy investorlar mablag‘larini an’anaviy tarmoqlardan ekologik toza loyihalarga (*Greenfield*) yo‘naltirish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tizimini kuchaytirish.
3. **Mintaqaviy institutsional mexanizm.** Mahalliy hokimiyat organlari, tadbirkorlar va aholi o‘rtasida ekologik mas’uliyatni rag‘batlantiruvchi mahalliy normativ hujjatlar, subsidiyalar va nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish [2].

Xalqaro ekologik iqtisodiyot talablariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga o‘tish dasturlari nafaqat uglerod chiqindilarini kamaytirishi, balki ijtimoiy farovonlikni ham ta'minlashi lozim [4].

Bugungi kunda viloyat iqtisodiyoti tahlil qilinganda bir qator tizimli muammolar ko‘zga tashlanani:

1. Qishloq xo‘jaligida suv isrofchiligi va sho‘rlanish. Samarqand viloyatining asosiy drayverlaridan biri bo‘lgan agrar sektorda (ayniqsa, Ishtixon, Pastdarg‘om, Paxtachi tumanlarida) hamon an’anaviy sug‘orish usullaridan foydalanilmoqda. Bu Zarafshon daryosi suvining kamayishiga olib kelyapti.

Amaliy yechim bu viloyatda tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini o‘rnatgan fermerlarga subsidiyalar berish ko‘lamini oshirish va "aqlli suv o‘lchagichlar" (*Smart Water*) tizimini majburiy joriy etish lozim.

2. Sanoat va turizm zonalarida energiya taqchilligi. Samarqand shahrining turistik salohiyati kengayishi (masalan, "Silk Road Samarkand" majmuasi va yangi mehmonxonalar) va Urgut erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) sanoat quvvatlarining ortishi an’anaviy energiya tarmog‘iga katta yuklama bermoqda [3].

Amaliy yechim sifatida Nurobod va Kattaqo‘rg‘on tumanlarida yirik quyosh fotoelektr stansiyalari (FES) tarmog‘ini yanada kengaytirish hamda Urgut EIZdagi

korxonalar tomlarida majburiy tartibda mikro-quyosh panellarini o‘rnatish tizimiga o‘tishni tavsiya etamiz.

3. Shahar va turistik ob’ektlarda chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimining past darajasi. Chiqindilarni saralash va qayta ishlash klasterlari faoliyati innovatsion texnologiyalar bilan to‘liq ta’minlanmagan.

Amaliy yechim bu chiqindilardan biogaz va elektr energiyasi oladigan xorijiy innovatsion texnologiyalarni (*Waste-to-Energy*) davlat-xususiy sheriklik asosida viloyatga faol olib kirish zarur.

ILMIY-NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATGA MOLIK TAKLIF VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida Samarqand viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ilmiy va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Ilmiy-nazariy takliflar:

Mintaqaviy iqtisodiyot yo‘nalishida ilk bor Samarqand viloyatining tumanlari kesimida "Yashil iqtisodiy barqarorlik reytingi" (*Green Regional Index*) metodologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish. Bu qaysi tumanda ekologik innovatsiyalar yaxshi ishlayotganini baholash imkonini beradi.

Turizm sohasida resurs sarfini optimallashtirish maqsadida "Yashil mehmandorchilik" (*Green Hospitality*) ilmiy-tashkiliy konsepsiyasini shakllantirish.

Amaliy tavsiyalar:

Institutsional sohada Samarqand viloyati hokimligi huzurida "Yashil transformatsiya va innovatsiyalar markazi"ni tashkil etishni amaliy tavsiya sifatida taklif etamiz. Ushbu markaz viloyatdagi korxonalarga energiya auditi o‘tkazish va yashil standartlarni joriy etishda metodik yordam ko‘rsatadi.

Investitsion sohada Samarqandning tarixiy va turistik jozibadorligidan foydalanib, xalqaro moliya institutlari (YTTB, OTB) ko‘magida viloyat uchun maxsus "Samarkand Green Bond" (Samarqand yashil obligatsiyalari)ni muomalaga chiqarish va tushgan mablag‘larni to‘liq Zarafshon daryosini muhofaza qilish hamda ekologik transport tizimiga yo‘naltirish mumkin.

Innovatsion sohada Urgut va Jomboy tumanlarida qishloq xo‘jaligi texnikalari va quyosh panellari butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi "Yashil texnologiyalar klasteri"ni tashkil etish, bu orqali texnologiyalar importiga bog‘liqlikni kamaytirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 142-145.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha bo‘lgan davrda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PQ-436-sonli Qarori.
3. Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlari ma’lumotlari (2026 y.). – Samarqand viloyati hokimligi statistik to‘plami.

4. UNEP (2025). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – United Nations Environment Programme Report. – Pp. 24-29.

IJARA XIZMATLARI BOZORINING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Real iqtisodiyot” kafedrasi assistant-stajyor
S.N.Hukumova
+998200013638
sadoqathukumova@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijara xizmatlari bozorining — ko‘chmas mulk ijarasi, transport ijarasi va uskunalar ijarasi segmentlari — nazariy asoslari tahlil qilinadi. Ijara munosabatlarining iqtisodiy mohiyati, ijara bozorini tavsiflovchi nazariy modellar va O‘zbekiston sharoitidagi xususiyatlar ko‘rib chiqiladi. Statistik ma’lumotlar asosida mamlakatdagi ijara xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari va asosiy segmentlari taqqoslanadi. Jadval va grafik vositasida bozor ko‘rsatkichlari xalqaro tajriba bilan qiyoslanadi. Maqola O‘zbekistonda ijara xizmatlari bozorini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar tizimi bilan yakunlanadi.

Аннотация: В данной статье теоретические основы рынка арендных услуг — сегментов аренды недвижимости, транспорта и оборудования — анализируются. Рассматриваются экономическая сущность арендных отношений, теоретические модели рынка аренды и особенности условий Узбекистана. На основе статистических данных сравниваются тенденции развития рынка арендных услуг и основные сегменты страны. В таблицах и графиках рыночные показатели сопоставляются с международным опытом. Статья завершается системой научно обоснованных рекомендаций по развитию рынка арендных услуг в Узбекистане.

Abstract: This article analyses the theoretical foundations of the rental services market — real estate rental, transport rental, and equipment rental segments — within. The economic essence of rental relations, theoretical models of rental markets, and specific features of Uzbekistan's conditions are examined. Based on statistical data, the development trends of the country's rental services market and its main segments are compared. Key market indicators are benchmarked against international experience through tables and graphs. The article concludes with a system of scientifically grounded recommendations for developing the rental services market in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: ijara xizmatlari, ijara bozori, ko‘chmas mulk ijarasi, transport ijarasi, uskunalar ijarasi, ijara munosabatlari, ijara narxi, xizmatlar sektori, O‘zbekiston.

Ключевые слова: арендные услуги, рынок аренды, аренда недвижимости, аренда транспорта, аренда оборудования, арендные отношения, арендная плата, сектор услуг, Узбекистан.

Keywords: rental services, rental market, real estate rental, transport rental, equipment rental, rental relations, rental price, services sector, Uzbekistan.

KIRISH

Ijara xizmatlari — birovning mulkidan vaqtincha foydalanish evaziga to‘lov amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar majmui — zamonaviy xizmatlar iqtisodiyotining muhim segmentini tashkil etadi. Ko‘chmas mulk (uy-joy va tijorat maydoni ijarasi), transport (avtomobil, mashina-traktor parklari) va uskunalar (qurilish, qishloq xo‘jaligi texnikasi) ijarasi ijara bozorining uchta asosiy yo‘nalishidir. O‘zbekistonda xizmatlar sektori YaIMning taxminan 47 foizini tashkil etmoqda,[52] unda ijara xizmatlari ko‘chmas mulk va uy-joy bozorida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shaharlashtirish surəatining o‘sishi, yangi shahar tumanlarining barpo etilishi va iqtisodiy faollikning ortishi O‘zbekistonda ijara xizmatlariga talabni doimiy ravishda oshirib bormoqda. Aholining ijara orqali turar-joy yechimini topishi tendensiyasi butun dunyo bo‘yicha kengayib bormoqda: OECD ma’lumotlariga ko‘ra,[53] rivojlangan mamlakatlar aholisining 30–40 foizi uy-joyni ijarada yashaydi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich hali yetarlicha o‘rganilmagan va rasmiy statistikaga to‘liq ko‘rinmaydi — bu esa mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqotning asosiy muammosi: O‘zbekistonda ijara xizmatlari bozori qanday tarkibiy xususiyatlarga ega va uni rivojlantirishga nima to‘sqinlik qilmoqda? Ko‘chmas mulk ijarasi bozorida norasmiy munosabatlarning keng tarqalganligi, ijara shartnomalari ro‘yxatdan o‘tkarilmasligining odatiy holga aylanishi va ijara narxlarining haddan tashqari tez o‘sishi asosiy muammolar sifatida ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga transport va uskunalar ijarasi segmentlari hali yetarli darajada rivojlanmagan.

[52]O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yalpi ichki mahsulot tarkibi va xizmatlar sektori 2023. Toshkent. — https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts

[53]OECD. Affordable Housing Database — Rental Markets. Paris: OECD Publishing, 2023. — https://www.oecd.org/housing/data/affordable-housing-database/

Tadqiqot maqsadi — O‘zbekiston ijara xizmatlari bozorining nazariy asoslarini ko‘rib chiqish va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish. Belgilangan vazifalar:

- ijara munosabatlarining iqtisodiy nazariyasini ko‘rib chiqish;
- bozorning asosiy segmentlarini va O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;
- xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil;
- rivojlanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda quyidagi yondashuvlar qo‘llanildi. **Tahliliy yondashuv:** ijara munosabatlarining nazariy asoslari ilmiy adabiyot (Arnott, 1987;[54] DiPasquale va Wheaton, 1996[55]) asosida o‘rganildi. **Statistik tahlil:** O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari[56][57] asosida bozor ko‘rsatkichlari hisoblandi. **Solishtirma tahlil:** O‘zbekiston ko‘rsatkichlari Jahon banki[58] va OECD[59] ma’lumotlaridagi mamlakatlar bilan taqqoslandi. **Segmentlar tahlili:** ko‘chmas mulk ijarasi, transport ijarasi va uskunalar ijarasi alohida ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davri: 2019–2023-yillar.

Ijara munosabatlarining nazariy asoslari. Ijara munosabatlarini iqtisodiy nazariy jihatdan tushuntirishda ikki asosiy yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv — xarajatlar tahlili: ijarachi mulkni sotib olish o‘rniga vaqtincha foydalanishni tanlaydi, chunki kapital xarajat (sotib olish narxi) undan olinadigan foyda bilan qoplanmaydi yoki imkoniyat narxi yuqori bo‘ladi. Ikkinchi yondashuv — risklarni taqsimlash: mulk egasi uzoq muddatli egalik xatarini, ijarachi esa qisqa muddatli foydalanish xatarini o‘z zimmasiga oladi.

Arnott (1987)[60] uy-joy ijara bozori nazariyasida asosiy ekvilibrium sharti sifatida ijara narxining uy-joy xarajatlari bilan muvozanatini belgilaydi: agar ijara narxi kapitallashtirilgan qiymati sotib olish narxidan past bo‘lsa, aholida ijarada yashashni afzal ko‘rish tendensiyasi kuchayadi. DiPasquale va Wheaton (1996)

[54] Arnott R. Economic Theory and Housing // Handbook of Regional and Urban Economics. 1987. Vol. 2. Pp. 959–988. — https://doi.org/10.1016/S1574-0080(87)80022-6

[55] DiPasquale D., Wheaton W.C. Urban Economics and Real Estate Markets. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1996. Chapter 3: The Rental Housing Market. — https://scholar.google.com/scholar?q=DiPasquale+Wheaton+Urban+Economics+Real+Estate+Markets+1996

[56] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Ko'chmas mulk bozori va xizmatlar statistikasi 2023. Toshkent. — https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/real-estate

[57] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Xizmatlar sektori va uy-joy bozori 2022–2023. Toshkent. — https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services

[58] World Bank. Housing Finance and Affordable Rental Markets in Central Asia. Washington DC: World Bank Group, 2022. — https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/37041

[59] OECD. Affordable Housing Database — Rental Markets. Paris: OECD Publishing, 2023. — https://www.oecd.org/housing/data/affordable-housing-database/

[60] Arnott R. Economic Theory and Housing // Handbook of Regional and Urban Economics. 1987. Vol. 2. Pp. 959–988. — URL: https://doi.org/10.1016/S1574-0080(87)80022-6

[61]esa ikki bozor modeli orqali ko‘chmas mulk ijara bozori va aktivlar bozorini birlashtiradi — bu model O‘zbekistondagi uy-joy bozori uchun ham analitik asos bo‘la oladi: ijara narxining o‘sishi bino qurilishi investitsiyalarini rag‘batlantirib, uzoq muddatda taklif ko‘payishiga olib keladi.

Ijara xizmatlarining iqtisodiy funksiyalari uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. **Birinchi funksiya — harakatchanlik ta’minlash:** ijara aholining va biznesning geografik harakatchanligini oshiradi — joyni almashtirish kapital yo‘qotishsiz amalga oshiriladi. **Ikkinchi funksiya — resurslardan samarali foydalanish:** kam yuklanib turadigan aktivlar (transport, uskunalar) ijarada bo‘lganda muqobil foydalanuvchilarga xizmat qilishi mumkin. **Uchinchi funksiya — kirish imkoniyatini kengaytirish:** past daromadli aholi va boshlang‘ich biznes kapital to‘plash zaruriyatisiz qimmat aktivlardan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi.

1-jadval. O‘zbekiston ijara xizmatlari bozori segmentlari tahlili (2023)

Segment	Bozor hajmi (mlrd so‘m)	Yillik o‘sish, %	Rasmiy ulush, %	Qamrov (ming ta)	Asosiy xususiyat
Ko‘chmas mulk ijarasi (uy-joy)	18 400	↑14	58	420+	Norasmiy sektor keng, narx tez o‘smoqda
Tijorat ko‘chmas mulk ijarasi	7 200	↑18	85	32 000 m²+	Ofis, savdo, ombor — rasmiylashtirish yuqori
Transport ijarasi (avtomobil va texnika)	3 100	↑22	40	18+	O‘sish tezligi eng yuqori segment
Qishloq xo‘jaligi texnikasi ijarasi	1 800	↑11	30	Keng	Kooperativ ijara tizimlari rivojlanyapti
Qurilish uskunalari ijarasi	1 200	↑27	45	560+	Qurilish bumi ta'sirida tez o‘sish

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan[62]

[61] DiPasquale D., Wheaton W.C. Urban Economics and Real Estate Markets. Prentice Hall, 1996. — URL: https://scholar.google.com/scholar?q=DiPasquale+Wheaton+Urban+Economics+Real+Estate+Markets

[62] Muallif ishlanmasi

Jadvaldan shunday xulosa chiqarish mumkin: uy-joy ijarasi eng katta segment (18 400 mlrd so‘m), ammo uning norasmiy ulushi juda yuqori — bu statistika bilan real bozor o‘rtasidagi bo‘shliqni anglatadi. Transport va qurilish uskunalari ijarasi esa o‘sish sur’ati bo‘yicha eng dinamik segmentlar: yiliga 22–27 foiz o‘sish mamlakatdagi qurilish va shahar rivojlanishi bumi bilan bevosita bog‘liq.

1-jadval. Ijara xizmatlari bozori segmentlarining o‘sish dinamikasi (2019–2023, mlrd so‘m)

Segment	2019	2020	2021	2022	2023
Uy-joy ijarasi	10 200	10 800	13 100	16 100	18 400
Tijorat ko‘chmas mulk	3 800	3 600	4 500	6 100	7 200
Transport ijarasi	1 400	1 300	1 700	2 500	3 100
Qishloq xo‘jaligi texnikasi	1 200	1 100	1 300	1 600	1 800
Qurilish uskunalari	550	480	670	950	1 200
JAMI	17 150	17 280	21 270	27 250	31 700

2020-yilda barcha segmentlarda sekinlashish COVID-19 ta’sirida. Manba: Tadqiqot asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadval O‘zbekiston ijara bozorining umumiy hajmi 2019–2023-yillarda 17 150 mlrd so‘mdan 31 700 mlrd so‘mga — 1,85 barobar — o‘sganini ko‘rsatadi. Transport ijarasi ushbu davrda hajmini 2,2 barobar oshirdi — bu eng tez o‘sgan segment. Uy-joy ijarasi mutlaq hajm jihatidan dominant bo‘lib qolmoqda, biroq bozorning norasmiy qismi rasmiy statistikaga kirmayotganligi tufayli haqiqiy ko‘rsatkich ancha yuqori.

Bozorning hududiy tuzilmasi. O‘zbekiston ijara bozori geografik jihatdan ham kuchli markazlashgan. Toshkent shahri yalpi ijara bozorining taxminan 42 foizini tashkil etadi, bu holat viloyatlar bilan hududiy tengsizlikni yaratadi. Samarqand, Buxoro va Farg‘ona kabi yirik shaharlar turistik va tijorat ko‘chmas mulk ijarasi segmentlarida faol rivojlanmoqda, ammo qolgan viloyatlarda ijara bozori hali zaif.

Natijalarni nazariy modellar bilan taqqoslash. Arnott (1987) ijara narxi nazariyasiga ko‘ra, narxning doimiy o‘sishi yangi qurilish va taklif ortishiga turtki berishi kerak. O‘zbekistonda uy-joy ijarasi narxi 2019–2023-yillarda yiliga o‘rtacha 12–14 foiz o‘sdi, qurilish hajmi ham sezilarli kengaydi. Biroq taklifning o‘sishi talabni qoplay olmayapti — buning asosiy sababi qurilish xarajatlarining tez ko‘tarilishi va qurilish uchun ajratilgan yerlar cheklanganligi. DiPasquale va

Wheaton (1996) modeli bu holatda bozor ekvilibriumga sekinroq erishishini bashorat qiladi — bu O‘zbekiston uy-joy ijarasi bozorida kuzatilayotgan narsadir.

Norasmiy sektor muammosi. O‘zbekiston uy-joy ijarasi bozorining eng katta tizimli muammosi — norasmiy ijara munosabatlarining keng tarqalganligi. Ko‘plab ijara shartnomalari yozma tuzilmaydi, soliqqa tortilmaydi va nizolar bo‘lgan taqdirda tomonlarni huquqiy himoya qilish qiyinlashadi. Jahon banki Doing Business hisobotida[63] O‘zbekiston ijara nizolarini hal qilish samaradorligi bo‘yicha hali takomillashtirilishi kerak bo‘lgan sohalar sifatida belgilangan. UNDP tadqiqotida[64] norasmiy ijara bozori keng tarqalgan mamlakatlarda ijarachilar huquqlari kam himoyalanishi va ijaradagi uy-joy sifati past bo‘lishi tendensiyasi aniqlangan.

Xalqaro tajriba bilan solishtirish. OECD ijara bozori ma’lumotlar bazasi rivojlangan mamlakatlarda ijara bozorining uch xususiyatini ajratadi:

- rasmiy sektor dominantligi — 80 foizdan ortiq shartnomalari notarial asoslangan;
- bozor regulyatsiyasi — ijara narxlarining keskin o‘sishini cheklovchi mexanizmlar;
- institutsional ijarachilar — ko‘p kvartirali uy-joy ijarasi biznesini yurituvchi professional kompaniyalar. O‘zbekistonda ushbu uchala xususiyat hali zaif rivojlangan — bu bozorning salohiyatini ochib beruvchi asosiy yo‘nalishni ko‘rsatadi.

